AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

1/2024

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN 3030-3273


AL-BUKHARI

Scientific journal



FILOLOGIYA

TARIX





PHILOLOGY

HISTORY

ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinchi son)

Toshkent – 2024

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:

Govxar Raxmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Durdona Lutfullaeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Komiljon Raximov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. O‘ktam Mavlonov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Timur Muxtorov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Akram Kxabibullaev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi;**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Islomov Zohidjon Mahmudovich
Alisher Navoiy merosida payg‘ambarlar siymosi 4

Shamusarov Sharustam Giyazovich
Arab folklorida nazmiy va nasriy janrlar 12

Shoaliyeva Nargiza Kakhramanovna, Golkarian Ghadir Dursunoğlu
Nizomiy Ganjaviy ijodining Movarounnahr adabiy muhitiga ta’siri 22

Qosimova Sarvinoz Sayfullayevna
Zamaxshariyning arab tili grammatikasi bo‘yicha yaratgan eng yaxshi kitobi 38

To‘ychiyeva Sayyora Suyarqulovna, Yunusov Komiljon Alimdjanovich
Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodining media vositalarida yoritilishi 49

Axmedov Oybek Saparboyevich, Akramova Xurshida Artikbayevna
Ingliz va o‘zbek tillarida internet matnlarining struktur-semantik va diskurs tahlili 60

Egamberdiyeva Shahzoda Damirovna, Egamberdiyeva Farida Oktamovna
Intertextuality as a main characteristic of advertising discourse 69

Ganixanova Madina Bahretdinovna, Abdullayeva Nargiza Raxmatullayevna
Analysis of lexical and semantic features of modern business terms in English 78

TARIX

Usmonov Ibrohim Sobirovich
Исламское право между суфизмом и фикхом 87

Xalilova Zilola Erkinovna
Islom dini madaniy merosida ta’lim fenomeni: dunyoviylik va axloq masalasiga doir qarashlar.. 99

Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li
Qo‘lyozma va litografik manbalarni raqamlashtirish muammolari 110

Sharipov Azamat Shamilevich
History of cultural cooperation between Uzbekistan and Turkiye (1991-2019) 119

ALISHER NAVOIY MEROSIDA PAYG‘AMBARLAR SIYMOSI

THE IMAGE OF THE PROPHETS IN THE POEMS OF ALISHER NAVAI

ОБРАЗ ПРОРОКОВ В СТИХАХ АЛИШЕРА НАВАИ

Islomov Zohidjon Mahmudovich,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor, fil.f.d., professor
Tel: +998 90 963-23-73
z.islamov@iiau.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz turkiy adabiyotning mashhur namoyandasi Alisher Navoiy g‘azallaridagi payg‘ambarlar mavzusi chuqur o‘rganilgan. Navoiyning “Hayratu-l-abror”, “Nasoyimu-l-muhabbat” kabi doston va asarlarida aks ettirilgan payg‘ambarlar tarixi, jumladan, Yusuf payg‘ambar qissasiga bo‘lgan qiziqish tadqiq etildi. Payg‘ambarlarga oid baytlar keltirilishi bilan birga, ma’lumot uchun tarixiy faktlar ham matn holida berib o‘tiladi. Misralar yanada tushunarli bo‘lishi uchun ularning zamonaviy o‘zbek tilidagi tarjimalari ham havola qilingan. Alisher Navoiy Qur’oni Karimning payg‘ambarlar haqidagi oyatlariga tayangan holda o‘z adabiy asarlarida diniy hikoyatlarni she’riy uslubda talqin etadi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston adabiyotshunosligining sho‘rolar davridan to mamlakat mustaqilligigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘li ko‘rib chiqilib, Navoiy asarlarining har ikki davrda turli darajada o‘rganilganligi ta’kidlangan. Ayniqsa, Navoiy she’riyatida payg‘ambarlar mavzusi yoritilishiga bo‘lgan qiziqish va tadqiqotlar ko‘payib borayotgani, Alisher Navoiy ijodiga mansub to‘plamlar qayta-qayta chop etilib, o‘rganib kelinayotgani alohida eslab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, payg‘ambarlar, Yusuf payg‘ambar, qissa, doston, badiiy ta’lqin, she’r, adabiyotshunoslik.*

Annotation. In this article, the topic of prophets in the poems of Alisher Navoi, a famous representative of classic Turkic literature, is deeply analyzed. The interest in the history of prophets, including the story of Prophet Yusuf, reflected in Navoi’s epics and works such as “Hayratu-l-abror” and “Nasayimu-l-muhabbat” was researched. Along with the verses about the prophets, historical facts were also given in text form for information. In order to make the verses more understandable, their translations in the modern Uzbek language were also provided. Alisher Navoi interprets religious stories in a poetic style in his literary works based on the verses of the Holy Qur’an about the prophets. The article also highlights the development path of Uzbek literary studies from the period of the Soviets to the country’s independence, and it is noted that Navoi’s works were studied at different levels in both periods. In particular, it was mentioned that the interest and research in the topic of prophets in Navoi’s poetry is

increasing, and the collections of Alisher Navoi's works have been repeatedly published and studied.

Key words: *Alisher Navoi, prophets, Prophet Yusuf, short story, epic, artistic interpretation, poem, literary studies.*

Аннотация. В данной статье глубоко исследована тема пророков в стихах Алишера Навои, известного представителя классической тюркской литературы. Исследован интерес к истории пророков, в том числе к истории Пророка Юсуфа, отраженной в эпосе Навои и таких произведениях, как «Хайрату-л-аброр» и «Насаиму-л-мухаббат». Наряду со стихами о пророках даны и исторические факты в виде текста для сведения. Для того, чтобы стихи были более понятны, также предоставлены их переводы на современный узбекский язык. Алишер Навои в своих литературных произведениях интерпретирует религиозные сюжеты в поэтическом стиле на основе аятов Священного Корана о пророках. В статье также рассматривается путь развития узбекского литературоведения от периода Советов до независимости страны и отмечается, что творчество Навои изучалось на разных уровнях в оба периода. В частности, было отмечено, что интерес и исследования к теме пророков в поэзии Навои возрастают, неоднократно издаются и изучаются сборники произведений Алишера Навои.

Ключевые слова: *Алишер Навои, пророки, Пророк Юсуф, рассказ, эпос, художественная интерпретация, поэма, литературоведение.*

KIRISH

Mir Alisher Navoiy nafaqat mumtoz o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, so‘z san’atining mohir me’mori, balki islom ilmlarining o‘tkir bilimdoni ham hisoblanadi. Navoiy Qur’oni Karim, hadisi sharif, aqida, fiqh, tasavvuf, hamda siyrat ilmlarini mukammal bilgan va o‘z devonlari, dostonlarida ulardan keng foydalangan. Arab hamda fors tillari lug‘at boyligining ma’no xususiyatlarini chuqur anglab, turkiy tilda so‘z san’atining qasrini bunyod etgan. Buyuk Navoiy o‘z asarlarida payg‘ambarlar tarixining ham tugal tavsifini keltira olgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, diniy qadriyatlarimiz tiklanishiga katta imkoniyatlar taqdim etildi. Sobiq Ittifoq davrida o‘z tarixi va dinini o‘rganishdan mahrum etilgan xalq endilikda ajdodlari o‘tmishini turli manbalar orqali o‘rgana boshladi. Ammo, mavjud g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalangan ba’zi g‘araz niyatdagi toifalar millatdoshlarimiz orasida din va tarix niqobi ostida o‘zlarining manfaatlariga xizmat qiluvchi mafkuralarni tiqishtira boshladilar. Biroq, millatimiz shunday qadim va buyuk sivilizatsiyaga egaki, biz bu tamaddunga asoslangan holda milliy va diniy qadriyatlarimizni nafaqat tiklay olamiz, balki yana ham rivojlantirish imkoniyatiga egamiz. Bu borada ajdodlarimizdan meros qolgan boy ma’naviy xazinalarni o‘rganish, ularni o‘sib kelayotgan yosh avlodlarga tanishtirish bizning vazifamizdir. Shunday ma’naviy yodgorliklardan deb Alisher Navoiyning asarlarini aytib o‘tishimiz mumkin. Alisher Navoiy faqatgina badiiy ijod bilan

shug‘ullangan shoir emas, balki, ko‘plab sohalardagi sermahsul faoliyati bilan birgalikda, diniy yo‘nalishda ham ilmiy-ijodiy asarlar meros qoldirgan mutafakkir hisoblanadi. Biz bu bilan ajdodlarimizning diniy bilimdonligi ham naqadar yuqori bo‘lganligini his etamiz. Shu bois, mazkur maqolada Alisher Navoiyning she’rlari misolida payg‘ambarlar tarixi qay darajada mahorat bilan aniq va qiziqarli tasvirlanganini ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma’lumki, Alisher Navoiy ijodiga mansub “Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”) nomli asar kitob holida yurtimizda chop etilgan. Bu asarda Odam Atodan boshlab ko‘pgina nabiylar va rosullar tarixini Navoiy tili orqali o‘qib o‘rganish imkoniyatiga egamiz. Alisher Navoiy asarlarini yangitdan chop etishda Navoiyshunos va adabiyotshunos olimlar – Suyima G‘aniyeva, Ibrohim Haqqul, Aftondil Erkinov, Oysara Madaliyeva va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarning xizmatlarini e’tirof etish lozim. Bular qatorida filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovni ham eslab o‘tish o‘rinli. Uning “Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma’rifiy asoslari” nomli maqolasida Alisher Navoiy diniy bilimlarni qaysi manbalardan o‘rgangani, hamda diniy mavzuda qanday ijod namunalariga ega ekani batafsil aytib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Alisher Navoiy merosida payg‘ambarlar siymosi” nomli ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi adabiyot, tarix va qo‘lyozma tahlilini o‘zida mujassam etadi. Tadqiqotda asosiy e’tibor Alisher Navoiy o‘z she’rlarida payg‘ambarlar siymosini qanday tasvirlashiga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotni o‘tkazish uchun adabiyotlar sharhi, qo‘lyozmalar tahlili, she’r tahlili va sharhi, tarjimalarning qiyosiy tahlili kabi usullar qo‘llanildi. Qiyosiy tahlil Navoiy she’riyatidagi payg‘ambarlar obrazini o‘sha davrdagi boshqa fors shoirlari bilan solishtirishni ham o‘z ichiga olgan. Bu qiyosiy tahlil Navoiyning payg‘ambarlar tasviridagi o‘ziga xos uslubiy va mavzuli unsurlarni tushunishga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek mumtoz adabiyoti va tilining asoschisi, she’riyat mulkining sultoni Nizomiddin Amir Alisher Navoiy beqiyos ilmiy ma’naviy merosi bilan dunyo madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning ma’naviy merosiga sharq mutafakkirlari katta baho berganlar va unga bag‘ishlab asarlar yaratganlar. Alisher Navoiy o‘lmas asarlarida islom va tasavvuf ta’limotiga ham alohida e’tibor bergan. Shu nuqtayi nazardan uning asarlarini islom manbashunosligining nodir namunalari sifatida o‘rganish mustaqillik davrining ne’matlaridan sanaladi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Alisher Navoiy islom ta’limotini, Qur’oni Karim va hadisi shariflarni juda erta yoshidan o‘rgangan va mukammal bilgan. Olimning “Hayratu-l-abror”, “Nasoimu-l-muhabbat”, “Siroju-l-muslimin”, “Tarixi anbiyo va hukamo” kabi asarlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Alisher Navoiy dahosi, mahorati davr ahlining keng

iste’molida bo‘lgan turkiy, forsiy hamda arabiy tillar so‘z boyligini san’atkorona qo‘llay olganligida ko‘rinadi. Jumladan, alloma o‘z asarlarida arab tilidagi Qur’oni Karim oyatlari, hadisi shariflardan mohirona foydalanadiki, aynan ular uzviylikda asosiy fikr, g‘oyani kitobxonga mukammal yetkazishga yo‘naltirilgandek ko‘rinadi. Navoiy, ayniqsa, tarixiy manbalarda keltirilgan payg‘ambarlar haqidagi ma’lumotlarni puxta bilgan va ulardan o‘z asarlarida keng foydalangan. Lekin sobiq davrlarda Alisher Navoiy merosini mazkur yo‘nalishda o‘rganish imkoniyati bo‘lmadi. Hozirgi vaqtda diniy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar, unga bo‘lgan e’tibor bu yo‘nalishda ham tadqiqotlar olib borish imkonini bermoqda. Xususan, payg‘ambarlar tarixi haqidagi ma’lumotlar Alisher Navoiyning barcha asarlarida uchraydi.

Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyning “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonida ham payg‘ambarlar tarixi bo‘yicha muhim ma’lumotlar keltirilgan. Dostonda 3-o‘rinda Odam Ato, 4-o‘rinda Nuh (a.s.), 2-o‘rinda Ya’qub (a.s.), 11-o‘rinda Yusuf (a.s.), 47-o‘rinda Iso (a.s.) va Muhammad (s.a.v.) haqida nodir ma’lumotlar keltiriladi. Payg‘ambarlar haqidagi ma’lumotlar Alisher Navoiyning ijodiy tafakkuridan o‘tgan shoirona ishlov asosida bayon etilgan.

Jumladan, Odam Ato siymosi. Odam (a.s.) yer yuzida yashagan ilk insondir. U zotning ismi Qur’oni Karimning to‘qqiz surasida yigirma besh marotaba zikr qilingan. Unga ko‘ra, Odam (a.s.) jannatda yaratilgan va Alloh taolo man etgan daraxt mevasini yeb qo‘ygani sababidan yerga tushirilgan. Odam Ato Makka va Toif shaharlari orasidagi Dajno degan hududga, Makka shahridagi Safo tog‘iga, yoki Sarandib (Shri Lanka) hududiga tushirilgani haqidagi rivoyatlar mavjud. Islomda birinchi payg‘ambar hisoblanadi. 930 yil yashagan. Jumladan, Navoiy yozadi:

Aylagandek mardumi obiy burun ko‘z mardumin,
Emdi ul nav’ aylamish xayli bani Odamni su. (Navoiy, Alisher, 1988: 282)

Bevafolig‘ gar budurkim, qildi ul sho‘x, ey ko‘ngul,
Sarfa qilmas oshnolig‘ Odam avlodi bila. (Navoiy, Alisher, 1988: 306)

Alisher Navoiy devonda Ya’qub (a.s.) va uning o‘g‘li Yusuf (a.s) ta’rifiga katta e’tibor bergan. Asarda Ya’qub (a.s.) haqida 2 o‘rinda quyidagi misralar keltirilgan.

Yo falak berdi yig‘i ko‘r aylagan Yoqubning,
Ko‘zlari ochilmoq uchun Mohi Kan’on mujdasin. (Navoiy, Alisher, 1988: 257)

Kan’on Ya’qub payg‘ambar davrida Falastin viloyatlaridan biri bo‘lgan. Mazkur baytdan oldingi matla’da shoir erta tong kulib turgan mahbubadan gulbarg xabar keltirdi yoki ko‘ngil Masih jon baxsh etuvchi nafasdan jon topdi, deyiladi. Ikkinchi baytda osmon Ya’qubning ko‘r ko‘zlari ochilishini istab, Kan’on shohidan xabar keltirdi. Ya’qub o‘g‘li Yusufdan ayrilib yig‘lab-yig‘lab ko‘r bo‘lib qolgan va undan xabar kelgach, ko‘zlari ochilganiga ishora bor.

Yusufum hajrida Ya'qub g'am ichra, mutribo,
Uylamenkim, xushlug'um yo'q nag'mayi Dovud ila. (Navoiy, Alisher, 1988: 296)

"Ya'qub Yusufdan ajralib g'am girdobida qoldi, shu sababli Dovudning nag'masi ham yoqmayapti". Dovud - unga Alloh payg'ambarlik va podshohlikni bergan. Dovudga Zabur kitobi tushirilgan. Dovud musiqiy sozlarni mohirona chalgan. Farzand dog'i, firoqining azobli ekanligini ta'riflab "Ey chalg'uchi, Yusufdan ayrilgan Ya'qub g'amda qolganidek, men shunday g'amda qolganmanki, Dovud chaladigan nag'ma ham menga yoqmaydi," - deydi shoir.

Payg'ambarlar tarixidan ma'lumki, Ya'qub payg'ambarning o'n ikki o'g'li bo'lgan. Ularning ichidan chiqqan yagona payg'ambar Yusuf (a.s.) hisoblanadi. Mumtoz sharq adabiyotida Yusuf payg'ambarga bag'ishlangan turli rivoyatlarga asoslangan asarlar mavjud. Ularga ko'ra, Yusufni ota-onalari juda sevishgan. Buni oiladagi aka-ukalari ko'ra olmagan. Shu sababli uni o'zlari bilan birga safarga olib ketishgan. Yo'lda yosh Yusufni quduqqa tashlab o'zlari qaytib ketadilar va otalariga uning qonga bo'yalgan ko'ylagini ko'rsatadilar. Ota farzand firoqida yig'lab ko'r bo'lib qoladi. Quduq yonidan o'tgan karvon egalari Yusufni chiqarib olib ketadilar va Misr vaziriga sotadilar. Yusuf juda barno, aqlli bo'lib kamol topadi, Misrda keng ko'lamli obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini olib boradi, xalq farovonligi ortadi. Yillar o'tib Ya'qub (a.s.) o'g'li Yusuf (a.s.) haqida xabar topadi. Ota va bola uchrashadilar. So'ngra Misrda yashaydilar. Yusuf (a.s.) yuz yil umr ko'rgan, degan ma'lumotlar bor.

Yusufki, jamol ichra ma'dum edi monandi,
Topmadi malohatda husnini sanga monand. (Navoiy, Alisher, 1988: 75)

"Go'zallikda Yusufga o'xshashi yo'q edi. Malohatda husni sen kabi, senga tengi topilmadi". Badiiy adabiyotda bu kabi baytlar Yusuf obrazi go'zallik timsoliga aylanganligiga ishora qiladi.

Gulruxum yodi bila ko'nglum erur gulga haris,
Kim, berur Yusuf isi qon aro yuz pora qamis. (Navoiy, Alisher, 1988: 157)

"Gulyuzligim (dilbarim, yorim) yodi bilan ko'nglim gulni xuddi Yusufning hidi yuz pora bo'lgan, qonga belangan ko'ylakdan kelgani kabi istaydi". Bu baytda Yusufni bo'rilar yeb ketdi, deb otasi Ya'qubga qonga belangan ko'ylakni olib kelganlarida undan Yusufning hidi kelib turganligi aytilmoqda.

O'gub jannat gulin voiz tilarkim, aylasam savdo,
Necha eski diramg'a Yusufum, vah, ko'rgil idrokin. (Navoiy, Alisher, 1988: 246)

"Voiz maqtanib jannat gulini sotib olishni istaydi. Bir necha eski kumush tanga bilan Yusufni sotib olmoq idrokini qarang, vah". Yusuf Misrga olib kelinganidan so'ng

u qul sifatida savdoga qo‘yilgan. Savdoda tujjorlar unga arzimagan narxlarni tavsiya qilishganligi bayon etilmoqda.

Quyidagi baytlarda ham Yusufning savdosi bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan:

Quyoshni Yusufum bay’ig‘a bermak bor esa mumkin,
Degaymen tangai bay’onadur, ermas bahosidin. (Navoiy, Alisher, 1988: 277)

“Yusufim savdosida quyoshni berish mumkin. Men bu bir bay pul uning bahosi emas, der edim”. Shoir Yusufning juda bebaholigiga ishora qilib, unga qiyos sifatida quyoshning narxini berish mumkinligini aytmoqda. Vaholanki, quyoshni narxlashning imkoni yo‘q.

Devonda Yusuf (a.s.)ning qul qilib sotilishi bilan bog‘liq bir qator baytlar keltirilgan. Jumladan:

Ko‘ngulkim, vaslin istar har taraf dog‘i sitam birla,
Erur Yusuf xaridori necha eski diram birla. (Navoiy, Alisher, 1988: 288)

“Sitamli ko‘ngil uning vaslini istaydi. U qo‘lida bir necha eski dirhami bor Yusuf xaridoriga o‘xshaydi”. Bu baytda Yusufni karvon chohdan olib chiqqach, savdogarga arzon-garov sotib yuborganiga ishora mavjud.

Devon matnining 11 baytida Yusuf (a.s.) nomiga ishora bor.

Alisher Navoiyning “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonida Iso (a.s.) siymosiga ham alohida e’tibor bilan qaralgan va asarda u haqidagi ma’lumot 47-o‘rinda uchraydi. Bunda Iso (a.s.)ning Iso, Masih, Isoyi Ruhulloh, hamda Ruhulloh nomlari qo‘llanilgan.

Alisher Navoiy payg‘ambarlar tarixi manbalarini mukammal o‘rgangan, islom ta’limoti va manbalarini, Muhammad (s.a.v.) haqidagi manbalarni ham juda puxta o‘rgangan. Shoir payg‘ambarlar hayotidagi o‘ziga xos jihatlarga alohida e’tibor bergan va ularni she’riy usulda mahorat bilan chizgan. Shunday yondashuvni Muhammad (s.a.v.) haqidagi misralarda ham ko‘rish mumkin.

Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam baniy Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro. (Navoiy, Alisher, 1988: 16)

Tarjimasi: “Odam bolalariga payg‘ambar qilib yuborilgan guruhning xotimi – so‘nggisi bo‘lgan ey ulug‘ zot! Ular (ya’ni boshqa payg‘ambarlar) xotam – uzuk bo‘lsa, sen uzukka naqshlangan ot – ismsen”.

Nasriy bayoni: Ey, bashariyat naslidan chiqqan payg‘ambarlarning eng so‘nggisi! Agar boshqa payg‘ambarlar xotam – Olamlar Podshohi saltanatining uzugi bo‘lsalar, sen bu uzukda saltanat muhri o‘laroq naqshlangan bezaksan.

Bayt Islom aqidasiga ko‘ra so‘nggi payg‘ambar, sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) na’tidagi birinchi g‘azaldan. Shu sababli, matla’da shoir bu zotning nubuvvat xayli – payg‘ambarlar safida tutgan yuksak maqomini vasf etadi. Hazrat Alisher Navoiy Alloh tomonidan yuborilgan payg‘ambarlarni uzukka o‘xshatsa, o‘zbek tilidagi

“uzuk” va “so‘nggi” ma’nolari arab tilida “xotam” so‘zi orqali ifodalanadi. Muhammad (s.a.v.) ta’kidlangan uzukka bitilgan, yozilgan ot – ismdir. Qur’oni Karim va hadisi sharifni, islom ta’limotini mukammal bilgan Navoiy g‘azaldagi har bir so‘z, ayniqsa, islom ta’limotiga oid qo‘llangan so‘zlarning ma’nosiga avvalda ifodalangan nozik jihatlarga moslab ajoyib shoirona o‘xshatish yaratgan.

Muhammadi arabiy sha’ni andin a’zam erur,
Ki, nuqs bo‘lg‘ay ulus bo‘lsa nafyig‘a qoyil. (Navoiy, Alisher, 1988: 541)

“Arab Muhammadning sha’ni shunday ulug‘ki, agar ulus – xalq buni rad etsa, ayb bo‘ladi”.

Qiyomatda gunohin afv etarga,
Rasulingni shafi’ et, kirdgoro. (Navoiy, Alisher, 1988: 16)

“Qiyomat kuni gunohimni kechishda, ey, Yaratgan, Rasulingni himoyachi qilgil”.

Ulusni tutti Navoiy so‘zi aning birla,
Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis. (Navoiy, Alisher, 1988: 61)

“Xalq ichida Navoiy so‘zi tarqalib ketdi. U bilan go‘yo Rasul so‘zlashgandek bo‘ldi”.

Devonda Sulaymon (a.s.), Dovud (a.s.), Muso (a.s.), Xizr (a.s.) kabi payg‘ambarlar haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan.

Buyuk Alisher Navoiy o‘zigacha yaratilgan sharq adabiyoti durdonalari, islom ta’limoti manbalari, Qur’oni Karim hamda hadisi shariflarni, payg‘ambarlar tarixiga oid qadimiy manbalarni mukammal bilgan va ulardagi ma’lumotlardan o‘z adabiy merosida mohirona foydalangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy she’rlarida ifodalangan payg‘ambarlar tarixi turkiy adabiyotdagi diniy hikoyatlarning badiiy talqini haqida qimmatli fikrlar beradi. Navoiyning “Hayratu-l-abror”, “Nasoyimu-l-muhabbat” kabi asarlarini tahlil qilish orqali Navoiyning payg‘ambarlar tarixiga, xususan, Yusuf payg‘ambar qissasiga chuqur qiziqish bildirganligi ko‘rinadi. Bu misralarni hozirgi o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali tadqiqotchilar Navoiy asarlarini kengroq o‘quvchilar ommasiga yetkazish imkoniga ega bo‘ldilar.

Navoiy she’riyatiga murojaat keyingi yillarda jadallashib, uning asarlari to‘plamlari qayta-qayta nashr etilib, turli darajalarda o‘rganilmoqda. Bu Navoiy she’riyatining turk adabiyoti va olimlar jamoatchiligidagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodidagi payg‘ambarlar tavsifi nafaqat uning asarlarining diniy-tarixiy mazmunini yoritib beradi, balki uning she’riy iste’dodi, murakkab mavzularni go‘zal ifodalash qobiliyatini ham namoyon etadi. Navoiy she’riyatiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borar ekan, uning turkiy adabiyotga qo‘shgan hissasi, asarlarida payg‘ambarlar haqidagi izlanishlar hali ham yillar davomida ilmiy qiziqish mavzusi bo‘lib qolishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Навоий, Алишер (1988) Хазойину-л-маъоний. Ғаройибу-с-сиғар. Мукаммал асарлар тўплами. Ж., 3. – Тошкент.

2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

3. Jabborov, Nurboy (2023) Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma’rifiy asoslari. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari. Konferensiya to‘plami.

4. Содиқов, Қ. (2006) Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент: ТДШИ.

5. Navoiy, Alisher (1965) Xazoyinu-l-maoniy. Favoyidu-l-kibar. Soqiynoma. – Toshkent: Badiiy adabiyot.

6. Navoiy, Alisher (1991) Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom.

7. Navoiy, Alisher (2012) To‘la asarlar to‘plami. O‘ninchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom.

REFERENCES:

1. Navoiy, Alisher (1988) Xazoyinu-l-ma’oniy. G‘aroyibu-s-sig‘ar. Mukammal asarlar to‘plami. J., 3. – Toshkent. (In Uzbek)

2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. T. I-IV. – Toshkent: Fan, 1983-1985. (In Uzbek)

3. Jabborov, Nurboy (2023) Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma’rifiy asoslari. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari. Konferensiya to‘plami. (In Uzbek)

4. Sodiqov, Q. (2006) Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent: TDSHI. (In Uzbek)

5. Navoiy, Alisher (1965) Xazoyinu-l-maoniy. Favoyidu-l-kibar. Soqiynoma. – Toshkent: Badiiy adabiyot. (In Uzbek)

6. Navoiy, Alisher (1991) Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. (In Uzbek)

7. Navoiy, Alisher (2012) To‘la asarlar to‘plami. O‘ninchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. (In Uzbek)

ARAB FOLKLORIDA NAZMIY VA NASRIY JANRLAR

POEM AND PROSE GENRES IN ARABIC FOLKLORE

ЖАНРЫ ПОЭМЫ И ПРОЗЫ В АРАБСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Shamusarov Sharustam Giyazovich,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
professori, filologiya fanlari doktori
Tel: +998 90 907-00-57
info@tsuos.uz

Annotatsiya. Maqolada arab folkloriga xos bo‘lgan janrlar tarkibi turli ilmiy-nazariy qarashlar asosida o‘rganildi. Arab tiliga taalluqli nutqiy va she’riy janrlar, nasriy va sahnaviy janrlar turkumlarga ajratilgan holda tadqiq etilganini ko‘rishimiz mumkin. Maqola davomida arab millatiga mansub xalqlarning og‘zaki ijodida saqlanib qolgan she’r va qo‘shiq namunalari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, arab adabiyotidagi badiiy atamalar havola qilingan bo‘lib, ularning izohini maqolada keltirib o‘tganmiz. Arab adabiyotidagi badiiy janrlarni o‘rganishda Liviya, Misr, Suriya va Iroq kabi davlatlar fuqarolari urf-odatlarida hozirgacha saqlanib qolgan lirik meros namunalari aniqlandi hamda maqolada taqdim etildi. Matnda arab adabiyotida uchraydigan janrlar haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan tilshunos olimlar ham eslab o‘tilgan. Ularning asarlaridan joy olgan she’r va qo‘shiqlar taqdim etilishi bilan birga, “Ming bir kecha” to‘plamidagi go‘zal misralar ham keltirib o‘tilgan. “Ming bir kecha” asari tarkibidagi arab folkloriga oid keng tarqalgan janrlar tahlil qilinib, ularning nazmiy va nasriy janrlari xalq og‘zaki ijodidan olingan namunalar misolida tadqiq etildi. Xulosada esa ularning poetikasi, janr xususiyatlari haqida umumlashma natijalar e’lon qilindi.

Kalit so‘zlar: arab folklori, janrlar, rajaz, urjuza, muraqqisat, quduq qo‘shiqlari, muvashshah, zajal, dubayt, mavval, naqarot, ertaklar, siyralar.

Annotation. The composition of genres characteristic of Arab folklore was studied in the article based on various scientific and theoretical views. It can be seen that the spoken and poetic genres, prose, and stage genres related to the Arabic language have been researched by dividing them into categories. Throughout the article, examples of poems and songs preserved in the oral works of the peoples of the Arab nation are cited. Artistic terms from Arabic literature are also used, and their explanations in the article have been given. In the study of artistic genres in Arabic literature, the lyrical heritage preserved in the traditions of citizens of countries such as Libya, Egypt, Syria, and Iraq was identified and presented in the article. During the article, linguists who wrote down information about the genres found in Arabic literature were also mentioned. Poems and songs from their works were presented, as

well as beautiful verses from the collection “A Thousand Nights”. The content of common genres related to Arab folklore in the work “A Thousand Nights” was analyzed, their poetic and prose genres were studied on the basis of samples taken from oral folk art. In the conclusion, general results about their poetics and genre features were announced.

Key words: Arabic folklore, genres, rajaz, urjuza, muraqqisat, well songs, muvashshah, zajal, dubait, mawwal, refrain, tales, siyrahs.

Аннотация. В статье исследован жанровый состав, характерный для арабского фольклора, на основе различных научных и теоретических взглядов. Видно, что устные и поэтические жанры, прозаические и сценические жанры, относящиеся к арабскому языку, исследованы путем разделения их на категории. На протяжении всей статьи приводятся примеры стихов и песен, сохранившихся в устном творчестве народов арабской нации. Также использованы художественные термины из арабской литературы, и в статье дано их пояснение. При исследовании художественных жанров в арабской литературе выявлено и представлено лирическое наследие, сохранившееся в традициях граждан таких стран, как Ливия, Египет, Сирия, и Ирак. В статье также были упомянуты лингвисты, записавшие информацию о жанрах, встречающихся в арабской литературе. Были представлены стихи и песни из их произведений, а также красивые стихи из сборника “Тысяча ночей”. Проанализировано содержание общих жанров, относящихся к арабскому фольклору, в произведении “Тысяча ночей”, а также изучены их поэтические и прозаические жанры на примере образцов, взятых из народных устных произведений. В заключении были озвучены общие итоги об их поэтике и жанровых особенностях.

Ключевые слова: арабский фольклор, жанры, раджаз, урджуза, мураккисат, колодезные песни, мувашшах, заджал, дубайт, маввал, припев, сказки, сира.

KIRISH

Arab xalq og‘zaki ijodi avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, arab dunyosi madaniyati, tarixi va qadriyatlarini aks ettiruvchi turli janrlarni o‘z ichiga olgan boy va jonli an’anadir. Ushbu maqolada biz arab xalqlari tomonidan qadrlanadigan hamda asrab kelinayotgan she’riy va nasriy asarlarga e’tibor qaratib, arab folklorida mavjud bo‘lgan janrlarning murakkab tarkibini o‘rganamiz. Tadqiqot davomida turli ilmiy-nazariy nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqish orqali arab folkloridagi ritmik misralardan tortib, murakkab hikoyalargacha bo‘lgan xilma-xil janrlarni yoritishni maqsad qildik. Shuningdek, arab adabiyotining she’riy va nasriy an’analarida quduq qo‘shiqlari, rajaz, urjuza, muraqqisat, muvashshah, zajal, dubayt, mavval, naqarot, ertaklar, hamda siyralarning ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Liviya, Misr, Suriya va Iroq kabi mamlakatlar an’analarida saqlanib qolgan lirik merosni o‘rganish orqali arab folklorining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ham fikr

yuritiladi. Bundan tashqari, arab hikoyachiligining boyligi va go‘zalligini ko‘rsatuvchi “Ming bir kecha” klassik asaridagi she’riy va nasriy janrlar ahamiyatini ham e’tirof etish lozim. Arab adabiyotidagi umumiy janr va badiiy atamalarni tahlil qilish orqali arab xalq og‘zaki ijodini belgilovchi poetika va janr xususiyatlari haqida har tomonlama ma’lumot berishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab folklorining janrlari tarkibi haqida so‘z boshlaydigan bo‘lsak, dunyo folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodi janrlarini tasnif qilishning turli mezonlari va ilmiy-nazariy yo‘nalishlari ishlab chiqilganini ta’kidlash lozim. Ular orasida L. E. Genin tomonidan tavsiya etilgan usul o‘ziga xosdir. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini ijro usuliga ko‘ra tasniflaganda, janrlar tarkibi quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) Nutqiy janrlar (maqol, hikmatli so‘z, topishmoq va olqishlar);

2) Nazmiy janrlar (lirik qo‘shiqlar, yig‘i-yo‘qlovlar, mehnat qo‘shiqlari va marosim qo‘shiqlari);

3) Nasriy janrlar (ertak, afsona, rivoyat, og‘zaki hikoya va latifalar);

4) Sahnaviy janrlar (xalq dramasi, xalq tomosha san’ati asarlari).

Arab xalq og‘zaki badiiy ijodi taraqqiyotining ilk bosqichlari mahsuli hisoblangan matnlarni retrospektiv tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, qadimgi (islomdan avvalgi) arab folkloridayoq yuqorida sanab o‘tilgan janrlarning deyarli barchasi mavjud bo‘lgan. Arab xalqlarining hozirgi davrdagi folklori esa sanab o‘tilgan barcha janrlarni o‘z ichiga oladigan boy adabiy-ma’naviy xazinadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Arab folkloridagi she’r va nasr janrlariga bag‘ishlangan ushbu maqolaning metodologiyasi arab xalq og‘zaki ijodi, she’riyati va nasriga oid mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqishni o‘z ichiga olgan. Mavzuni har tomonlama tushunish uchun arab adabiyotidagi janrlar tarkibiga oid turli ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Adabiyotlar sharhi: Og‘zaki, she’riy va nasriy janrlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash maqsadida arab xalq og‘zaki ijodi va adabiyoti bo‘yicha tegishli ilmiy maqolalar, kitoblar va akademik jurnallar tahlili o‘tkazildi;

2. Ma’lumotlar to‘plash: Arab xalqining she’rlari, qo‘shiqlari va og‘zaki ijodidan namunalar to‘planib, ularda mavjud bo‘lgan turli janrlar ko‘rsatish uchun tahlil qilindi;

3. Tahlil: arab adabiyotida uchraydigan she’riyat va nasrning turli janrlarini aniqlash va turkumlash maqsadida to‘plangan ma’lumotlar tizimli tahlil qilindi. Arab folkloridagi janrlar xilma-xilligini ko‘rsatish uchun an’anaviy asarlar va adabiy to‘plamlardan misollar keltirildi;

4. Taqqoslash va tasniflash: Aniqlangan janrlar she’riy va nasriy xususiyatlaridan kelib chiqib, qiyoslandi va tasniflandi. Arab adabiyotidan turli badiiy atamalar ham tadqiqot doirasida tahlil qilindi va izohlandi;

5. Xulosalarni taqdim etish: Tadqiqot natijalari arab folkloridagi turli janrlarning xususiyatlari va ahamiyatini yoritib, tizimli tarzda taqdim etildi. “Ming bir kecha” kabi asarlarda uchraydigan arab xalq ogʻzaki ijodiga oid umumiy janrlar tahlil qilinib, ularning uslubiy xususiyatlari haqida soʻz yuritildi.

Umuman olganda, arab folkloridagi she’riy va nasriy janrlarga oid ushbu maqolaning metodologiyasi mavjud adabiyotlarni tizimli koʻrib chiqish, ma’lumotlar toʻplash va tahlil qilish, janrlarni qiyoslash va tasniflash hamda mavzuni har tomonlama koʻrib chiqish uchun topilmalarni taqdim etishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolaning ushbu qismini nazmiy janrlarni tahlil qilishdan boshlaymiz. Qoʻshiq har bir xalq folklorining eng qadimiy va ommaviy turlaridan biri sifatida badiiy tafakkurning tarixiy rivojida alohida oʻrin tutadi.

Arablarning qoʻshiq folklori badiiy soʻz ijrochiligining bu turiga xos barcha umumiy poetik va estetik belgilarni oʻzida mujassam etganligi bilan xususiyatlanadi. Islomdan avvalgi arab she’riyatining bizgacha yetib kelgan asosiy namunalari orasida muallifi aniq boʻlmagan, badiiy qurilishi va ifoda usullariga koʻra alohida turkumni tashkil etadigan she’riy asarlar ham borki, ularni, shubhasiz, xalq ijodi mahsuli deb hisoblamoq kerak. Chunki bunday she’rlarning koʻp qismi qoʻshiqchilar tomonidan ashula qilib aytilgan. Qadimgi arab she’riyatining tadqiqotchisi Husayn Nassarning yozishicha, islomdan avvalgi arab folklorining nazmiy janrlar tarkibi quyidagicha tasnif qilingan:

1) agʻani al-afrax (bayram qoʻshiqlari);
2) agʻani at-tufula (bolalar qoʻshiqlari);
3) agʻani al-abar (quduq qoʻshiqlari);
4) agʻani al-bina (binokorlik qoʻshiqlari);
5) agʻani al-hida (tuyakashlar qoʻshiqlari);
6) anashid ax-xurub (harbiy-vatanparvarlik qoʻshiqlari);
7) an-nuvax (yigʻi-yoʻqlovlar) (Husayn Nassar, 1962: 38)

Koʻpgina qoʻshiqlar janriy mansubiyatidan qat’iy nazar, eng sodda poetik vazn – rajazda toʻqilgan va odatda urjuzalar deb atalgan.

Bayram qoʻshiqlari turkumida toʻy-marosim qoʻshiqlarining oʻziga xos oʻrni boʻlgan. Nazarimizda, arab xalq marosim qoʻshiqlari qadimgi arab folklorida shakllangan adabiy an’ananing bevosita ta’sirida yaratilgan. Quyida keltiriladigan qoʻshiqda arab folkloriga xos oʻynoqilik, lirik kayfiyatning boʻrtib turishi kabi belgilar yaqqol koʻzga tashlanib turadi:

Ataynakum, ataynakum,
fayyuna nuxayyikum.
Ua lau la-z-zaxabu-l-axmar ma xallet biu adikum,
ua lau ma-x-xinta-s-samra ma simnat azarikum. (Husayn Nassar, 1962: 60)

(Bizlar keldik, bizlar keldik,

bizni qutlang, biz ham sizni qutlaylik.
Badaviy qizlarning o‘ziga oro berishin ko‘rib,
ularni shunchalik mehr-oqibatli deb bilaylik).

Arab xalq bolalar qo‘shiqlarini mavzu yo‘nalishiga ko‘ra ikki turkumga bo‘lish mumkin:

a) bolalarning o‘zlari tomonidan to‘qilgan qo‘shiqlar;

b) allalar.

O‘rta asr arab folklorida alla janri “muraqqisat” atamasi bilan tasniflangan. “Muraqqisat” atamasining lug‘aviy ma’nosi “o‘yin tushishga majbur qilmoq” demakdir. Qadimgi arablarning allalari va bolalarni ovutish maqsadida aytadigan erkalash qo‘shiqlari haqidagi ma’lumotlar taniqli venger semitolog olimi I. Goldsiyer tomonidan to‘plangan. (Goldziher I., 1888: 165) 1968-yilda esa bu materiallardan tuzilgan matnlar to‘plami (400 ga yaqin matn) V. Valter tahriri ostida nashr ham etildi.

Bolalar poetik folklori janrlariga oid asarlar o‘zining nisbatan turg‘un matnga egaligiga, hamda tarixiy-folkloriy jarayonlar davomida nihoyatda kam o‘zgarishga uchrashiga ko‘ra konservativ xarakterga ega. Misol tariqasida XIX asr oxirida Suriyadagi el-Xesn qishlog‘ida istiqomat qilgan bir dehqon ayoldan yozib olingan qo‘shiqni keltirishni lozim deb bilamiz:

Ya habib il gab,
La tham ad darb,
Yidbunur il arab,
Yahsibunak kelb.

(Ey qalbim mahbubi,
Yo‘l yurganda bo‘l ogoh,
Sahroyilar duch kelib,
Qazimasin yo‘lingda choh).

Quduq qo‘shiqlari deb ataluvchi xalq she’ri namunalarining yuzaga kelish tarixi arab folklorining eng qadimgi davrlardagi taraqqiyot bosqichlariga bog‘lanadi. Chunki, asosan cho‘l-sahrolarda istiqomat qilgan badaviylarning turmush tarzi ko‘p jihatdan quduq va undagi ulug‘ ne’mat – obi hayotga bog‘liq bo‘lgan. Suvsiz hayotni tasavvur qilish mushkul. Shuning uchun badaviylar hayotida har bir quduqning qazilishi unutilmas voqea bo‘lgan. Quduq qazish chog‘ida ular o‘z mehnatlari, ya’ni obi hayot manbaining bunyod etilishiga bag‘ishlangan xalq qo‘shiqlarini kuylaganlar. Ana shu qazuv jarayoni bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari “Quduq poeziyasi” deb atalgan. Husayn Nassarning ma’lumotlariga qaraganda adi qabilasiga mansub badaviylar quduq qaziyotganda shunday qo‘shiq aytganlar:

Naxnu xafarna bi’ rana-l-xafira,
Baxran yadjishu ma’uxu g‘azira (Dalman G., 1901: 166)

(Quduqni chuqur qilib kovladik biz,

Suv dengizdek ko‘pirib, otilib chiqar shaksiz).

Bizning kunlargacha saqlanib qolgan qadimgi arab xalq qo‘shiqlari hajman ko‘p emas. Buning ustiga islomdan avvalgi davrda yaratilgan arab folklori materiallari orasida lirik, epik va satirik xarakterdagi qo‘shiqlar uchramaydi. Qo‘shiqning bunday turlari o‘rta asrlardan keyin shakllana boshlagan. O‘rta asr arab poetik folklorining she’riy shakllarga nihoyatda boyligi diqqatga sazovordir. XIV-XV asrlarda yaratilgan arab adabiyoti poetikasiga doir ilmiy asarlarda o‘rta asr arab she’riyatining quyidagi yetti xil badiiy shakli ko‘rsatib o‘tilgan:

1) she’r (bu eng ko‘p tarqalgan badiiy shakl bo‘lib, qasida, qit’a, muqattaot kabi janrlarni ham o‘z ichiga olgan);

2) muvashshah;

3) zajal;

4) dubayt (ikki baytdan iborat she’r);

5) mavval;

6) kuma;

7) kan-ua-kan.

Dastlabki ikki she’riy shakl yozma adabiy an’anada ommalashgan janr bo‘lib, adabiy til talablariga rioya qilgan holda yoziladi. Qolgan besh she’riy shaklda esa ijrochi mansub shevaning lisoniy xususiyatlari to‘la saqlangan bo‘ladi. O‘rta asrlarning so‘nggi bosqichi va yangi davr arab poetik folklorida asosan ikki she’riy shakl – zajal va mavval janrlarida ijod qilish ustuvor badiiy an’ana bo‘lgan.

Zajal janrining she’riy tuzilishi muvashshahga o‘xshab ketadi. Ya’ni she’riy bandlar xuddi muvashshahdagi kabi “o‘rab oluvchi” qofiya bilan bog‘lanadi. Muvashshah bilan zajal janrlari o‘rtasidagi farq asosan badiiy tildan foydalanish usulida ko‘zga tashlanadi: muvashshah arab adabiy tilida yoziladi, zajal esa (xoh u muayyan shoir tomonidan yozilgan bo‘lsin, xoh xalq ijodida shakllangan bo‘lsin) faqat arab tilining ma’lum shevalari – leksik boyligini o‘zida ifoda etishi bilan xususiyatlanadi. Zajal bandlari qofiyalanish tizimiga ko‘ra to‘rtlik (a-b-b-a) yoki beshlik (a-a-b-b-a) tuzilishga ega bo‘ladi. Zajal aslida arab xalq og‘zaki ijodida paydo bo‘lgan she’riy janr bo‘lib, tarixiy va adabiy manbalarda ko‘rsatilishicha, XII asrdan e’tiboran arab yozma adabiyotiga ham kirib kela boshlagan. Xususan, Andalusiyada yashab ijod qilgan shoir Ibn Kuzman bu janr badiiy imkoniyatlaridan keng foydalangan. Har holda zajal kelib chiqishiga ko‘ra folklor asosida yuzaga kelgan she’riy janr ekanligiga shubha yo‘q. Ammo, uning qadimgi arablar tomonidan yaratilgan og‘zaki variantlari bizgacha yetib kelmagan, xolos. Hozircha zajalning eng qadimiy namunalari (muallifi ma’lum bo‘lgan hamda xalq to‘qigan) qayd qilingan manba Ibn Xaldunning “Muqaddima” asari hisoblanadi.

Quyida Abdusalom Ibrohim Qodirbey tomonidan yozib olingan Liviya xalq zajalidan birini keltiramiz. Ayni paytda bu xalq qo‘shig‘i arab nikoh to‘yi marosimi poetik folklorining ham eng go‘zal namunasi hisoblanadi:

Ya binti ma djabuki arab,
Anti Fadjra uastaki tarab,
Ya binti ma djabuki ixuan,
Ua la djabik turki rattan. (Abdu-s-salom Ibrohim Qodirbey, 1982: 273)

Ey, qizim, seni badaviylar olib qochib kelgani yo‘q,
Seni akalaring olib kelgani yo‘q,
Seni musofir turk ham boshlab kelgani yo‘q,
Sen hayot quvonchining tong yulduzisan.

Zajalning mavzu qamrovi g‘oyatda keng bo‘lib, ularni mavzu jihatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

a) lirik;
b) satirik;
c) epik.

Arab xalq marosim qo‘shiqlari ham ba’zida zajal badiiy shaklida yaratiladi va ijro etiladi.

Arab xalq poetik folklorining boshqa bir janri – mavvalning mazmuni ham rang-barang bo‘lib, arab mumtoz she’riyatiga xos bo‘lgan an’anaviy badiiy xususiyatlarni, masalan, yakka qofiyali bandlardan iborat she’r qurilishiga asoslanish, lahja leksikasidan unumli foydalanish kabi belgilarni o‘zida mujassamlashtiradi. Mavvalning ayrim badiiy shakllarida barcha bandlar bir xil qofiyalanadi. Gohida esa to‘rtlik (beshlik) shaklidagi mavvalning bandlaridan biri qofiyalanmaydi (fors-tojik va turkiy she’riyatdagi ruboiy janrining qofiya tuzilishi singari).

Arab mumtoz adabiy an’anasi “Mavval” yoki “Mavaliya” deb ataluvchi she’riy poetik shaklning paydo bo‘lishi va folklor janrlari tizimidan o‘rin olish tarixi Iroqda yashagan arablarning og‘zaki ijodi bilan aloqador deb talqin qilinadi. “Mavval” atamasining o‘zi esa adabiy termin sifatida abbosiylar davrida shakllangan. Ko‘pgina olimlarning e’tirof etishicha, dastlabki “Mavaliya” Horun ar-Rashid tomonidan 803-yilda qatl etilgan vazir Ja’far al-Barmakiyga bag‘ishlab to‘qilgan marsiyalardan iborat bo‘lgan. Chunki bunday marsiya yoki yig‘i-yo‘qlov qo‘shig‘ining har bir bandidan keyin “Ya mavaliya”, ya’ni “E, begim!” ifodasi naqarot sifatida qaytarilgan. (Rida Muhsin Xammud, 1976: 41)

Safi ad-Din al-Xilliy bo‘lsa, mavaliya janri 701-yilda bunyod etilgan Vasit shahrida yuzaga kelgan, deb hisoblaydi. Iroq hududidagi bu shahar qurilishida ishtirok etgan kunlari ish paytida qo‘shiq xirgoyi qilishar, ularning qo‘shig‘ida har bir band oxirida “mavaliya” naqaroti takrorlanib kelar edi. (Rida Muhsin Xammud, 1976: 39)

Demak, bu ilmiy farazga ko‘ra, mavaliya janri qadimgi arab xalq mehnat qo‘shiqlarining badiiy taraqqiyoti davomida shakllangan. Bu talqinlarning qaysi biri haqiqatga yaqin va ilmiy jihatdan qaysi faraz to‘g‘riroq ekanligini aniq aytish uchun hozircha dalillar yetarli emas. Har holda, bu she’riy shakl badiiy fikrning o‘ziga xos ifoda usullaridan biri sifatida IX asrdayoq arab xalq adabiyoti janrlari tizimidan o‘rin

olganligiga shubha yo‘q. Mavaliyning bizgacha yetib kelgan eng qadimiy namunalari arab tilining Iroq lahjasiga xos lisoniy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirganligiga ko‘ra, bu janrning dastlabki namunalari Iroqda yaratilgan, deb xulosa chiqarsa bo‘ladi. O‘rta asrlarning oxirgi choragida Misr xalq adabiyotining an’anaviy she’riy shakllaridan biriga aylangan bu janr atamasi ma’lum fonetik o‘zgarishga uchradi va “mavval (ko‘plikdagi shakli “mavavil”) tarzida qo‘llanila boshlandi.

Arab adabiyotida she’riy janrlar bilan bir qatorda nasriy janrdagi ijod namunalari ham ko‘plab uchraydi. Shulardan biri bo‘lmish ertak arab folklorida juda qadimgi davrlardan beri mavjud bo‘lgan eng ommaviy nasriy janrlardan deb hisoblanadi. Dunyo olimlari ertakni folklorning epik turiga mansub janrlardan biri, deb to‘g‘ri tasniflaydilar. Qadimiy ertaklar syujeti izlari yoki ayrim ertaklarning mazmuni ilk arab yozma manbalarida ham uchraydi. Xususan, Al-Maydoniy o‘z majmuasiga kiritgan xalq maqollaridan ayrimlariga izoh berish, haqiqiy va ramziy-ko‘chma ma’nolarini tushuntirish maqsadida o‘rni bilan islomdan avvalgi davrlarda yaratilgan majoziy (ya’ni hayvonlar to‘g‘risidagi) ertaklar syujetiga ham murojaat qiladi. Masalan, “Xaumalning itiday och” maqoli majoziy ertak vositasida izohlangan. (Maydoniy T., 1991: 186)

Sehrli ertaklarning syujet elementlari esa epik turga mansub afsona va rivoyat kabi janrlar badiiy tizimida ham qayd qilinishi mumkinligini B.Y. Shidfar islomdan burungi davrda yashagan arab shoirlari haqidagi tarixiy rivoyatlar syujetining tahlili misolida to‘g‘ri ko‘rsatib bergan edi. (Shidfar B., 1974: 46)

Arab ertakchilik an’analari rivojining o‘rta asr bosqichiga doir faktik materiallar shu qadar keng qamrovliki, ularning miqdorini belgilashda “Ming bir kecha”dan boshqa to‘plamlarning badiiy materiallarini ham hisobga olish kerak. O‘rta asr arab folklorida ertaklarning asosan quyidagi ichki turlariga oid materiallar keng ommalashgan edi:

a) hayvonlar haqidagi arab ertaklari;

b) sehr – fantastik ertaklar;

c) hayotiy maishiy ertaklar.

Hayvonlar haqidagi majoziy ertaklar xalq epik nasrining eng qadimgi namunalari bo‘lib, totemistik miflar va badiiy folklorda jonivorlar obrazining timsol darajasida tasvirlanishi an’anasi asosida shakllangan. Bu turga kiruvchi ertaklar “Ming bir kecha”da unchalik ko‘p uchramaydi. O‘rta asr majoziy ertaklarining matnlari yoki syujet talqinlari arab adiblarining qalamiga mansub boshqa ko‘plab manbalarda mavjudligi ma’lum.

Hayvonlar haqidagi arab ertaklarining dastlabki namunalari K. Brokkelmann qalamiga mansub arab xalq adabiyotining syujet tuzilishiga bag‘ishlangan maxsus bir asarda keltirilgan. Keyingi yillarda olib borilgan yangi izlanishlar natijasida arab xalq majoziy ertaklari va masallarining ilgari ma’lum bo‘lmagan yoki yozib olingan matnlarida qayd qilinmagan yangi syujetlari aniqlandi. Xususan, qushlar bilan hayvonlar jangi haqidagi ertak syujeti arab folklorida ilgari qayd qilinmagan. Bu

syujetning hind va fors xalqlari folklorida muayyan milliy versiyalari mavjudligi e’tirof etilgani holda, arab ertakchilari repertuarida bu ertakning biror varianti bor yoki yo‘qligi aniqlanmagan edi.

Arab xalq sehrli-fantastik ertaklarining asosiy an’anaviy syujetlari “Ming bir kecha” to‘plamiga kiritilgan. Bu to‘plamdagi sehrli ertaklarning o‘zini ham kelib chiqishiga ko‘ra bir necha turkumga ajratish mumkin:

a) hind-eron folkloridan o‘zlashtirilgan syujetlar asosida yuzaga kelgan ertaklar (baliqchi va ruh Kamaruz zamon na Budur; Sayf al-Muluk va Badiu-l-Jamol haqidagi ertaklar);

b) bevosita arab folklori epik an’analari asosida Misrda yaratilgan ertaklar (etikdo‘z Ma’ruf: Alau-d-Din va sehrli chiroq haqidagi ertaklar).

Arab sehrli-fantastik ertaklarining qadimgi namunalari nafaqat “Ming bir kecha”ga kiritilgan adabiy ertaklar sifatida, balki boshqa yozma manbalar orqali ham yetib kelgan. Xususan, XVII asrda Misr shevasida bitilgan bir adabiy yodgorlikda tilla kiyik, Abu-l-Hasan bog‘bon haqidagi ertaklar ham bor.

O‘rta asr arab xalq adabiyotida shakllangan hayotiy-maishiy ertaklarning hozirgacha saqlanib qolgan namunalari asosan Misrda yuzaga kelgan. Bu turga mansub ertaklarning barcha maxsus belgilari Alau-d-Din Abu-sh-Shamat maishiy ertaklarida o‘z ifodasini topgan. “Ming bir kecha”da mavjud bo‘lgan bu ertak Ali Ziybaq va Ahmad ad-Danaf haqidagi siyralar syujetining ijodiy ta’sirida yaratilgan. Arab xalq maishiy ertaklarining namunalari “Ming bir kecha”dan boshqa yozma manbalarga ham kiritilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, arab folkloridagi she’riy va nasriy janrlarni o‘rganish arab xalqlarining boy va rang-barang adabiy an’analarini yoritib berdi. Og‘zaki ijod va adabiy to‘plamlardan olingan turli misollar tahlili natijasida arab adabiyoti janrlari ham rang-barang, balki hudud madaniy merosida chuqur ildiz otganligi ko‘rinadi. Rajaz, urjuza, muraqqisat kabi janrlarning tadqiqi, shuningdek, quduq qo‘shiqlari, muvashshah, zajal, dubayt, mavval va naqarotlarning tadqiqi arab folklorida qo‘llaniladigan o‘ziga xos she’riy va hikoyachilik uslublari haqida ma’lumot berdi. Qolaversa, “Ming bir kecha” to‘plami doirasidagi ertak va siyralarning tahlili bu janrlarning arab adabiyotida doimiy mashhurligi va ahamiyatini ko‘rsatib berdi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot arab dunyosining madaniy tarixi va badiiy yutuqlarini chuqurroq tushunish uchun arab folklorining turli janrlarini saqlash va o‘rganish muhimligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Генин, Л. Е. (1979) Отражение фольклора в библиотечно-библиографических классификациях и методика его классифицирования в свете современной фольклористики. – Ленинград.

2. Husayn Nassar. (1962) Ash-shi’ru-sha’biy al-arabiy. – Al-Qohira.

3. Goldziher I. (1888) Altarabischeen Wiegen und Schlummerlieder // Wiener Zeitschrift fur die Kunde des Morgenlandes. Bd. 2. – Wien.

4. Dalman G. (1901) Palasinicsher Diwwan. – Leipzing.

5. Abdu-s-salom Ibrohim Qodirbey. (1982) Ug‘niyya-t-min biladina. – Tripoli.

6. Rida Muxsin Xammud. (1976) Al-fununu-sh-shi’rriyya g‘ayru-l-muariba. Al-mualliya. – Bag‘dod.

7. Shidfar B.Y. (1974) Образная система арабской классической литературы (VI-XII вв.). – Москва.

REFERENCES:

1. Genin, L. E. (1979) Otrajeniye folklora v bibliotechno-bibliograficheskix klassifikatsiyax i metodika yego klassifitsirovaniya v svete sovremennoy folkloristiki. – Leningrad. (In Russian)

2. Husayn Nassar. (1962) Ash-shi‘ru-sha’biy al-arabiy. – Al-Qohira. (In Arabic)

3. Goldziher I. (1888) Altarabischeen Wiegen und Schlummerlieder // Wiener Zeitschrift fur die Kunde des Morgenlandes. Bd. 2. – Wien. (In German)

4. Dalman G. (1901) Palasinicsher Diwwan. – Leipzing. (In German)

5. Abdu-s-salom Ibrohim Qodirbey. (1982) Ug‘niyya-t-min biladina. – Tripoli. (In Arabic)

6. Rida Muxsin Xammud. (1976) Al-fununu-sh-shi‘rriyya g‘ayru-l-muariba. Al-mualliya. – Bag‘dod. (In Arabic)

7. Shidfar B.Y. (1974) Obraznaya sistema arabskoy klassicheskoy literaturi (VI-XII vv.). – Moskva. (In Russian)

NIZOMIY GANJAVIY IJODINING MOVAROUNNAHR ADABIY MUHITIGA TA’SIRI

THE INFLUENCE OF NIZIMI GANJAVI’S POEMS ON THE LITERARY ENVIRONMENT OF TRANSOXIANA

ВЛИЯНИЕ СТИХОВ НИЗИМИ ГЯНДЖАВИ НА ЛИТЕРАТУРНУЮ СРЕДУ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Shoaliyeva Nargiza Kakhramanovna,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O‘zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n
Tel: +998 98 127-30-06
nshoaliyeva74@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-7314-0093

Golkarian Ghadir Dursunoğlu,
Kipr yaqin sharq universiteti,
Turk adabiyoti va tili kafedrasi professori, fil.f.n
Tel: 90 533-860-05-59
ghadir.golkarian@neu.edu.tr
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-3801-7089

Annotatsiya. XII asrning atoqli shoiri Nizomiy Ganjaviyning bir qancha asarlari qadimdan bugungi kungacha jahon adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Bu forsiyzabon shoir nafaqat fors adabiyotining, balki turk va hind adabiyotining ham tilshunos adiblari hamda mumtoz adabiyot vakillaridan hisoblanadi. Nizomiy Ganjaviy nomining shuhrat qozonishi va uzoq yillar mobaynida barhayot ekanligi uning masnaviy asarlari bilan bog‘liq bo‘lib, hatto keyingi asrlarda ko‘plab turk shoir va yozuvchilari ushbu asarlardan o‘zlashtirib, turkcha tarjimalar ham yozganlar. Shu qatorda Nizomiyning “Xamsa”siga e’tibor qaratib, uning asarlari asosida o‘zgartirish va misollar bilan an’anani davom ettirgan Mir Alisher Navoiyni qayd etish lozim. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sidan o‘rin olgan “Haft paykar” masnaviysi Bahrom Go‘r haqidagi hikoyalarning Eron adabiyotidan turkiy adabiyotga kirib kelishiga zamin yaratdi. Nizomiy bugungi kunda xalqaro miqyosda qiyosiy adabiyot sohasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan “Haft paykar” masnaviysida yaratgan timsol va obrazlar bilan o‘ziga xos uslub taqdim etgan. U uslub yarata oldi va ildam qadam tashladi. O‘zi qo‘llagan to‘qima obrazlar bilan xayoliy chizgilarning yangi uslubini yaratib, muvaffaqiyatini isbotladi va zamonasidan keyin adabiyot maydoniga kirib kelgan ko‘plab shoirlarga ta’sirini ko‘rsatdi. XV-XVIII asrlarda yashab ijod etgan Mir Alisher

Navoiy, Ashkiy, Behishtiy, Xayoliy kabi shoirlar Nizomiyning “Xamsa”si va ayniqsa, uning “Haft paykar” masnaviysi asari ta’sirida bo‘lgan. O‘tmish shoir va yozuvchilaridan qolgan asarlar qanchalik yangi ruhda yozilgan bo‘lmasin, asos jihatidan, mohiyatan Nizomiy masnaviylaridan olingandir. Shu bilan birga, asarda qo‘llangan obrazlar, majoziy ifoda va masnaviy yozuv uslubini o‘rganish orqali bilish mumkinki, Nizomiyning “Haft paykar” asari o‘z davriga nisbatan yuksak darajada yozilgan. Ushbu asarda Nizomiy Ganjaviy yetti paykarga ishora qiladi va bu holatda Movarounnahr yozuvchilari o‘rtasida uning asarlari ta’sirini o‘rganish mumkin. Nizomiy ijodiga bag‘ishlangan mazkur tadqiqotda kutubxonachilik va qiyosiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *Nizomiy Ganjaviy, Nizomiy “Xamsa”si, “Haft paykar”, fors adabiyoti, Movarounnahr*

Annotation. Several works of the famous poet Nizami Ganjavi, who lived in the 12th century, occupy a special place in world literature from ancient times to today. This Persian-speaking poet is one of the linguists and representatives of classical literature not only in Persian literature, but also in Turkish and Indian literature. The popularity of Nizami Ganjavi’s name and its survival for many years is related to his literary works, and even in the following centuries, many Turkish poets and writers borrowed from these works and even wrote Turkish translations. Along with this, it is worth noting Mir Alisher Navoi, who focused on Nizami’s “Khamsa” and continued the tradition with modifications and examples based on his works. Nizami Ganjavi’s “Haft paykar” masnavi from “Khamsa” laid the foundation for the introduction of stories about Bahrom Gur from Iranian literature to Turkish literature. Nizami presented a unique style with the symbols and images he created in the masnavi “Haft Paykar”, which is of great importance in the field of comparative literature today. He was able to create a style and step forward. He proved his success by creating a new style of imaginary lines with the texture images he used and influenced many poets who entered the field of literature after his period. Mir Alisher Navoi, Ashki, Behishti, Khayoli, who lived and wrote poems in the 15th and 18th centuries, were influenced by Nizami’s “Khamsa” and especially his “Haft paykar” masnavi. The works left by the poets and writers of the past, no matter how much they were written in a new spirit, were essentially taken from Nizami’s masnavis. At the same time, by studying the images used in the work, figurative expression, and the style of traditional writing, it can be known that Nizami’s “Haft paykar” was written at a high level compared to his time. In this work, Nizami Ganjavi refers to seven beuties, and in this case it is possible to study the influence of his works among the writers of Movarounnahr. In this research dedicated to Nizami’s work, the methods of librarianship and comparative research were used.

Keywords: *Nizami Ganjavi, Khamsa of Nizami, Haft Paykar, Persian literature, Transoxiana*

Аннотация. Несколько произведений известного поэта Низами Гянджеви, жившего в 12 веке, занимают особое место в мировой литературе с древнейших времен до наших дней. Этот персоязычный поэт является одним из лингвистов и представителей классической литературы не только в персидской, но и в тюркской и индийской литературе. Популярность имени Низами Гянджеви и его сохранение на протяжении многих лет связаны с его литературными произведениями, и даже в последующие столетия многие тюркские поэты и писатели заимствовали из этих произведений и даже писали тюркские переводы. Наряду с этим стоит отметить Мир Алишера Навои, который остановился на «Хамсе» Низами и продолжил традицию с модификациями и примерами на основе его произведений. Маснави «Хафт пайкар» Низами Гянджеви из «Хамсы» положило начало внедрению рассказов о Бахроме Гуре из иранской литературы в тюркскую литературу. Низами представил уникальный стиль с созданными им символами и образами в маснави «Хафт Пайкар», имеющей сегодня большое значение в области сравнительного литературоведения. Он смог создать стиль и шагнуть вперед. Он доказал свой успех, создав новый стиль воображаемых линий с фактурными изображениями, которые он использовал, и оказал влияние на многих поэтов, которые вошли в область литературы после его периода. Мир Алишер Навои, Ашки, Бехишти, Хаёли, жившие и писавшие стихи в XV-XVIII веках, находились под влиянием «Хамсы» Низами и особенно его маснави «Хафт пайкар». Произведения, оставленные поэтами и писателями прошлого, как бы они ни были написаны в новом духе, по сути были взяты из маснави Низами. В то же время, изучая использованные в произведении образы, образное выражение и стиль традиционного письма, можно узнать, что произведение Низами «Хафт пайкар» написано на высоком уровне по сравнению с его временем. В этом произведении Низами Гянджеви обращается к семи красавицам, и в этом случае можно изучить влияние его произведений среди писателей Моваруннахра. В данном исследовании, посвященном творчеству Низами, использовались методы библиотечного дела и сравнительного исследования.

Ключевые слова: *Низами Гянджеви, Хамса Низами, Хафт Пайкар, персидская литература, Средняя Азия.*

KIRISH

O‘rta Osiyo va Movarounnahr turkiylari orasida taraqqiy topgan ma’rifat hamda adabiy ilmlar ularning islom dinini qabul qilishlari bilan boshlangan. Qadimiy turkiylar orasida birinchi yozma adabiyot namunalari umumiy ma’noda “Devon adabiyoti” deb

atalgan. Bu nom saralangan she’rlar jamlanib yaratilgan asar – devonga nisbatan aytiladi. Boshqa tomondan, adabiyot tarixidagi eski turkiy adabiyot, mumtoz turkiy adabiyot, islom turkiy adabiyoti kabi nomlar ham qo‘llanadi. Qayd etilgan adabiy davrning katta qismi turk adabiyotining uch sohasiga yo‘naltirilganligi va o‘rganilganligi sababli, turkiy hududga oid adabiyotlar, xoh O‘rta Osiyoda, xoh Movarounnahrdan tashqarida bo‘lsin, turkiy mumtoz adabiyot turkumida tadqiq qilinganligi e’tirofga molikdir. Turk mumtoz adabiyoti Usmonli turk adabiyoti nomi bilan mashhur bo‘lgan Anadolu hududi adabiyoti, Ozarbayjon va Chig‘atoy adabiyoti kabi uchta o‘ziga xos qismga bo‘lingan. Fors adabiyotining turk adabiyotiga ta’sir ko‘lami milodiy XV asrda ko‘proq namoyon bo‘ldi (Golkarian G., 2020: 115-120). Binobarin, turk adabiyoti tadqiqotchilari fikricha, fors adabiyotining turk adabiyotiga sezilarli ta’siri Usmonlilar hukmronligi davridan boshlangan. “Sodda turkiy tilga moyillik” yoki turkiy tilda sodda yozish davrida mashhur bo‘lgan Movarounnahrdagi Alisher Navoiy, Anadoluda Ahmad Posho va Najotiy kabi qadimgi adiblar orasida turkiy adabiyotda tilning sofligiga e’tibor berish yuksak bo‘lganiga qaramay, fors adabiyotidan tamoman uzilib bo‘lmas edi (Aydın A., 2022: 253-266).

Fors tili va adabiyoti turkiy qatlamlar orasida ilm tili bilan bir qatorda adabiy til sifatida ham ko‘rilgan. Shu sababdan ham undan ajralish imkonsiz edi. Misol tariqasida, Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asarida turk va fors tillarini lingvistik, konseptual qiyoslagan bo‘lsa-da, fors hamda turkiy tillar o‘rtasida doimiy aloqa bo‘lganligini quyidagi misralar bilan tasdiqlaydi:

Turkiy shirin va rang-barang ma’nosi bor,
Boq forsiy ham la’l-u durlardek bebaho.
Go‘yo suxan bozori eshigi ochilgandek,
Bir yoni qandolat-u bir yoni zargarlik.

Yoki boshqa bir o‘rinda o‘zbek tilida keltiriladi:

Chun forsiy erdi nukta shavqi,
Ozroq edi anda turk zavqi.
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati jahonga to‘lg‘ay,
Tur eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay.

Shunday ekan, qadimgi adiblar nuqtayi nazaridan fors tilining turkiy adabiyotdan hech qanday tarzda uzoq emasligi aniq. Tafakkur jihatidan yuksalish Usmonlilar imperiyasida kuchli shakllarda vujudga keldi va bir vaqtlar fors adabiyoti ta’sirida bo‘lgan yuksak asarlar yaratildi. Alisher Navoiy tomonidan Ahmad Poshoga yuborilgani zikr etilgan o‘ttiz uch g‘azal Usmonlilar adabiyotiga katta hissa qo‘shgan.

Bu asarlarning qadimiy namunasidan aytish mumkinki, turkiy adabiyot bilan aloqa Usmonlilar sarhadlarining sharqida davom etganligini ko‘rsatadi. O‘zaro munosabatlar keyingi davrlarda ham davom etdi. Nizomiy Ganjaviy fors tilida so‘zlashuvchi, lekin haqiqiy ozarbayjon shoirlaridan biri bo‘lib, turk shoirlariga juda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nizomiy Ganjaviy Ozarbayjonning eng buyuk va ko‘zga ko‘ringan fors shoirlaridan biridir. U o‘rta asrlardagi sharqning eng buyuk shoirlaridan bo‘lib, fors adabiyotida so‘zlashuv nutqi va realistik uslubni dostonchilikka kiritgan eng yirik romantik shoirdir. Ayniqsa, keyinchalik “Xamsa” deb atalgan “Panj ganj” (Besh xazina) kitobi bilan Eron yoki sharqning tasavvufiy va ishqiy madaniyati shakllanishida katta hissasi bor. Shuningdek, Nizomiyning fors adabiyoti hikoyachiligida tutgan o‘rni yuksak ekanligi hisobga olinib, Eron rasmiy taqvimida Isfand oyining 21-kuni uning xotira sanasi etib belgilangan.

Ozarbayjonda Nizomiy Ganjaviyni hurmat qilishadi va uni mumtoz adabiyotning asoschisi deb bilishadi. An’anaviy xalq og‘zaki ijodiyoti mavzulari va tarixiy yozma manbalardan foydalangan holda Nizomiy o‘z she’rlari bilan islomdan oldingi va islomiy Eronni birlashtirgan. Nizomiy boshlab bergan xamsachilik keyingi asrlar davomida butun sharq tili olamida unga taqlid qilishga uringan shoirlar, yozuvchilar va dramaturglar, ko‘p avlodlar uchun ta’sir ko‘rsatib, nafaqat Eronning o‘zida, balki butun mintaqada, shu jumladan, Ozarbayjon, Armaniston, Afg‘oniston, Gruziya, Hindiston, Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston va O‘zbekiston kabi mamlakatlar madaniyatini ilhomlantirgan. Uning asarlari Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Muhammad Balxiy, Rumiy va Sa’diy kabi buyuk shoirlarga ta’sir qilgan. Uning katta hajmdagi masnaviylari (Xamsa) bo‘yicha har-xil ilm sohalarida turli mavzularda izlanishlar olib borilishi Ganjaviy shuhratiga shuhrat qo‘shdi.

Uning asarlaridagi qahramonlar – Xusrav va Shirin, Layli va Majnun, Iskandarlar hanuzgacha butun Islom olami va boshqa mamlakatlarda mashhur. Nizomiy tavallud topgan paytda saljuqiy turklarning Eron va Kavkazga hujumidan bir asr o‘tgan edi. Fransuz tarixchisi Rene Grossening yozishicha, o‘zlari asli turkman, Eron sultoni bo‘lgan saljuqiy shohlar Eronni tark etmay, aksincha o‘z ixtiyori bilan unga xayrixoh bo‘lib, qadimgi sosoniylarning buyuk podshohlari kabi ko‘chmanchilar bosqinlariga qarshi kurashib, Eron madaniyatini turkmanlar tahdididan saqlab qolishga harakat qilganlar. (Grousset R., 1970: 161)

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqoladagi tadqiqot usuli soha va kutubxona tadqiqotlaridir. Tadqiqot natijalari tavsifiy va tahliliy shaklda taqdim etiladi. Mazkur tadqiqotda Nizomiy “Xamsa”sining turk mumtoz adabiyoti shoirlariga, ayniqsa Movarounnahr adabiyoti

shoirlariga ta’siri diqqat bilan ko‘rib chiqilib, qiyosiy adabiyot uslubidan kelib chiqqan holda o‘rganildi. Tadqiqot mobaynida manbalar va maqolalarga murojaat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nizomiy – ishqqa to‘la qalb qo‘shiqlari kuychisi. Uning asarlarida chin sevgi, samimiy muhabbat o‘z aksini topgan. Haqiqiy ishq yoki Nizomiy kuylagan mavjud dunyodagi go‘zal muhabbat ishqni chin ma’noda tarannum etuvchi asarning o‘ziga xos namunasidir.

Nizomiy nuqtayi nazaridan, nutq va she’r nafaqat suhbat, go‘zallik yaratish vositasi, balki ijod olamida ham alohida o‘rin egallaydi. Binobarin, u estetika yaratish bilan birgalikda doimo ontologiyaning muhim masalalarini tushuntirishga intiladi, borliq tizimi va uning darajalari haqidagi tafakkur asoslarini o‘rgatadi. (Qurbon, 1403: 9-40).

Nizomiy o‘zining besh asarini “Xamsa” (Xusrav Dehlaviy aytishicha, Nizomiy birinchi bo‘lib “Xamsa” yozgan) deb atamagan bo‘lsa-da, uning vafotidan keyin “Xamsa” sharq adabiyotida juda mashhur bo‘lib, adiblar ijodiga ta’sir ko‘rsatdi. Sharqning ko‘plab o‘zbek, tojik, ozarbayjon va turk shoirlari “Xamsa” yozishni boshladilar. Xususan, Amir Xusrav Dehlaviy, Mir Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy Nizomiy Ganjaviy uslubiga ijodiy yondashgan. Muvaffaqiyatga erishganlar orasida turkiy tillarda bitilgan she’rlari bobida tengi yo‘q Mir Alisher Navoiy hazratlari ham bor.

Qutb Xorazmiy (XIV asr, Xorazm) – shoir, tarjimon. Uning hayoti va ijodi haqida yagona ma’lumot manbai “Xusrav va Shirin” dostonidir. Qutb Xorazmiyning ijod yillari Xorazm Oltin O‘rda hukumati tarkibiga kirgan davrga to‘g‘ri keladi. “Xusrav va Shirin” dostoni “Xamsa”dan ayri holdagi Nizomiy Ganjaviy qalamiga mansub tarjimadir. Ayrim sabablarga ko‘ra bu asar keng tarqalmagan, shuhrat qozonmagan. Bu dostonni Barokaz Edg‘u Qipchoqiy 1383 – 1384-yillarda Misrda amir Qutlu Xoja tavsiyasi bilan ko‘chirib yozgan. Bu qo‘lyozma 1914-yilda Parij Milliy kutubxonasida topilib, ilm ahli hamda sharqshunoslar orasida shuhrat qozongan. [1]

Haydar Xorazmiy XIV asr oxiri XV asrning birinchi yarmida yashagan xorazmlik shoir, mumtoz o‘zbek adabiyoti namoyandalaridan biridir. Uning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratu-sh-shuaro”, Alisher Navoiyning “Majolisu-n-nafois”, “Muhokamatu-l-lug‘atayn”, “Maxzanu-l-asror” asarlaridan topish mumkin. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning “Maxzanu-l-asror” asariga javoban turk tilida “Gulshanu-l-asror”ni yozadi (1409-1414) va Sulton Iskandarga taqdim etadi. Tuzilishi va e’tiqod jihatidan uning asari Nizomiy asarlariga yaqindir, vazni ham o‘xshash bo‘lib, aruz vaznida yozilgan, hajmi 639 baytni tashkil

[1] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/qutb-xorazmiy-xiv-asr

etadi. Nizomiy asaridan farqli ravishda, bu asar muqaddimasi hikoya, so‘ngra boblar va xulosa, shu hikoyadan kelib chiqadigan mulohazalar bilan taqdim etiladi.

Muhammad Fuzuliy ibn Sulaymon (1494-1556) turkiy adabiyotning eng yirik shoirlardan biri, ham Ozarbayjon, ham Usmonlilar adabiyotining muhim namoyandasi hisoblanadi. U “Layli va Majnun” qissasida ko‘plab tasavvufiy metafora va timsollardan foydalanadi. Uning she’riyatida Nizomiy Ganjaviy, Jomiy, Hofiz, Alisher Navoiy kabi shoirlarning ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nizomiy Ganjaviy “Layli va Majnun” dostonini ilk bor hikoya shaklida yozgan, shu tariqa “Layli va Majnun” dostonining asosi yaratilgan. Unda muallif Layli bilan Majnunni insonlarga xos jismonan go‘zallik nuqtayi nazaridan emas, balki ma’naviy go‘zallik jihatidan tasvirlagan. U o‘zining ma’naviy olamini to‘laqonli ochib berdi. 1299-yilda Dehlaviy “Layli va Majnun” dostonini yozadi. Muallif doston qahramonlarining nomlarini almashtirish orqali o‘zidan oldingi salaflardan farqli ravishda yangi o‘zgartirish kiritdi, uni arab madaniyatiga tegishli hisoblab, dastlab “Layli va Majnun” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu dostonda arablarga nisbat berilishiga alohida urg‘u qaratgan. U, asosan, Nizomiy dostonining kompozitsion tuzilishini saqlab qolgan holda unga ayrim qo‘shimchalar kiritgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiy o‘zi yozgan dostonlaridan biri “Layli va Majnun”ni aksincha turkiy tilda bitkan. Dostonchilik an’analarini puxta egallaganligi sababli u asariga yangicha zeb berib, unga turkiy ruhiyatni singdiradi. Muhammad Fuzuliy ham dostonchilikka yangicha yondashib, qiyosiy tahlil bilan turkiy o‘g‘uz tilining jozibasini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostoni muqaddimasi bu ishq qissasini yangi bosqichga ko‘taradi.

“Xamsa” sharqda 50 dan ortiq shakl va mazmun bilan yozilgan, ammo mazkur asarlarning hammasi ham bizning qo‘limizgacha yetib kelmagan. Nizomiydan keyin uning “Xamsa”si turkiy, urdu, pushtu, kurd va boshqa tillarda manbalar asosida yozilgan. Vaqt o‘tishi bilan “Xamsa”lar ma’lum ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda mavzu, kompozitsiya, obraz va ta’rifga ega bo‘lib, mazmun va tuzilish jihatidan o‘zgargan. Xamsachilik an’anasi Kavkaz, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, Hindistonda davom etib, turkiy tilli xalq adabiyotida “Xamsa” yozishga qiziqish XIII-XIV asrlarda boshlangan.

Yuqorida Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostoni, Haydar Xorazmiy dostonining she’riy shaklda saqlanib qolganligi hamda “Maxzanu-l-asror”ning birmuncha o‘zgartirishlar bilan turkiy tilga tarjima qilinganligi qayd etildi. Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi salaflarni o‘ziga ustoz deb bilgan.

Alisher Navoiy ijodining gultoji “Xamsa”dir (1483-1485). Bu mutafakkir birinchilardan bo‘lib turkiy tilda “Xamsa” yozdi va mazkur tilda shunday buyuk shoh asar yozish mumkinligini isbotladi.

“Xamsa” muqaddimasida Nizomiy Ganjaviyning faoliyatiga (Panj ganj) Alisher Navoiy hurmat bajo keltirish maqsadida bitgan turkiy tildagi baytni o‘quvchilarga keltirib o‘tamiz:

“Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq.”

Alisher Navoiy xamsachilikning o‘ziga xos turini ma’lum darajada targ‘ib qildi va turkiy tilli xalqlar adabiyotida uning “Xamsa”si keng ommalashdi. U xalq ijodini hisobga oldi, o‘zining g‘oyaviy-badiiy uslubini mahorat bilan rivojlantirdi. Natijada xamsachilik yanada rivoj topib, shunday ijobiy ta’sir ko‘rsatdiki, turli xalqlarning asarlari – o‘zbek shoiri Xojaning “Maqsadu-l-atvor”, turk shoiri Lamiiy va uyg‘ur shoiri Nizoriyning “Farhod va Shirin”, Ozarbayjon shoiri Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostoni vujudga keldi.

Navoiy dostonlari orqali Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy uslublari yangi shaklga kirdi, so‘ngra bu an’ana turkiy mumtoz adabiyotning asosiy masalalarini hal etishda muhim rol o‘ynadi. Bu uslubda Ahmad Rizvon, Jaliliy, Harimiy, Bafqiy, Urfi Sheroziy, Lamiiy, Nizoriy dostonlari va boshqa ko‘plab dostonlar yaratildi.

Nizomiy Ganjaviy o‘zining ko‘plab asarlariga qaramay, “Xamsa” nomli azaliy asari bilan turkiy shoirlarga katta ta’sir ko‘rsatgan adiblardandir. Uning “Xamsa”si asosida hatto turkiy adabiyotda o‘tgan asrlar shoirlari tomonidan bir qancha misol va iqtiboslardan iborat alohida jildlar yozilgan. Turkiy og‘zaki adabiyotning aruz qoidalariga mos kelmasligi tufayli nasriy she’r qo‘llashni rad etgan va bo‘g‘inli she’rlardan foydalanishga harakat qilgan ayrim turkiy shoirlarning fikricha, Najoti Bek, Ahmad Posho, Shayxiy, Sulaymon Chalabiy, Alisher Navoiy kabi mashhur shoirlar Nizomiy Ganjaviyning asarlaridan foydalanib, mumtoz turkiy adabiyotda lirik she’rlar yozgan. G‘azalda she’rga nisbatan ustunlik mavjud. Mumtoz adabiyot sharhida “Devon adabiyoti” tilga olinsa, bu Nizomiy Ganjaviyning turk mumtoz adabiyotiga badiiy jihatdan ta’siridandir. Chunki turkiy tildagi devon adabiyoti g‘azal bilan birga rivojlanib, yuksaldi.

O‘tgan asrlarda g‘azal yetakchi o‘rinda bo‘lib, bu fors adabiyotini turkiy adabiyotiga nisbatan ta’sirida samarali omilga aylangan. Chunki asar devon deb atalishi uchun g‘azaliyot qismi bo‘lishi kerak edi. Ya’ni, g‘azallar mavjud bo‘lgan asar devon hisoblanardi.

Alisher Navoiy g‘azalning devon uchun ahamiyatini quyidagicha ifodalaydi:

“Dîvân tapılgay kim anda ma’rifetâmîz gazel tapılmagay ve gazel bolgay kim anda mev’izet-engîz bir beyt bolmagay mundak dîvân bititse hod asru bî-hûde zahmet

ve zâyî'i meşakkat tartılgan bolgay". (Uzg'or, 1990, 78-79). Ya'ni, devon tuzilsa, unda hikmatli g'azal topilmasa, ibratli bayt bo'lmasa, agar devon shu shaklda yozilsa, barcha mehnat va chekilgan zahmat bekor ketadi.

Devon she'riyatida ishq mavzusi to'laqonli g'azal shakli tuzilishida bo'ladi. Turli oshiq, ma'shuqa va raqiblar aks etgan ishq mojarolarida saroy shoiri ko'pincha oshiq tarafini olib, o'zini mahbubaga teng biladi. Oshiq bo'lgan shoir she'rida o'zining ishq maydonidagi mavqeiga baho beradi. Bu baholashda umumxalq madaniyat merosining bo'lagi – asarlardagi Majnun, Farhod, Karam kabi buyuk ishq qahramonlari mezondir. Ayniqsa, Majnun siymosining ustunligi ahamiyatga molikdir, shuning uchun "Layli va Majnun" dostoniga turkiy adabiyot shoirlari, hatto Alisher Navoiy ham murojaat qilgan. (Ustuner, 2007: 151-164)

Turkiy adabiyot shoirlari va ayniqsa, Usmonlilar davri shoirlari Nizomiy Ganjaviy ijodini sahih, munosib adabiy ma'lumotnoma deb bilishgan. Ular she'rlarining badiiy qimmatini ifodalar ekan, shubhasiz, Nizomiyga murojaat qilganlar. Masalan, milodiy XVI asrda Usmonli Turkiya shoirlaridan biri devonida o'z g'azallarining puxta yozilganligini isbotlash uchun quyidagi jumlani keltiradi:

Nizâmî görse bu ebyât-ı penci
Deye idi Zâti'yâ pençen burılmaz

"Agar Nizomiy g'azallarimni ko'rganida edi, meni maqtab, shoirlik unvoniga loyiq ko'rar edi".

Yoki o'sha asrda ijod etgan turkiy adabiyotning yana bir shoirlaridan bo'lmish Nazmiy Edirnehi deydiki:

Nazmiyâ Gence Nizâmîsi göreydi nazmun
Tab'-ıla genc-i dür-i nazmdurur dirdi sana

"Agar Nazmiyning nazmini Nizomiy Ganjaviy ko'rganda edi, albatta, sizni iste'dod jihatidan she'riyat xazinasi ichidagi marvarid, deb hisoblar edi".

Usmonlilar davri shoirlari qachonki she'rlari va badiiy ijod namunalari borasida ikkilansalar yoki ular yuzasidan yetarlicha xulosa chiqara olmasalar, Nizomiy Ganjaviyga murojaat qilganlar. Ayniqsa, forsiy she'rlar tarjimasida Nizomiyning tafakkur va talqinidan bahramand bo'lganlar.

Nizâmî hamsesinde bâ-sarâhat
Demişdir şi'r içün cüz'-i nübüvvet

Nizomiy o'z she'rida she'riyat bashoratning bir qismi ekanligini ta'kidlagan (Yenikale, 2012: 54).

Yuqorida ta'kidlanganidek, turkiy adabiyot shoirlari, ayniqsa, Usmoniy adiblar Nizomiy Ganjaviyni ustoz shoir hisoblab, undan ta'sirlangan. Turkiy adabiyotning ko'plab shoirlari, jumladan, Chig'atoy, Ozarbayjon, Anadolu shoirlari o'zlari aks etgan she'rlarni yozgan shoirlarni tanqid qilganlar, lekin Nizomiy Ganjaviy haqida salbiy fikr

bildirishga ularning hech birida jasorat yetmagan. Ular Nizomiy Ganjaviyning she’rlarini qiyoslab, har doim uning ustunligini ko‘kka ko‘tarardilar. Agar turkiy adabiyot shoirlari o‘zlarini ko‘zga ko‘ringan shoirga qiyoslasalar, shubhasiz, Nizomiy bilan solishtirar edilar. Chunki ular Nizomiyni o‘zlaridan ustun ko‘rganlar. Go‘yo ular she’riyat nafosatini o‘z asarida aks ettirish uchun Nizomiyning ma’naviy olamidan foydalanishi zarur edi va Ganjaviyning moslashuvini qabul qildilar. Buni Alisher Navoiyning “Xamsa”sida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin (Tarlan, 1997: 233).

Garchi Usmonlilar davri shoirlari orasida o‘tmishdagi mashhur va yirik shoirlardan ustunligini isbotlash odat tusiga kirgan bo‘lsa-da, lekin hech bir holatda Usmonlilar davri shoirlari o‘zlarini Nizomiy bilan qiyoslagan asar yoki misolni topa olmaysiz. Turkiy adabiyot shoirlarining ko‘pchiligi o‘zlari ustoz deb bilgan shoirlarning ulug‘vorligini ifoda etgandan so‘ng, o‘zlarini ham birdek iste’dodli shoirlar deb ta’kidlaganlar. Boshqacha aytganda, ular Nizomiy Ganjaviy kabi mashhur shoirlar ko‘rinishida o‘zlarining ustunliklarini isbotlashga urindilar.

O‘z-o‘zidan ayonki, o‘tgan davr shoirlarining bunday yondashishiga sabab so‘z qudrati, salmoqli turkiy adabiyot va Ganjaviyning adabiy siymosi edi. Nizomiyning dunyoqarashidagi eng muhim va ko‘zga ko‘ringan g‘oyalardan biri ilohiyot, adabiyotning ikki sohasiga oid qarashlardir. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, Nizomiy Ganjaviy bu ikki qarash uzviyligida adabiy qarashlari aks etgan ulkan tafakkurni, hatto ilohiyot nuqtayi nazaridan ontologik talqinni ham taqdim etgan. Ganjaviyning asarlarini o‘rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, u o‘zining barcha asarlarida, ayniqsa manzumalari muqaddimasida o‘z maqsadini shu qadar mahorat bilan ifodalaganki, uning notiqlik ilmida tajribali ekanligi ayon bo‘ladi. Nizomiy Ganjaviy insonni o‘z fikri, e’tiqodi va axloqini isbotlashda zaruriy dalillarni keltiradi.

Ilohiyot islom qonunlariga ko‘ra paydo bo‘lish va qayta tirilish haqidagi ta’limot bo‘lganligi sababli, Nizomiy asarlari hamisha olamni kashf etish va talqin qilishga, ogohlikni oshirishga intilganini tasdiqlaydi va ko‘p hollarda u bu boradagi doimiy harakatlarga ishora qiladi. Shuningdek, ushbu tafakkur tizimida she’r va shoir to‘laqonli din hamda ilohiyot bilan bog‘liqdir (Asg‘ar, 1373: 29).

“Xamsa” asari Nizomiy Ganjaviyning bitmas-tuganmas merosi sifatida jahon miqyosida shuhrat qozongan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, mazkur asarda turkiy dunyo shoir va yozuvchilarining e’tiboriga sazovor bo‘lgan ilohiyot va axloq ta’limotlari mavjud. Ganjaviyning asarlari, xususan, Nizomiy “Xamsa”si sharq she’riyati an’analariga mos kelganligi bilan atoqli salaflar vositasida turkiy adabiyot badiiy tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Alisher Navoiy yangi adabiy jarayonda Nizomiy an’analarini davom ettirgan sharq dunyosining ko‘zga ko‘ringan mutafakkirlaridan biri bo‘lib, bu borada obro‘-e’tibor, alohida mavqega egaligi bilan Movarounnahrning boshqa adiblaridan ajralib turadi.

Nizomiy Ganjaviy sharq badiiy tafakkuri tarixiga olib kirgan yuksak insoniy g‘oyalarni o‘zbek xalqi dahosi, adib Alisher Navoiy turkiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirgan. U o‘sha davrdagi axloqiy muhitni saqlab qolgan holda, turkiy xalqlar adabiyotini boyitgan. Turkiylar, ayniqsa Anadolu mumtoz adabiyoti izdoshlari o‘z asarlarida Nizomiy adabiy maktabidan foydalanganlari, buyuk ozar va fors shoiri Saroy ijodidan bahramand bo‘lganlari bejiz emas. Ko‘rinib turibdiki, Nizomiy Ganjaviyning tafakkuri va ilohiyotni aks ettirishi XV asrdan boshlab Navoiy orqali Anadolu va Usmonlilar mumtoz adabiyotiga kirib kelgan.

Nizomiy an’analarini yangicha mazmunda davom ettirib, bu borada ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan, ko‘zga ko‘ringan so‘z sohiblari qatorida turkiylar shoiri, dahosi va mutafakkiri Alisher Navoiy ham bor. U o‘z ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz she’riyatining o‘z davrigacha erishgan yutuqlari bilan yaqindan tanishgan shoir Nizomiy ijodiga cheksiz muhabbat bilan, eng avvalo Ganjaviyning insoniylikni ifodalash, uni anglashdagi mahorati, millat ishiga sadoqat, mehnatkashlarga, ayolga, inson aql-u axloqiga hurmat-ehtirom bilan yuzlanadi. Ilm qudratiga ishonch va shu kabi boshqa fazilatlar Navoiy ijodiga hamohang bo‘lib, o‘zining “Xamsa”sida Nizomiy Ganjaviyning aks-sadosi o‘zbek va chig‘atoy adabiyoti sohasida yuksak insoniy g‘oyalar bilan yana bir bor namoyon bo‘ldi. Bu jarayon boy bo‘lgan fors va turk adabiyoti o‘rtasida chambarchas bog‘liqlikni yuzaga keltirdi. Shuning uchun ham salaflar qalamiga mansub mavzularga yangicha nigoh bilan yondashgan, ular bilan ijodiy bellashuvga kirishgan shoir ijod olamida ulkan muvaffaqiyatlarga erishib, o‘z nomini dunyoning nodir daholari qatorida abadiylashtirdi. Ta’kidlanganidek, Nizomiy “Xamsa”sidan ilhomlanib yozilgan Navoiy “Xamsa”si sharq mumtoz she’riyati xamsachiligida eng munosib va afzali bo‘lib, yetakchi o‘rinni egallagan. Shoirning ona tilida (eski o‘zbek tilida) yozilgan bu asari yaratilganidan beri turkiyzabon xalqlar orasida keng nashr etilgan va shu kungacha sevib o‘rganib kelinmoqda. Asarning badiiy ahamiyati shu qadar kattaki, o‘zbek tilidagi bu yodgorlik dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Bu muvaffaqiyat nafaqat Alisher Navoiy, balki Nizomiy Ganjaviyning sha’ni va ahamiyatini ikki barobar oshirdi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiy o‘zidan avvalgi adibning ta’sir doirasini kengaytirishda, Nizomiy asarlarining jahonda shuhratini oshirishda beqiyos rol o‘ynagan mohir ijodkor sifatida ham e’tiborni tortadi. Navoiy “Xamsa”siga turkiy xalqlar adabiyotida ko‘p bora murojaat qilinganligi, yangi izdoshlar topganligi keng ko‘lamli tadqiqotni talab qiluvchi murakkab masaladir. Ushbu tadqiqotda turkiy adabiyot badiiy tafakkurida Nizomiy an’analarini kengaytirish va umumjahon e’tiboriga sazovor bo‘lishda Alisher Navoiyning muhim ahamiyatiga oydinlik kiritishga harakat qilingan.

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy butunlay o‘ziga xos yo‘l tutib, o‘zidan avvalgi salafi Nizomiy Ganjaviy ijodining og‘zaki adabiyot namunalarini o‘z ichiga olgan asosiy manbalarni ko‘zdan kechirgan va turkiy xalq ijodiyotida shoir asarlari bilan bir qatorda rang-barang hikoyalardan ham foydalangan. U o‘z asarlarida turkiy xalqlarning kundalik hayotiga nazar tashlar ekan, asarlarida atrof-muhitni tartibga soluvchi iqlim va ona zamin bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettira olgan. O‘zidan oldingi adiblar ijodidagi turkiy so‘zlarning ruhi va ta’sirini aniqroq qilib ifoda etgan. Alisher Navoiy barcha asarlarida bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalarga to‘xtalib, asarlarini o‘zbek tilida yozishi bilan o‘zidan avvalgi ijodkorlardan farq qilishini faxr bilan ta’kidlaydi. Shoir o‘zining “Hayratu-l-abror” nomli dostonida “Xamsa” mualliflari haqida gapirar ekan, shunday deydi:

Forsi chu bo‘ldi alarg‘a ado,
Turki ila qilsam ani ibtido.
Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dag‘i topsa barumandliq (Navoiy, Alisher, 2020: 54)

O‘tmishdagilar o‘z asarlarini fors tilida yozganlar. Men ularni turk tilida yozishni boshladim. Fors ahli bundan xursanddir, turk eli bundan bahramand bo‘lsin.

Boshqa bir o‘rinda ushbu fikrni tilga olib, u forsiy asarlarni mavzuni turkiy tomondan o‘rganish va anglash maqsadida ko‘rib chiqqanligini, turkiy xalqlar ham forsiylar kabi “Xamsa” mazmunidan bahramand bo‘lishini so‘ragan. U bu masalani quyidagicha tavsiflaydi:

Ul til bila nazm bo‘ldi malfuz,
Kim, forsi anglar o‘ldi mahzuz.
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.

Kim, shuhrati chun jahong‘a to‘lg‘ay,
Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay.
Nechunki bukun jahonda atrok,
Ko‘ptur xushtab’u sofi idrok. (Navoiy, Alisher, 2020: 271)

Ya’ni, forsiyzabonlar o‘sha tilda yozilgan so‘zlardan zavqlanishardi. Rivoyatni turkiy tilda bayon qila boshladim. Ushbu rivoyatning shuhrati butun dunyoni tutsin va turk xalqiga naf keltirsin deb aytdim. Chunki olamda sof idrokli va axloqli turkiylar ko‘pdir, - deyilmoqchi.

Ta’kidlash kerakki, turkiy adabiyotda Nizomiy an’analari Navoiydan oldin ham mavjud edi. XIV asr boshlarida o‘zbek shoiri Qutb Xorazmiy, Iso Bek saroyida yashagan Oydin O‘g‘lular sulolasidan bo‘lgan Faxriddin Ya’qub bin Muhammad Faxriy, shuningdek, XV asrda Movarounnahrda mashhur bo‘lgan Yusuf Sinon Shayxiy va Muhammad afandi Ishqiylar Nizomiyning “Xusrav va Shirin”, “Haft paykar”

asarlaridan bahramand bo‘lib, turk tiliga tarjima qilganlar. Shu bilan birga, XV asrda yashagan Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning “Maxzanu-l-asror” nomli yana bir asarini turk tiliga tarjima qilgan edi.

Ammo Alisher Navoiy turk adabiy tafakkurida o‘rin olgan bu an’anani o‘zbek tilidagi “Xamsa”si bilan kengaytirdi. Alisher Navoiy adabiyot olamining salaflaridan hisoblangan Nizomiy Ganjaviyning asarlariga murojaat qilish orqali nafaqat fors adabiyotini turkiyga o‘girib, ikki til va adabiyot o‘rtasida ko‘prik bo‘la oldi, balki u turkiy shoirlar, she’r va san’at ixlosmandlari, adabiyot, urf-odat, an’analarini sevuvchi fors adabiyotining azaliy ijodkori Nizomiy Ganjaviy fikrlarini ifodalab, forslar va turkiylar o‘rtasida hissiy, insoniy, adabiy munosabatlarni mustahkamlay oldi.

Albatta, o‘sha davrda turkiy shoirlarning aksariyati o‘z asarlarini fors tilida yozishgan va bu turkiylarning qadimiy an’analari unutilishiga sabab bo‘lgan. Alisher Navoiy “Xamsa” va “Muhokamatu-l-lug‘atayn” kabi turkiy asarlar muallifi bo‘lib, turkiy xalqning og‘zaki ijodini yozma shaklda an’analarga asoslangan holda, oqilona yo‘nalish bilan taqdim etilishiga sababchi bo‘ldi. Shu tariqa adabiy turkiy til alohida o‘rin tutdi. Balki Nizomiy Ganjaviy asarlarining mazmuni Alisher Navoiy tarjimasi bilan xalqqa ta’sir ko‘rsatmaganida, og‘zaki adabiyot yozma adabiyotga o‘tish jarayonida muvaffaqiyat qozonmas edi (Qadir, 2017: 141-151).

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy asarlarini tarjima qilish orqali nafaqat fors adabiyotini turkiyzabon xalqlar uchun sodda va tushunarli shaklga keltirdi, balki turkiy tarjima asarlar, “Xamsa” yozib, xalq og‘zaki ijodini, uslublarini tushuna oldi, turkiy xalqning turmush tarzi, o‘ziga xos etnik xususiyatlarini yanada aniqroq bayon qildi.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy Movarounnahrda “Xamsa” yozishga yo‘l ochdi. Toki undan keyingi turkiy adabiyotdagi Behishtiy, Jaliliy, Ahmad Rizvoniy, Hayotiy, Maidiy va boshqa xamsanavislar Navoiy ijodidan bahramand bo‘lsinlar. Farhod, Shirin, Bahrom, Xusrav, Iskandar va boshqa “Xamsa” qahramonlari turkiy muhit, turmush tarzi, urf-odat va an’analari bilan bog‘liq yangi motiv va timsollar ta’sirida turkiy dostonda o‘ziga xos obrazlar ko‘rinishida shakllandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nizomiy Ganjaviy jahonga mashhur, asarlarini dunyo biladigan buyuk forsiyzabon shoirlardan biridir. Nizomiy “Xamsa”si uning nafaqat qadimgi fors adabiyotiga, balki turk adabiyotiga ham ulkan ta’sir ko‘rsatgan ahamiyatga molik asarlaridan biridir. Nizomiy o‘zining shaxsiyati va adabiy salohiyati, shuningdek, adabiyot, astronomiya, falsafa, gumanitar fanlar, fiqh, ilohiyot va arab adabiyotidagi bilim, tajribasi tufayli o‘tgan asrlardan to hozirga qadar adabiyot olamini o‘ziga rom eta olgan. Milodiy XV asr shoir va yozuvchilari uning shaxsiyati, notiqligi, adabiyot ilmidagi mahoratidan xabardor bo‘lganliklari jihatidan Alisher Navoiy oldida

qarzdordir. Chunki u Nizomiy asarlarini tarjima va moslashtirish orqali turkiy adabiyotga adibni tanita oldi.

Alisher Navoiy asarlarining badiiyati O‘rta Osiyo mamlakatlari, xususan, Turkiya Respublikasidagi turkiy xalqlar adabiyotida o‘z ta’sirini ko‘rsatishda davom etmoqda. Turk rassomlari xalq ijodiyoti adabiyotiga tayanib, Nizomiy va Navoiy an’analaridan foydalangan holda ajoyib va betakror san’at asarlari yaratmoqdalar. Turk adabiyoti ijodkorlari azaldan Nizomiy Ganjaviyni she’riyat olamining boqiy va so‘nmas yulduzi deb bilgan, uni e’zozlab kelgan. Ular o‘zlarini yetuk shoir sifatida ko‘rsatgan bo‘lsalar, Nizomiy Ganjaviyni o‘zlariga tasdiq muhri qilganlar, bu esa uning barhayot ekanligini bildirgan. Turk adabiyotidagi XVI-XVIII asr shoirlari tadqiqotda tilga olingan ko‘plab namunalarning shohidi bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aydın, A. (2022) Osmalı Şairlerine göre Genceli Nizâmî. Türk Dünyası Araştırmaları, 132 (261), pp. 253-266. doi: 10.55773/tda.1164327
2. Navoiy, Alisher. (2020) Xamsa: To‘la asarlar to‘plami. – Toshkent.
3. Navoiy, Alisher. (2020) Hayratu-l-abror. – Toshkent.
4. Golkarian, G. (2020) The role of Indian style (Sabk-e Hindi) in Ottoman Turkish literature and its growth in the seventeenth century. International Research Congress of Contemporary Studies in Social Sciences (Rimar Congress) pp. 115-120. – Istanbul: Rimar Academy Publishing House.
5. Grousset, Rene, (1970) The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. – Rutgers University Press.
6. Tarlan, A. N. (1997) Necati Bey Divanı. – Istanbul: Milli Eğitim Bakanlığı.
7. Üstüner, K. (2007) Divan Şairlerinin Mecnun’a Üstünlük iddialari. Fen Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi, 1(15).
8. Üzgör, T. (1990) Türkçe Divan Dibaçeleri. – Ankara: Kültür Bakanlığı yayınları.
9. Yenikale, A. (2012) Sünbül-zade Vehbi Divanı. Kahramanmaraş: Kültür ve Turizm Bakanlığı.
10. اصغر, ح. ع. (1373). تاریخ علم کلام در ایران و جهان اسلام. تهران: اساطیر.
11. قدیر, گ. (2017). تاریخ تکامل ادبیات ترکی آذربایجان و ترکیه در همگنی با ادبیات فارسی در قرن شانزدهم و اوایل قرن هفدهم میلادی, Doğu Esintileri (7). ص. 141-151. بازیابی از https://dergipark.org.tr/tr/pub/dogu/issue/40604/488156
12. قربان؛, و. ر. (1403). بررسی و تحلیل دیدگاه کلامی- ادبی نظامی گنجوی. سامانه مدیریت نشریات علمی, 28(99), ص. 9-40 . doi:https://doi.org/10.22054/ltr.2020.48620.28
13. Ganjaviy, Nizomiy. (2016) Xamsa / Tarjimon: Olimjon Buriyev. – Toshkent: Olmos qilich.

14. Ganjaviy, Nizomiy. (2017) Layli va Majnun / Tarjimon: Jamol Kamol. – Toshkent: Extremum-press.

15. Shoaliyeva, N. (2021) Spiritual and moral beauty in Bedil's heritage. The Light of Islam (4). pp. 40-47.

16. Shoaliyeva, N., Abdulloh S., (2020) Жизненный путь и творческое наследие двуязычного поэта (XVII и начала XVIII веков) The Light of Islam (4) pp. 126-137.

17. Shoalieva, N. (2021) The concept of justice in Bedil's work. International Scientific and Current Research Conferences. pp. 89-92

REFERENCES:

1. Aydın, A. (2022) Osmalı Şairlerine göre Genceli Nizâmî. Türk Dünyası Araştırmaları, 132 (261), pp. 253-266. doi: 10.55773/tda.1164327 (In Turkish)

2. Navoiy, Alisher. (2020) Xamsa: To'la asarlar to'plami. – Toshkent. (In Uzbek)

3. Navoiy, Alisher. (2020) Hayratu-l-abror. – Toshkent. (In Uzbek)

4. Golkarian, G. (2020) The role of Indian style (Sabk-e Hindi) in Ottoman Turkish literature and its growth in the seventeenth century. International Research Congress of Contemporary Studies in Social Sciences (Rimar Congress) pp. 115-120. – Istanbul: Rimar Academy Publishing House.

5. Grousset, Rene, (1970) The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. – Rutgers University Press.

6. Tarlan, A. N. (1997) Necati Bey Divanı. – Istanbul: Milli Eğitim Bakanlığı. (In Turkish)

7. Üstüner, K. (2007) Divan Şairlerinin Mecnun'a Üstünlük iddialari. Fen Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi, 1(15). (In Turkish)

8. Üzgör, T. (1990) Türkçe Divan Dibaçeleri. – Ankara: Kültür Bakanlığı yayınları. (In Turkish)

9. Yenikale, A. (2012) Sünbül-zade Vehbi Divanı. Kahramanmaraş: Kültür ve Turizm Bakanlığı. (In Turkish)

10. اصغر, ح. ع. (1373). اسلام جهان و ایران در کلام علم تاریخ. تهران: اساطیر.

11. قدیر, گ. (2017). در فارسی ادبیات با همگنی در ترکیه و آذربایجان ترکی ادبیات تکامل تاریخ میلادی هفدهم قرن اوایل و شانزدهم قرن از بازیابی. Doğu Esintileri (7), ص. 141-151. https://dergipark.org.tr/tr/pub/dogu/issue/40604/488156

12. قربان؛ ر. و. (1403). مدیریت سامانه .گنجوی نظامی ادبی -کلامی دیدگاه تحلیل و بررسی علمی نشریات, 28(99), ص. 9-40. doi:https://doi.org/10.22054/ltr.2020.48620.28

13. Ganjaviy, Nizomiy. (2016) Xamsa / Tarjimon: Olimjon Buriyev. – Toshkent: Olmos qilich. (In Uzbek)

14. Ganjaviy, Nizomiy. (2017) Layli va Majnun / Tarjimon: Jamol Kamol. – Toshkent: Extremum-press. (In Uzbek)

15. Shoaliyeva, N. (2021) Spiritual and moral beauty in Bedil's heritage. The Light of Islam (4). pp. 40-47.

16. Shoaliyeva, N., Abdulloh S., (2020) Jiznenniy put i tvorcheskoye naslediye dvuyazichnogo poeta (XVII i nachala XVIII vekov) The Light of Islam (4). pp. 126-137. (In Russian)

17. Shoalieva, N. (2021) The concept of justice in Bedil's work. International Scientific and Current Research Conferences. pp. 89-92

ZAMAXSHARIYNING ARAB TILI GRAMMATIKASI BO‘YICHA YARATGAN ENG YAXSHI KITOBI

ZAMAXHARI’S EXCELLENT BOOK ON ARABIC GRAMMAR

ЛУЧШАЯ КНИГА ЗАМАХШАРИ ПО АРАБСКОЙ ГРАММАТИКЕ

Qosimova Sarvinoz Sayfullayevna,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, PhD
Tel: +998 90 972-76-78
sarvinoz.kasimova@mail.ru

Annotatsiya. Arab tilshunosligida fonologiya masalasi o‘zining mukammal tavsifini topgan. Bu borada yurtdoshimiz Mahmud Zamaxshariyning katta xizmatlari bor. Zamaxshariy asarining umumiy bo‘limida tahlil qilingan fonetik-fonologik masalalar mufassal va mukammal yoritilgan hamda hozirgi arab tilshunosligida o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan birga originalligini ham saqlab qolganligi e’tirof etilishi zarur. Arab tili morfologiyasi, fonetikasi, leksikologiyasi va orfografiyasiga oid masalalar yuzasidan ilmiy asarlar yozgan olimlarning nomlari va ularning asarlari haqida fikr yuritilib, bu borada Mahmud Zamaxshariyning ulkan xizmatlari e’tirof etiladi. Maqolada arabiy so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish qoidalari batafsil keltirilgan bo‘lib, unli va undosh harflar ishtirokidagi ochiq va yopiq bo‘g‘inlarning bo‘linishiga oid qoida va misollar keltirib o‘tilgan. Bu olimning “Mufassal” nomli asari yozilish jihatidan ilmiy bo‘lishi bilan birga o‘quvchilar uchun qulay ekanligi misollar bilan asoslangan. “Mufassal” asarida ko‘tarilgan masalalar o‘sha davr arab tilshunosligining rivojidan darak beradi. Zamonaviy arab tilshunosligida morfonologik hodisa sifatida o‘rganiladigan so‘z boshi va ikki undosh munosabatlarining tahliliga ham mazkur asarda o‘sha davrning o‘zida keng joy ajratilgan. Zamaxshariyning asari arab tili grammatikasi bo‘yicha yaratilgan eng yaxshi kitoblardan biri ekanligi asardan keltirilgan misollar vositasida isbotlab berilgan.

Tayanch so‘zlar: *fonetika, fonologiya, undosh, ochiq cho‘ziq bo‘g‘in, yopiq cho‘ziq bo‘g‘in, mayl.*

Annotation. In Arabic linguistics, the issue of phonology has found a perfect description. In this regard, our countryman Mahmud Zamakhshari has great services. The phonetic-phonological matters analyzed in the general section of Zamakhshari’s work are explained in detail and perfectly, and it should be recognized that it has not lost its importance in modern Arabic linguistics and has also preserved its originality. The names of scientists and their works on problems related to the morphology,

phonetics, lexicology, and orthography of the Arabic language are discussed, and Mahmud Zamakhshari's great services are recognized in this regard. The article details the rules for dividing Arabic words into syllables, and gives examples and rules for dividing open and closed syllables with vowels and consonants. The scholar's work, "Mufassal" is scientific in terms of writing, and convenient for students, based on examples. The issues raised in "Mufassal" show the development of Arabic linguistics at that time. The analysis of the beginning of the word and the relationship between two consonants, which is studied as a morphonological phenomenon in modern Arabic linguistics, was done in this work at the same period. The fact that Zamakhshari's work is one of the best books created on the grammar of the Arabic language is proven by means of examples from the work.

Keywords: *phonetics, phonology, consonant, open long syllable, closed long syllable, mood.*

Аннотация. В арабском языкознании проблема фонологии нашла прекрасное описание. В этом плане большие заслуги есть у нашего земляка Махмуда Замахшари. Фонетико-фонологические вопросы, анализируемые в общем разделе работы Замахшари, изложены подробно и прекрасно, и следует признать, что они не потеряли своего значения в современном арабском языкознании, а также сохранили свою самобытность. Обсуждаются имена ученых, написавших научные труды, их труды по вопросам, связанным с морфологией, фонетикой, лексикологией и орфографией арабского языка, а также отмечаются большие заслуги Махмуда Замахшари в этом отношении. В статье подробно описаны правила деления арабских слов на слоги, приведены примеры и правила деления открытых и закрытых слогов гласными и согласными. Работа этого ученого «Муфассал» является научной в плане написания и удобной для студентов, на основе примеров. Вопросы, поднятые в «Муфассал», показывают развитие арабского языкознания того времени. В этот же период в данной работе был сделан анализ начала слова и отношения между двумя согласными, которое изучается как морфонологическое явление в современном арабском языкознании. Тот факт, что труд Замахшари является одной из лучших книг, созданных по грамматике арабского языка, доказывается примерами из произведения.

Ключевые слова: *фонетика, фонология, согласный, открытый долгий слог, закрытый долгий слог, наклонение.*

KIRISH

O‘rta asr turkiy xalqlar madaniyati dunyo madaniyatining nodir xazinasi sanaladi. Zero, turli xalq va tillarning birlashuvi, uyg‘unligi shu kunga qadar o‘zining mukammalligi va aniqligi bilan ajablantiradigan noyob madaniyatni vujudga keltirgan.

O‘rta asr dunyosidagi “Ilm daraxtining asosi Makkada-yu, ammo hosili Xurosonda pishadir” degan arab maqoli hozirgi kun uchun g‘ayritabiiy tuyulishi mumkin. Lekin shuni unutmaslik kerakki, Movarounnahr mo‘g‘ul bosqinchilari tajovuziga duch kelgunga qadar musulmon Osiyosining ma’mur davrida o‘ziga xos muhim o‘rin tutgan edi. Nishopur o‘sha davrda Eron va Markaziy Osiyo fozillari to‘planadigan joy bo‘lib, Marv madrasalari uzoq yurtlardan kelgan talabalar bilan to‘la edi. Samarqand va Buxoro hamda Urganch ko‘p zamonlardan beri ilm-u madaniyat bobida o‘zaro musobaqalashar, Movarounnahr shaharlari balog‘at, sarf va nahv, she’r hamda nafosatda ilgarilab ketgan edi. VIII asrdan XIII asrgacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyolik olimlar asosan matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya va filologiya (arab va fors) sohalarida faol bo‘lganlar.

X asrdan boshlab Somoniylar davlati O‘rta Osiyo xalifaligidan mustaqil bo‘lgach, Buxoro, Marv, Nishopur va Urganch kabi katta shaharlar markazlasha boshladi. Bu markazlarda shoir, tabib, olim va faylasuflarning faoliyati kuchaya bordi.

Islom dini Movarounnahr hududiga VII asrning ikkinchi yarmida kirib kela boshlagan bo‘lsa, IX asrda bu yerning ulamolari va mahalliy xalqning islom ta’limotini o‘rganishga bo‘lgan intilishi kuchaydi. Bu esa arab tilining mohiyatini tushunarli va batafsil yoritgan grammatik asarlar hamda risolalarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, Movarounnahr hududida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari madaniy yuksalishga yuz tutdilar. Xorazm, Qarshi (Nasaf), Buxoro, Samarqand, Forob, Shosh, Farg‘ona kabi shaharlarda serqirra olimlar arab tili grammatik nazariyasiga oid qator asarlarni yaratdilar. (Симашко Т., 2001: 33-37)

Jahon fani va madaniyati rivojiga unutilmas ilmiy merosi bilan ulkan hissa qo‘shgan Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Zamaxshariy hayoti davomida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lug‘atshunoslik, tafsir, geografiya, mantiq kabi sohalarda yetmishga yaqin mukammal va noyob asarlar yozdi. Zamaxshariyning tilshunoslikka oid o‘ndan ortiq tadqiqot ishlari bo‘lib, ular orasida “Al-Mufassal” asari olim izlanishlarining gultoji hisoblanadi. Zamaxshariy Bag‘dod maktabi vakili edi. Ma’lumki, “Ko‘pchilik Bag‘dod maktabi tadqiqotchilari ta’lim bilan shug‘ullanganlar. Shu sababli ularning barcha sa’y-harakatlari arab tili grammatikasining qoidalarini tushunarliroq ifodalashga qaratilgan edi”. (Белкин В., 1961: 40) Shuning uchun bo‘lsa kerak, “Mufassal” asari aniq va batafsilligi bilan mumtoz asar sifatida katta e’tibor qozongan. Sibavayhining kitobidan keyin bu asar eng mashhur va muhim tadqiqotlardan hisoblanadi. Uning muallifi esa grammatistlarning ichida eng mo‘tabari hisoblangan. “Mufassal” Misr va Suriyada grammatikaga oid yirik asarlardan biri bo‘lgan. O‘sha davrga qadar arab tili grammatikasiga oid ko‘plab adabiyotlar bo‘lishiga qaramay, mukammal, batafsil va ommabop grammatik tadqiqotga ehtiyoj

sezilgan. Shu bois adabiyot vakillari arab bo‘lmagan, ammo arab tilining bilimdoni, qomusiy olim Zamaxshariyga murojaat qilgan bo‘lsalar, ajab emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab tili fonetikasi grammatikaning bir bo‘limi sifatida o‘rganilishi bilan bir qatorda bu tilning fonetik tizimi tadqiqiga ham alohida asarlar bag‘ishlangan. Bu kabi asarlarda arab tilining turli o‘rinlarida kelgan fonetik birliklarning variantlari alohida o‘rganilgan, “Qur’on” va eng yaxshi nazm namunalarida dialekt ta’sirida qo‘llaniladigan, ammo mumtoz matnlarga xos bo‘lmagan fonetik birliklarning turlari alohida ko‘rib chiqilgan. (Симашко Т., 2001: 62) Masalan, bu mavzuni Ibn Jinniy (XI asrda) ham batafsil tadqiq qilgan.

Arab tilini tadqiq etgan olimlar tovushlar artikulyatsiyasining mukammal tasnifini ishlab chiqdilar. Ibn Sinoning bu boradagi tasnifi eng namunali tasnif hisoblanadi. Ibn Sino arab tili undoshlarining artikulyatsiyasini kelib chiqish joyiga ko‘ra to‘qqizta guruhga bo‘lgan holda tasnif va tavsif qilgan. Uning tadqiqotida har bir tovushning o‘ziga xosligi belgilab qo‘yilgan. Bu jihat o‘xshash tovushlarni farqlashda qo‘l keladi.

Arab tilshunoslari tovushlarni tavsiflashda havo oqimidagi to‘siqlar, tilning tanglayga qadar ko‘tarilishi hamda rezonatorlar (tomoq, og‘iz bo‘shlig‘i va burun) kabi xususiyatlarga e’tibor berganlar. Shu bilan bir qatorda, uzun va qisqa unlilar, tovushlarni hosil qilishda og‘izning ochilish darajasi va lablar ishtiroki kabi belgilar e’tiborga olingan. Bu esa arab tilshunoslari fonetika borasida Yevropa tadqiqotchilariga nisbatan yuqori natijalarga erishganini ko‘rsatadi. (Симашко Т., 2001: 78)

Shu o‘rinda VIII asr oxirlarida yashab ijod qilgan filolog Kisoiyning faoliyatini alohida ta’kidlash joiz. Bu olimning dialektologiyaga doir ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan va bizgacha yetib kelgan “Oddiy xalq nutqidagi xatoliklar haqida risola”sini e’tirof etish lozim.

VIII asr oxiri – IX asr boshlarida ko‘plab Basra va kufalik filologlar “Al-kitob”ning sharhi bilan shug‘ullandilar. Bunga al-Mubarrad va Abu Zakariyo Farroning ijodi yaqqol misoldir.

Mahmud Zamaxshariy, Kisoiy, al-Mubarrad, Abu Zakariyo Farro hamda Ibn Sino kabi olimlar tilshunoslikning sintaksis, morfologiya, fonetika kabi bo‘limlarini alohida, batafsil o‘rganish bilan bir qatorda, o‘z davriga nisbatan tilning leksik tarkibini juda chuqur tahlil qilganlar. Ayniqsa, ularning adabiy til bilan birga shevadagi so‘zlarni ham tahlil va tadqiq qilganlari e’tirofga sazovordir. (Симашко Т., 2001: 82) Ularning maqsadli olib borgan bu tadqiqotlari antik davr tilshunosligi va undan keyingi yuzaki o‘rganilgan o‘rta asr Yevropa tadqiqotlaridan ajralib turadi. Arablar so‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarini farqlaganlar, sinonim va omonimlarni hamda turg‘un iboralarni tahlilga tortganlar. Yaqin davrimizdagi tadqiqotlarga misol sifatida

V. Belkin, V. Girgas, V. Zvegintsev, T. Simashko, G. Shtumme, N. Yushmanov, hamda B. Grande kabi olimlarning arab tiliga oid asarlarini sanab o‘tish mumkin.

Ma’lumki, X asrda xalifalik tugatildi, buning oqibatida madaniy parokandalik (butun tarkibning bo‘laklarga bo‘linishi, zaiflashishi, yagona tizimda aloqalarning buzilishi) jarayoni kelib chiqdi. Bu hodisalar musulmon o‘lkalarda arab adabiy tilining yagonaligiga futur yetkazib, uning qo‘llanilish doirasini toraytirgandek bo‘ldi. Ammo, arab tilini ilm va din tili sifatida o‘rganishni hatto arab bo‘lmagan xalqlar ham davom ettirdilar. Bundan tashqari, arab adabiy tili badiiy soha – she’riyatda ham keng qo‘llanila boshlandi. Shuningdek, keyingi asrlarda arab va boshqa turli xalq vakillari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar arab tilini o‘rganish davom etganligiga misol bo‘la oladi.

Mazkur davrda arab grammatik nazariyalari bir tizimga solinib, istilohlar shakllanib, leksikologik tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Ibn Jinniy va Ibn Forislarning faoliyati bunga misoldir.

So‘zlarning leksik tarkibini tahlil qilishda arablar islomgacha bo‘lgan eskirgan so‘zlarni va islomdan keyin vujudga kelgan yangi so‘zlarni aniqladilar. Shuningdek, ularning o‘zlashmalariga ham jiddiy e’tibor berganlarini aytish lozim.

XIII asr boshida Xorazmda Zamaxshariyning o‘rinbosari nomini olgan Nasr ibn Abu Sayid Ali Abul Fath Mutarriziyning (538-610/1144-1213) tilshunoslikka oid “Al-Muqaddimatu-l-Mu’arriziya fi-n-nahv”, “Al-‘Iqnā fi-l-lug‘a”, “Al-Miūbāh fi-n-nahv” asarlari bitildi. Arab tili grammatikasining bilimdoni Qosim ibn Husayn Muhammad Xorazmiy (565-616/1160-1219) sarf, e’rob (tashqi fleksiya) ilmi va sintaksisga oid asarlar yozgan, ammo ularning ko‘pi bizgacha yetib kelmagan. Olim Zamaxshariyning “Mufassal” va “Unmuzaj” asarlariga sharhlar yozgan. Yusuf ibn Abu Bakr ibn Muhammad Sakkokiy Xorazmiy (565-627/1160-1229) “Miftāhu-l-‘ulum” asari bilan shuhrat topgan.

Buxoroda aruz, fiqh va arab tili grammatikasiga oid asarlar yozgan Hamiduddin Daririy Buxoriy faoliyat ko‘rsatgan. K. Brokkelman o‘z asarida Daririyning tilshunoslik sohasiga oid “Muqaddima”, hozirgi kunda Berlin kutubxonasida saqlanayotgan adabiyotga doir “Kitābu-l-‘arhŭ” va Abu Bakr Nishopuriyning “Al-G‘āya”(“Al-G‘oya”) asariga yozgan sharhi mavjud ekanligini qayd etgan. Shuningdek, Daririy Shayx ul-islom Burhonuddin Marg‘inoniy Hanafiyning (hijriy 593-yilda vafot etgan) “ال هداية” – “Al-Hidāya”siga birinchi bo‘lib 2 juzdan iborat “ال فوائد” –“Al-Favā‘id” (“Foydali narsalar”) nomli sharh yozgan. Bu sharh ikki qismdan iborat bo‘lib, asardagi murakkab jihatlarning tushunarli bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan.

Arab tilshunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni nazariy va amaliy turlarga bo‘lish mumkin. Nazariy asarlarga Zamaxshariyning “Mufassal” asari kiradi. Bu asarga tilshunoslar grammatikaga oid ba’zi chigal masalalarni hal etish uchun murojaat

qiladilar. “Mufassal”da olim arab tili grammatikasini bayon etishning o‘ziga xos uslubini ilgari surganligini avval ham ta’kidlagan edik. Bu asar to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, avval muallif arab tilidagi so‘zlarni turkumlariga ko‘ra uch bo‘limga ajratgan (ism, fe’l, yordamchi so‘z) va bu bo‘limlarda aynan o‘sha turkumga xos grammatik masalalarni ko‘rib chiqqan, to‘rtinchi bo‘limda esa arab tili fonetikasi hamda fonologiyasi masalalari bayon etilgan. Asarning kirish qismida arab tili grammatikasini ism, fe’l, yordamchi so‘z turkumlariga bo‘lib o‘rganish kerakligi ta’kidlangan bo‘lib, birinchi – ism bo‘limida fleksiya hodisasiga izoh beriladi va ismlarning bosh, tushum va qaratqich kelishikda kelish o‘rinlari ketma-ketlikda bayon etiladi. Shu bo‘limning o‘zida olmosh, son kategoriyasi, aniqlik va noaniqlik, jins kategoriyalari, so‘ng sifat va uning darajalari, sanoq va tartib son, makon va zamon hamda ish qurollari nomlari keltirilgan.

Asarning ikkinchi bo‘limida Zamaxshariy fe’lga oid hodisalarni – fe’lning o‘tgan va hozirgi-kelasi zamonlari, mayllari, fe’lga xos aniq va majhul darajalar, o‘timli va o‘timsiz fe’llar, yordamchi fe’llar, maqtov, tahqir va ajablanish fe’llari, uch va to‘rt o‘zakli fe’llarga tasniflab o‘rgangan. Uchinchi bo‘limda arab tilidagi yuklamalar, bog‘lovchilar, predloglar, turli vazifalarni bajaradigan qo‘shimchalar va tanvin masalalari ko‘rilgan.

Yuqoridagi uch bo‘limga tegishli, ammo ularning birortasidan joy olmagan ba’zi fonetik masalalar asarning to‘rtinchi bo‘limida o‘z aksini topgan. Unda tovush ilmiga oid to‘xtash (pauza), hamza orqali ifodalangan tovushning tushib qolish hodisasi, ikki undoshning birga kelishi, undosh bilan boshlangan so‘zlarning o‘qilishi, qo‘shimcha harflarning qo‘shilishi, harflarning boshqa harfga o‘zgarishi, kasal harflarning o‘zgarish qoidasi, bir xil harflarning qo‘shilishi kabi hodisalar sharhlangan.

Arab tili grammatik tizimi masalalarining bunday bayon etilishi bu tildagi so‘z turkumlarining funksional o‘zgarishini bitta grammatik hodisada o‘rganilishi kabi, faqat shu tilga xos bo‘lgan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsata olmaydi. Shu sababli ham Zamaxshariy arab tilshunoslari an’analarida qo‘llanilmagan uslubga murojaat qildi va ilk bor o‘z asarida “Muqaddima”ni keltirdi hamda unda so‘z turkumlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni bayon etish vositasida arab grammatikasining rivojiga katta hissa qo‘shdi, chunki bu tarzdagi yangicha yondashuv arab tili grammatik nazariyasida yangi terminologiya va qoidalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish davomida O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalaridan foydalanildi. Arab tilidagi grammatik mavzular tadqiqi bilan bir qatorda ko‘plab arab tilining izohli lug‘ati, sinonimlar lug‘ati, kam uchraydigan hamda o‘zlashma so‘zlar lug‘ati, shu bilan birga, tarjima

lug‘atlari bilan tanishildi. Lug‘atlar tuzilishi bilan bog‘liq amaliyot o‘rta asrlar va undan keyingi davrlarda ham davom etgani izlanishlar davomida ayon bo‘ldi.

XI asrda qiroat (ifodali nutq) me’yorlarini o‘rganuvchi ilm rivojlandi. Nutq jarayonining fasohat va balog‘at kabi aspektlari ishlab chiqildi. Fasohat grammatika va leksika haqidagi ilm bo‘lsa, balog‘at esa ma’no, bayon etish, chiroyli ifodalash haqidagi ta’limotdir. Balog‘at ilmining asoschilaridan biri Jurjoniy hisoblanadi.

Arab tili grammatikasining bayon etilishiga qaytadigan bo‘lsak, uning yana bir usuli ayni Abdul Qohir Jurjoniy tomonidan yaratilgan. Ushbu usulni uning “Avāmi‘u-l-mi‘a” asarida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur asar so‘zlarga ta’sir etuvchi grammatik omillarning tahlili natijalari asosida tuzilgan. Bu asarda grammatikani yoritishda biryoqlama yondashuvga amal qilingan, ammo u arab tili mohiyatini tushunishda o‘zining qulayligi bilan ajralib turadi. (Гранде Б., 1963: 19) Jurjoniyning bu usulini keyinchalik ko‘plab tilshunoslar qo‘lladilar.

XI-XII asrlarda yashab faoliyat olib borgan nahvchi olim Mahmud Zamaxshariy tomonidan yana bir original, avval bayon etilmagan usul yaratildi va u “Mufassal” fundamental asarida o‘z ifodasini topdi. Olim arab tili grammatikasini ism, fe’l va yordamchi so‘zlar hamda ularning har biriga taalluqli fonetik tizim kabi bo‘limlarga ajratgan holda bayon etgan. Shuningdek, asar arab tili grammatik tizimiga oid avvalgi tadqiqotlarning hech birida qo‘llanilmagan kirish so‘zi bilan boshlangan. Zamaxshariy asarning muqaddima qismidagi grammatika tavsifida bu uslubni tanlagani sababi va uning mohiyati haqida ma’lumot beradi.

Arab grammatikasiga oid asarlar ko‘p va ularning aksariyati mazmun-mohiyatiga ko‘ra mukammal va mashhur bo‘lsa-da, Zamaxshariyning “المفصل” kitobi uning zamondoshlari fikricha, “arab tili grammatikasi bo‘yicha yaratilgan eng yaxshi kitobdir”. (Симашко Т., 2001: 50)

Yana bir olim uni “nozik terilgan durga” o‘xshatadi. (Юшманов Н., 1998: 51) Bu asar o‘zining lo‘nda va tushunarli yoritilganligi bilan tarixiy jihatdan o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

X asrdan keyin Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Nizomiy kabi mashhur shoirlar ijodi tufayli fors adabiyoti gullab-yashnayotgan davrda arab adabiy tilining qo‘llanilish doirasi sobiq xalifalik hududida qisqarib borgani tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra ayon bo‘lmoqda. Ammo musulmon o‘lkalari aholisi ilm va din tili bo‘lgan arab tilini o‘rgangan, uni she’riyatda ham qo‘llaganlar. Shu bois arab grammatikasiga oid yangi asarning yaratilishi arab tilining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, deb aytish mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, Zamaxshariy birinchi bo‘lib arab tilida alohida o‘rganishni talab etuvchi hodisalar borligini e’tirof etgan. Zamaxshariy asarining

fonetikaga oid bo‘limini “Mushtarak” – “Umumiy hodisalar” deb nomlab, bu bo‘limda har bir so‘z turkumiga oid fonetik hodisalarni bayon etgan.

Shuningdek, Zamaxshariy bu bo‘limning ikki faslida arab tilidagi bo‘g‘in tarkibiga ta’rif beradi. Ma’lumki, arab tilida bo‘g‘in unli tovush bilan boshlanmaydi. (Симашко Т., 2001: 28) U quyidagi bo‘g‘inlarni sanab o‘tadi: unli tovush bilan tugaydigan ochiq bo‘g‘inlar: undosh+unli (I), undosh+cho‘ziq unli (II) va yopiq bo‘g‘inlar: undosh+unli+undosh (III), undosh+cho‘ziq unli+undosh (+undosh) (IV). I turdagi bo‘g‘in qisqa, II va III turdagi bo‘g‘inlar cho‘ziq, IV turdagi bo‘g‘in esa o‘ta cho‘ziq hisoblanadi.

Zamaxshariy bo‘g‘inlarning vazifasi haqida gapira turib, avval o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inni: undosh+cho‘ziq unli+ikkita undosh tarzidagi bo‘g‘inni tahlil etadi. Uning fikriga ko‘ra, bu bo‘g‘in arab tilida o‘ziga xos o‘rin tutadi, ya’ni:

1. Agar bitta so‘zda ikki undosh birga kelsa, birinchi undosh zaif, ikkinchisi ikkilangan bo‘lishi kerak. Masalan: دابّة – dābba – hayvon turi. Ikkilangan undoshlar bo‘g‘inda cho‘ziq unlilardan keyin keladi. Zamaxshariy aruz vaznida bu bo‘g‘in undosh+cho‘ziq unli va undosh+unli+undosh tarzida berilishini ta’kidlagan. Masalan: ixmārra – ixmā‘arra.

2. Yasama so‘zlar, fleksiya va ikki so‘zning birga kelishida ochiq cho‘ziq bo‘g‘in yopiq cho‘ziq bo‘g‘inga aylanadi. Masalan: yarmi-l-g‘arada – يرمي الغرض

3. Ikkilangan undoshda unli ishtirok etishi kerakligi tufayli shart va buyruq mayllari shakli unlida tugaydi. Masalan: لم يمدُّ – lam yamuddu.

Ma’lumki, arab tilida shart va buyruq mayllari sukun bilan tugaydi, ammo ikkilangan o‘zakli fe’llardan yasalgan shaklda ikkilangan o‘zak uchta unlidan birini olishi mumkin. (Звегинцев В., 1962: 297)

4. Yopiq bo‘g‘inli yuklamadan keyin kelgan so‘z orasida bitta unli paydo bo‘ladi. Masalan, fatha ال artiklidan oldin kelgan من old ko‘makchida vujudga keladi. Masalan: من الكتاب – mina-l-kitāb.

Damma o‘rta o‘zagi damma harakatini olgan birinchi bobning buyruq maylidan oldin keladi. Masalan: قالت احرج – qālatu-xruj, او va لو yuklamalaridan tashqari barcha *av* bilan tugagan bo‘g‘indan keyin ham damma keladi. Masalan: اخشو الناس - ‘ixshavu-n-nās.

Kasra quyidagi o‘rinlarda reallashadi:

1) من old ko‘makchidan keyin, masalan: من ابنه – mini-bnihi;

2) ay bo‘g‘inidan keyin, masalan: يخشي الناس – yaxshayi-n-nās;

3) لو va او yuklamalaridan keyin, masalan: لو استطعنا – lavi-stata’nā. Ba’zan o‘rta o‘zagi damma bo‘lgan birinchi bobning buyruq maylidan oldin yoki ikkilangan fe’llarning buyruq va shart mayllarining oxirida ham kasra kelishi mumkin. Masalan: qalati-xruj yoki yamuddi.

Aniqlik artikli, ba’zi fe’l shakllari va ismlar gap tarkibidagi o‘rni va o‘zidan oldin kelgan bo‘g‘inga ko‘ra turli unlilarni olishi mumkin. Aniqlik artiklining hamzasi gap boshida fathani, qolgan hamzalar esa *u* yoki *i* unlisini oladi. Birinchi bobning buyruq maylida, yettinchidan keyingi boblardagi hozirgi-kelasi zamon, buyruq va masdar shakllari ham *i* va *u* unlisini olishi mumkin.

Ma’lumki, bu hamza vaslali hamza deb nomlanadi, chunki u so‘zlarni bog‘lab talaffuz qilishda ko‘p keladi. Vaslali hamza ikki undosh bilan boshlangan so‘zlarning talaffuzida qo‘llanadi.

Zamaxshariy sanab o‘tgan bo‘g‘in turlarining qisqa va cho‘ziq turi arab tilida keng tarqalgan, ammo o‘ta cho‘ziq bo‘g‘in kamroq uchraydi. Arab tilida bo‘g‘in bitta undosh bilan boshlanishi, bitta undosh yoki bitta unli bilan tugashi mumkin. Bu hodisadan ikkilangan undosh mustasnodir.

Zamaxshariyning asarida ko‘tarilgan masalalar o‘sha davr arab tilshunosligining rivojidan darak beradi. Asarda grammatikaga oid masalalarning yoritilishi misolida XII asrda erishilgan yutuqlarni ko‘rishimiz mumkin. “Mufassal” bu o‘z davrigacha amalga oshirilgan tadqiqotlarning mujassamlangan va mukammallashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi.

Zamaxshariy “Mufassal”ni yozishda nafaqat ilmiy maqsadni, balki uning qulay bo‘lishini ham ko‘zlagan. Bu jihat uning mashhur asarlardan biriga aylanishiga imkon bergan. Zamaxshariy arab tili grammatikasi nazariyasini mukammal bilgan tilshunos sifatida kitobni o‘ziga xos ravishda tuzishga erishgan.

Bizning tadqiqotda bu asarning oxirgi “Umumiy” bo‘limi tahlilga tortildi. Sibavayhidan farqli o‘laroq, Zamaxshariy bu nom ostida fonetik hodisalarni barcha so‘z turkumlariga taqsimlagan holda o‘rgangan. Sibavayhi tomonidan fonetika bo‘limida avval sintaksis, keyin morfologiya (sarf)ga oid fonetik o‘zgarishlar bayon etilgan.

Zamaxshariyning asarida yoritilgan fonetik hodisalar hozirgi arab tilshunosligi mohiyatiga yaqin shaklda berilgan bo‘lib, olim mavzularni fonetik-fonologik va morfonologik sath nuqtayi nazaridan o‘rgangan.

Zamaxshariy Sibavayhi qayd etgan undoshlar tasnifiga asoslanib, undoshlarning asliy va ikkilamchi turini ajratish tamoyilini saqlab qolgan. Ikkilamchi undoshlarning Qur’on qiroati va mumtoz arab tilida qo‘llanadigan va qo‘llanmaydigan turlari mavjud. Zamaxshariy asarida aynan shu hodisalarning o‘rganilganligi arab tilshunoslik tizimida, xususan, “Mufassal”da fonologik sathni yoritish masalalariga maxsus yondashilganlikni ko‘rsatadi.

Zamaxshariy artikulyatsiyaning 16 ta o‘rnini ko‘rsatib bergan. Bu tasnifga binoan u 43 fonemani o‘rgangan. Zamaxshariy arab tilidagi asl undoshlar uchun 15 artikulyatsiya o‘rni yetarli ekanligini ta’kidlagan.

Zamaxshariy o‘z tadqiqotida qalb termini bilan ifodalangan zaif undoshlarning kombinatorlik xususiyatini ham tavsiflagan. Bu o‘zgarishlar o‘z navbatida o‘zak tarkibidagi o‘zgarishga olib kelgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Islom dinining boshqa mamlakatlarga tarqalishi va o‘zga millatlar tomonidan arab tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan zarurat uning grammatikasini ta’lim uchun soddalashtirib ishlab chiqishga turtki berdi. Qur’on oyatlaridagi tushunilishi qiyin, murakkab so‘z va iboralarning mazmunini ochib berishga qaratilgan urinishlar esa islomgacha mavjud bo‘lgan she’riyatni o‘zlashtirish va fan sifatida o‘rganishga yo‘l ochdi. (Звегинцев В., 1962: 31)

Shu sababli Movarounnahrda mahalliy (turkiy) tildagi badiiy adabiyot bilan bir qatorda arab tilidagi ilmiy adabiyot ham rivoj topdi. Ko‘plab arab tili grammatikasiga oid asarlar, turli lug‘atlar, she’riy va nasriy asarlar hamda ilmiy asarlarga sharhlar yozildi. O‘rta Osiyo ushbu zamindan yetishib chiqqan allomalarning arab tilshunosligi taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan xizmati tufayli VIII-XII asrlar davomida yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. (Юшманов Н., 1998: 22) Arab tilshunosligiga salmoqli ulush qo‘shgan Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi olimlarning faoliyatini alohida e’tirof etish zarur. Hozirgi arab tilshunosligida morfonologik hodisa sifatida o‘rganiladigan so‘z boshi va ikki undosh munosabatlarining tahliliga ham Zamaxshariyning “Mufassal” asarida o‘sha davrning o‘zida keng joy ajratilgan. Zamaxshariy asarining umumiy bo‘limida tahlil qilingan fonetik-fonologik masalalar hozirgi arab tilshunosligida ham o‘rganilayotganligini, ular hamon originalligini saqlab qolganligini e’tirof etish zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mahmud Zamaxshariyning arab grammatikasi, xususan, fonetika va fonologiyaga e’tibor qaratgani hozirgi arab tilshunosligida o‘ta dolzarb va qimmatli bo‘lib qolmoqda. Uning fonetik-fonologik masalalarni chuqur tahlil qilishi va tushuntirishlari, shuningdek, arab tilining morfologiyasi, leksikologiyasi va imlosini batafsil o‘rganishi arab tilshunosligi fanida poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamaxshariyning “Mufassal” asari arab tilining nozik jihatlarini tushunishda har tomonlama ilmiy yondashish imkonini beradi va uning bu sohaga qo‘shgan hissasi arab tilshunosligi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Umuman olganda, Zamaxshariyning arab grammatikasiga oid ushbu ajoyib kitobi uning ilmiy tajribasi katta ekanligidan hamda arab tilshunosligi sohasida ulkan ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Белкин, В. М. (1961) Арабская лексикология. – Москва: МГУ.
2. Гиргас, В. (1873) Очерк грамматической системы арабов. – СПб: Типография Императорской Академии Наук.

3. Звегинцев, В.А. (1962) Очерки по общему языкознанию. – Москва: МГУ.

4. Симашко, Т.В. (2001) История лингвистических учений: античность, средневековье. – Архангельск: ГУ им. М.В.Ломоносова.

5. Штумме, Г. (1922) Арабский язык. Грамматический очерк. – Москва.

6. Юшманов, Н.В. (1998) Работы по общей фонетики, семитологии и арабской классической морфологии. – Москва: Вост. лит. РАН.

7. Замахшарий, Маҳмуд. (1357) المفصل في صفة الاعراب – ал-Муфассал фи сифати-л-иърāб. ЎзР ФАШИ. Қўлёзма № 5198. – Тошкент.

8. Мутарризий, Носир. كتاب المصباح – Китāбу-л-мисбāҳ. ЎзР ФАШИ. Қўлёзма № 3312/5.

9. Даририй, Ҳамидуддин. Муқаддима. ضريري – Даририй. ЎзФАШИ. Қўлёзма № 6452.

11 1976,ابو عمر عثمان. الايضاح في شرح المفصل. – بغداد

12 Гранде, Б.М. (1963) Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – Москва: Изд. вост. лит.

REFERENCES:

1. Belkin, V. M. (1961) Arabskaya leksikologiya. – Moskva: MGU. (In Russian)

2. Girgas, V. (1873) Ocherk grammaticheskoy sistemi arabov. – SPb: Tipografiya Imperatorskoy Akademii Nauk. (In Russian)

3. Zveginsev, V.A. (1962) Ocherki po obshyemu yazikoznaniyu. – Moskva: MGU. (In Russian)

4. Simashko, T.V. (2001) Istoriya lingvisticheskix ucheniy: antichnost, srednevekovye. – Arxangelsk: GU im. M.V. Lomonosova. (In Russian)

5. Shtumme, G. (1922) Arabskiy yazik. Grammaticheskiy ocherk. – Moskva. (In Russian)

6. Yushmanov, N.V. (1998) Raboti po obshyey fonetiki, semitologii i arabskoy klassicheskoy morfologii. – Moskva: Vost. lit. RAN. (In Russian)

7. Zamaxshariy, Mahmud. (1357) المفصل في صفة الاعراب – al-Mufassal fi sifati-l-i’rāb. O‘zR FASHI. Qo‘lyozma № 5198. – Toshkent. (In Arabic)

8. Mutarriziy, Nosir. كتاب المصباح – Kitābu-l-misbāh. O‘zR FASHI. Qo‘lyozma № 3312/5. (In Arabic)

9. Daririy, Hamiduddin. Muqaddima. ضريري – Daririy. O‘zFASHI. Qo‘lyozma № 6452. (In Arabic)

11. 1976,بغداد – .المفصل شرح في الايضاح .عثمان عمر ابو

12. Grande, B.M. (1963) Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveshyenii. – Moskva: Izd. vost. lit. (In Russian)

ABU RAYHON BERUNIY HAYOTI VA IJODINING MEDIA VOSITALARIDA YORITILISHI

COVERAGE OF ABU RAYHAN BERUNI'S LIFE AND ACTIVITY IN THE MEDIA

ОСВЕЩЕНИЕ ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ В ПРЕССЕ

To'ychiyeva Sayyora Suyarqulovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar
kafedrasi professori, f.f.d.
Tel: +998 90 949-46-90
filosofiya@umail.uz

Yunusov Komiljon Alimdjanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Internet jurnalistikasi yo'nalishi magistranti
Tel: +998 94 650-44-12
Komiljonyunuszoda@gmail.com

Annotatsiya. Abu Rayhon Beruniyning asarlari ustida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari yozib kelinmoqda. Ilmiy ishlar bilan bir qatorda, olimning ijodini yoritishda ommaviy axborot vositalari qay darajada faoliyat yuritayotgani ham muhim masaladir. Shu sababli, mazkur maqolada media vositalarining Abu Rayhon Beruniyni tanitishda amalga oshirayotgan ishlari haqida fikr yuritiladi. Bu zotning tug'ilgan yurti hozirgi O'zbekiston hududi ekanligiga qaramay, ko'plab xorijiy media vositalarida uni eronlik ekanligi haqidagi, yoki millati fors bo'lgani borasida asossiz fikrlar hamon uchrab turadi. Mazkur maqolada aynan qaysi manbalarda shunday axborot tarqalgani ko'rsatilishi bilan birga, qiyosiy tahlil uchun boshqa haqqoniy ma'lumotga ega nashrlar ham eslab o'tilgan. Shuningdek, Beruniy misolida tarixiy shaxslar bilan bog'liq jurnalistik kamchiliklar muhokamasidan tashqari, tashviqot ishlariga oid ayrim masalalar haqida ham fikr yuritiladi. Xususan, ulug' ajdodlarimizning yubileyi munosabati natijasida kuzatiladigan matbuot va televideniye faolligi boshqa kunlardagi tarixiy shaxslar mavzusiga e'tibor bilan taqqoslanib, o'rtadagi farqning yuzaga kelish sabablari haqida xulosalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: *Abu Rayhon Beruniy, ilmiy asarlar, matbuot, televideniye, internet, jurnalistik tahlil, tarixiy shaxslar mavzusi, xorij matbuoti, milliy matbuot, maqolalar, hujjatli film, badiiy film.*

Annotation. Many research works have been written based on the works of Abu Rayhan Beruni. In addition to scientific works, an important issue is the extent to which the media covers the activities of the scientist. Therefore, this article reflects on the work of the media in highlighting Abu Rayhan Beruni. Despite the fact that the scientist's birthplace is the territory of present-day Uzbekistan, many foreign media still have unfounded opinions that he is Iranian or Persian. In this article, in addition to showing which sources have such information, other publications with authentic information are also mentioned in the comparative analysis. Also, under the topic of Beruni, as well as the discussion of journalistic shortcomings related to historical figures, some issues related to propaganda work are also discussed. In particular, the press and television activity which are observed as a result of the jubilee of our great ancestors is compared with attention to the topic of historical figures on other days, and conclusions are presented about the reasons for the difference between them.

Keywords: *Abu Rayhan Beruni, scientific works, press, television, internet, journalistic analysis, topic of historical figures, foreign press, national press, articles, documentary film, feature film.*

Аннотация. На основе произведений Абу Райхана Беруни написано множество научно-исследовательских работ. Помимо научной работы, важным вопросом является и то, насколько средства массовой информации освещают деятельность ученого. Поэтому в данной статье размышляется о работе СМИ по пропаганде работ Абу Райхана Беруни. Несмотря на то, что родиной учёного является территория нынешнего Узбекистана, во многих зарубежных СМИ до сих пор существуют необоснованные мнения, что он иранец или перс. В данной статье, помимо показа, в каких источниках имеются подобные сведения, в сравнительном анализе упоминаются и другие издания с достоверной информацией. Также в рамках темы Беруни помимо обсуждения журналистских недостатков, связанных с историческими личностями, обсуждаются и некоторые вопросы, связанные с пропагандистской работой. В частности, активность прессы и телевидения, наблюдаемая по итогам юбилея наших великих предков, сопоставляется с вниманием к теме исторических деятелей в другие дни, а также делаются выводы о причинах различия между ними.

Ключевые слова: *Абу Райхан Беруни, научные труды, пресса, телевидение, интернет, публицистический анализ, тема исторических деятелей, зарубежная пресса, национальная пресса, статьи, документальный фильм, художественный фильм.*

KIRISH

Abu Rayhon Beruniy ming yil avval yashagan bo‘lsa-da, hamon uning nomi eng yetuk olimlar qatorida yodga olinadi. Bu shaxsga berilgan e’tiroflar orasida “Universal olim” (Kujundzić E., 1999), “Ensiklopedik olim” (Eshpulatov B., Abdurakhmonov G., 2021), “Qomusiy olim” (Askarova N., Xalbaeva D., 2022) kabi ta’birlarning uchrashi qay darajada buyuk salohiyat egasi bo‘lganligidan dalolat beradi. Mutafakkir Beruniy asarlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari internet manbalarida ko‘plab topiladi. Misol uchun New York shahrida joylashgan “Journal Storage” (JSTOR) nomli raqamli kutubxona bazasining o‘zida Beruniy haqida yozilgan 3500ga yaqin maqolalar mavjud. Bunday tadqiqotlar soni ko‘payishda davom etmoqda. Abu Rayhon Beruniy haqidagi har bir ma’lumot, ayniqsa biz uchun, o‘zbekistonliklarning vatandoshi o‘laroq, ahamiyatli va qiziqtiruvchi xususiyatga egadir. Biroq, media olamida Beruniy singari tarixiy shaxslarimiz xususida turfa xil noxolis kontentlar uchrab turadiki, ularning xato va asossiz ekanligi haqida fikr yuritish, bu xatolarni tuzatish choralarini ko‘rish millatimiz obro‘-e’tiborini asrash uchun xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng jahonda munosib o‘rnini topishga intilib kelmoqda, tarixiy ildizlariga asoslangan holda ajdodlar o‘rni va hurmatini joyiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mamlakatimiz taraqqiyoti uchun juda muhimdir. Yoshlar ongiga ajdodlarimiz haqida aldamchi fikrlar o‘ralashib qolishi tashvishli hol hisoblanadi – ularning vatanparvarligiga futur yetish xavfi bor. Muammoga o‘z vaqtida yechim izlamaslik medianing obro‘sizlanishiga, unga bo‘lgan ishonchning kamayishiga, hattoki, tarixiy shaxslarga nisbatan turfa xil munosabatlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada jamiyat orasida g‘oyaviy ziddiyatlar kuzatilaveradi. Oxir-oqibat, geosiyosiy munosabatlar taranglashgan hozirgi davrda bu kabi tashviqotlar davlat xavfsizligi va suverenitetiga daxl qilishi mumkin. Bunday mudhish holatning ro‘y berishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun masalani ilmiy tomondan o‘rganish, uni baholash va ilmiy yechimlar berish dolzarb vazifa sanaladi.

Shu sababdan mazkur maqolada Markaziy Osiyolik tarixiy shaxslardan biri bo‘lmish Abu Rayhon Beruniyning shaxsiyati, hayoti va ilmiy ijodiga oid ba’zi maqolalar tahlil etildi. Tadqiqotni amalga oshirishdan oldin Beruniyga oid maqolalarni topish, ulardagi noxolis ma’lumotlarni tanqidiy o‘rganish va boshqa asosli manbalar bilan qiyoslagan holda xulosa berish vazifa qilib olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Abu Rayhon Beruniy haqida juda ko‘p ilmiy maqolalar yozilgan va hamon yozilishi davom etmoqda. Ular orasida Beruniy haqida yozilgan ma’lumotlarni tahliliy o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari yo‘q emas. Gulnoza Teshayevaning “Parallel maqolaning janriy xususiyatlari” nomli maqolasida o‘zbek nasrida Abu

Rayhon Beruniy obrazining yoritilishi haqida fikr yuritilgan. Maqola yozilishida qiyosiy-tipologik va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanilgan. Muallif tanlagan tadqiqot obyekti Beruniy haqidagi badiiy asarlar bo‘lgani uchun bu maqola bizning mavzuyimizga mos kelmaydi. Yana bir tadqiqotchi Anvar Allambergenovning “Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida” sarlavhali maqolasi Isajon Sultonning nashr ettirgan “Abu Rayhon Beruniy” nomli romani tahliliga bag‘ishlangani bilan ajralib turadi. Muallif bunda qiyosiy, adabiy va tarixiy tahlil uslublaridan foydalangan. Bitta asar tahlilidan iborat ushbu maqola ham bizning tadqiqotimiz mavzusidan farq qiladi. Q. Qalekeyev tomonidan yozilgan “Zamonaviy Qoraqalpoq matbuotida tarixiy shaxslar faoliyatini yoritish tamoyillari va muammolari” nomli dissertatsiyada bir qator tarixiy shaxslar qatorida Abu Rayhon Beruniy ham eslab o‘tilgan. Q. Qalekeyev tarixiy shaxslarni ommaviy axborot vositalarida yoritish faoliyati qoniqarli emasligini, bu haqda Birinchi Prezident asarlarida ham ta’kidlab o‘tilganini qayd etib, quyidagi iqtibosni keltiradi: “Biz mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband singari aziz-avliyolarimiz, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk arboblarimiz, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlarimizning nomlarini, asarlarini tom ma’noda qaytadan kashf etdik. Lekin bu ulug‘ ajdodlarimizning jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga qo‘shgan buyuk hissasini yoshlarimiz biladimi? Albatta, biladi. Ammo, afsuski, aksariyat hollarda umumiy, yuzaki tarzda biladi. Ma’naviy tarbiya sohasidagi ishlarimizga yangi turtki berish uchun yuqorida nomlari zikr etilgan ulug‘ siymolarning har biri haqida keng ommaga, birinchi navbatda, yoshlarga mo‘ljallangan alohida ma’rifiy ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar yaratish, gazetalarimizda maxsus ruknlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘lur edi.” (Qalekeyev Q., 2009: 3)

Beruniy shaxsining aynan mediada yoritilishiga oid maxsus ilmiy ish internet manbalaridan topilmadi. Shu sababli, mazkur maqolada tanlangan mavzuni avval murojaat qilinmagan ilmiy ish deyishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishlar jarayonida Beruniy haqidagi ko‘plab maqolalar bilan tanishib chiqildi. Natlib.uz, Diss.natlib.uz, ProQuest.com kabi ilmiy ishlar bazalaridan matbuot faoliyatiga oid ilmiy maqola va dissertatsiyalar izlab topildi. Ba’zi materiallar chop etilgan gazeta va jurnallardan ko‘rilgan bo‘lsa, boshqa matnlar “The British Newspaper Archive”, “Chronicling America”, “Newspapers.com” singari online arxiv saytlar bazasidagi gazetalardan topib o‘rganildi. Matbuot faoliyatidan tashqari televideniye ko‘rsatuvlari, hamda Internetga joylangan turli formatdagi kontentlar qidirib topib

o‘rganildi. Mavzuni to‘laroq yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hukumatining Beruniy bilan bog‘liq tegishli qarorlari bilan ham tanishib chiqildi. Beruniy mavzusiga oid maqolalarni tahlil qilishda qiyosiy-tarixiy tahlil, fact-checking, hamda xronologik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu vazifalarning aksariyati axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyatini yoritgan media materiallarini izlash davomida turli gazeta maqolalari, jurnallardagi ilmiy-tarixiy maqolalar, konferensiya to‘plamlari va boshqa kontentlarga duch kelindi. Xususan, 2023-yilning 28–29-aprel kunlari Urganch davlat universitetida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Xorazm viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi vakillari ishtirokida o‘tkazilgan “Beruniy va Ibn Sino – ikkinchi ming yillikning taqdirini o‘zgartirgan daholar: Ma’mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotida tutgan o‘rni”[2] nomli Xalqaro ilmiy konferensiyada quyidagi yo‘nalishlarda 40 taga yaqin ilmiy ma’ruzalar tinglandi:

- Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiy merosi;
- Abu Rayhon Beruniy yashagan davr adabiy muhiti;
- Abu Rayhon Beruniyning ilm-fan, madaniyat va san’atga qo‘shgan ulushi;
- Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot va farmatsevtika fani rivojiga qo‘shgan hissasi;
- Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining jahonda o‘rganilishi;
- Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm-fani rivojidagi o‘rni.

Mazkur konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori[3] ijrosi bo‘yicha o‘tkazildi. Bundan avval ham Beruniy ijodiga bag‘ishlangan to‘plam asarlar chop etilgan. Masalan, 1973-yili olim tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan “Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Tanlangan asarlar” nomi ostida ko‘p jildlik asarlar jamlanmasi nashrdan chiqqan edi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu ikki to‘plam o‘rtasida o‘xshashlik jihatlari mavjud. Ya’ni, aynan yubiley sanalarida olim ijodiga qiziqish kuchaygani, boshqa vaqtlarda esa sustlik, yoxud e’tibordan chetta qolgani ayon bo‘ladi. Ba’zi ilmiy maqolalar aynan konferensiyalar uchun yozilayotgani ham haqiqatdir. Bunday yondashuvni gazeta va televideniyeda ham uchratishimiz mumkin.

Jumladan, Qoraqalpog‘istonning Beruniy tumanida Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligiga bag‘ishlab ulug‘ alloma nomidagi majmua barpo etilishi

[2] https://beruni.uz/en-ca/component/k2/item/521-beruniy-va-ibn-sino.html

[3] https://yuz.uz/uz/news/buyuk-mutafakkir-va-qomusiy-olim-abu-rayhon-beruniy-tavalludining-1050-yilligini-xalqaro-miqyosda-keng-nishonlash-togrisida

haqida gazeta.uz[4] saytida xabar berildi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi bazasiga kiritilgan milliy nashrlarning elektron arxivi o‘rganilganda Beruniy haqida ja’mi 48ta turli manbalar borligi aniqlandi.[5] Ta’kidlash joizki, hozirgi internet taraqqiy etgan zamonda gazeta va jurnallarda chop etilayotgan tarixiy janrdagi maqolalarni ancha kam uchratamiz. Shulardan biri, “Darakchi” gazetasining 2023-yil 4-may sonida berilgan “Beruniyning “Osor-ul-boqiya”si qanday asar?” nomli qisqa matnli maqoladir.[6]

Televideniye efirlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asosan “O‘zbekiston tarixi” telekanali Beruniy haqida quyidagi ko‘rsatuvlar tayyorlaganiga guvoh bo‘lamiz: 2022-yil, 27-avgust sanasida “Aslida qanday?” ko‘rsatuvida Beruniy merosining o‘rganilishi mavzusida lavha tayyorlangan.[7] “Gapning ochig‘i” ko‘rsatuvida esa “Biz Beruniy va Ibn Sinoni tanimagan bo‘lardik, agarda…” deb nomlagan mavzuda suhbat namoyish etilgan. Beruniy mavzusidagi efirlar bo‘yicha “O‘zbekiston 24” telekanali ham faol ekanligi namoyon bo‘ladi. “Abu Rayhon Beruniy” kitobi taqdimoti haqidagi efir, “Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi”, “Yunesko Ijroiya Kengashi Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qildi” sarlavhalari ostidagi yangiliklardan tashqari “Abu Rayhon Beruniy merosining ilmiy ahamiyati” nomli maxsus reportaj ham tayyorlangani tahsinga loyiq. Ammo bu efirlarning hammasi tavallud sana e’tiboridan ekanligi sezilib turibdi.

Beruniy haqida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlar olib bormoqdalar. Ularni televideniyega taklif qilib mazmunli suhbatlar tashkil qilish, hamda Beruniyga oid ilmiy yangiliklarni ommaga tanishtirish mumkin. “Fikrat” YouTube kanali misolida tarixiy shaxslarga atalgan ko‘rsatuvlarni tomoshabinlar kuzatishmoqda. E’tiborlisi, bu ko‘rsatuvlar uchun eng bilimli va tajribali olimlar taklif etilyapti. Ammo, bu kanalda hali Beruniy haqida alohida suhbat tayyorlangani internet sahifalarida uchramadi. Boshqa telekanallarimizda, ayniqsa “Zo‘r TV”, “Milliy”, “Sevimli” kabi xususiy telekanallarda, biz so‘z yuritayotgan olim haqida ham, boshqa mutafakkirlar haqida ham alohida tayyorlangan ko‘rsatuvlarni deyarli uchratmaymiz. YouTube ijtimoiy tarmog‘ida esa professional hamda havaskor ijodkorlar tomonidan tayyorlangan “Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodi haqida ma’lumot”, “Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston tarixi” asari tarixi”, “Abu Rayhon Beruniy hayoti va qiziqarli ma’lumotlar”, “Abu Rayhon Beruniy – Hayoti va ijodi haqida animatsion rolik” singari videolavhalar o‘rin olgan. YouTube platformasidagi boshqa videolarning aksariyati yo

[4] https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/25/beruniy/

[5] https://www.natlib.uz/search/tot/result?si=TOTAL&st=KWRD&lmtst=&lmtsn=&lmt0=&q=beruniy#divWrapper

[6] https://darakchi.uz/uz/165827

[7] https://www.youtube.com/watch?v=6SoMZN_8prE

“O‘zbekiston tarixi” yoki “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining media mahsuloti bo‘lib chiqadi. Qolgan qisqa videolar esa bir-birini takrorlovchi umumiy ma’lumotlardan iboratligi uchun hech qanday yangilik havola qilmaydi.

Ammo, internetga ko‘plab joylanayotgan tarixiy shaxslarga oid matnli ma’lumotlarni e’tirof etish lozim. Xususan, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy xodimi professor B. To‘rayevning “Mamlakatimizda Beruniyning qanday asarlari chop etilgan?” nomli maqolasi markaz saytiga joylashtirilib, omma e’tiboriga havola etildi.[8] Xurshid Davron kutubxonasi saytida ham Beruniy asarlariga oid bir qancha maqolalarni o‘qishimiz mumkin. Masalan, Aziz Qayumov muallifligidagi “Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar” nomi ostida ikki jildli asar haqida anchagina qimmatli ma’lumotlar havola qilingan.[9] Undan tashqari, “Abu Rayhon Beruniy. “Javohirnoma”dan hikoyatlar”, “Abu Rayhon Beruniy. O‘gitlar”, “Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Osoru-l-boqiya”)dan” (Matn tarjimasi keltirilgan holda), “Ispanlar o‘yini yoxud Kolumb va Beruniy munozarasi”, “Beruniy: Katdan G‘aznagacha. Kolumb kashfiyotining siri” kabi maqolalar berilgani e’tiborga molik.

Muhammad Beruniy to‘g‘risidagi ma’lumotlar maqola va ko‘rsatuvlar bilan cheklanib qolmaydi. Ya’ni, bu mashhur olim haqida alohida film ishlanganini ham eslab o‘tish lozim. “Abu Raykhan Beruni” yoki “Абу Райхан Беруни (1974)” nomlari ostida qayd etilgan film kinopoisk.ru, imdb.com singari jahonga mashhur film portallari ro‘yxatidan joy olgan. Shuhrat Abbosov rejissorligida suratga olingan mazkur filmda badiiy to‘qimalar uchrasa-da, Beruniy zamoni muhiti hamda o‘sha davr odamlari tafakkuri haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Beruniy haqida biror bir yirik hujjatli film esa hozirgacha yaratilgani yo‘q. “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida “Abu Rayhon Beruniy” nomli kichik metrajli ko‘rsatuv efirga chiqqan. Lekin unda asosan olim asarlariga oid fikr-mulohazalar havola etish bilan cheklanilgan. “Imom Buxoriy”, “Abu Iso at-Termiziy” hamda jadidlarimiz uchun ishlangani kabi Beruniy uchun ham hujjatli film ishlanib, xorij tillariga tarjima qilinsa, hammamiz uchun manfaatli bo‘lardi.

Tarixiy shaxslar mavzusini yoritishda matbuot faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Shu sababli, mahalliy nashrlar bilan birgalikda xorijiy gazeta va jurnallar ham o‘rganib chiqildi. Natijada esa Beruniydek mashhur olimning tug‘ilib o‘sgan vatani haqida xato ma’lumot ketgan maqolalar juda ko‘p ekanligi aniqlandi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi Movarounnahr olimlari ko‘p manbalarda fors

[8] https://www.bukhari.uz/?p=17499&lang=oz

[9] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/4-sentyabr-buyuk-qomusiy-olim-abu-rayhon-beruniy-tavalludiga-1040-yil-toladi.html

olimlari deb yuritiladi. Masalan, “Illustrated London News” (1950-yil 25-mart) gazetasida Beruniy arab deb talqin etilgan. “Richmond Informer” gazetasining 1999-yil 21-maydagi sonida esa Beruniy fors olimi deb yozilgan. Xuddi shu kuni “Staines Informer” gazetasida ham Beruniy haqida maqola berilgan va unda fors astrologi deb tanishtirib o‘tilgan. Astrolog atamasining izohi munajjim, folbin ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, bunday nomlash buyuk olim uchun haqoratdir. Yevropa matbuotidan tashqari Amerika va Avstraliya nashrlari ham Markaziy Osiyolik tarixiy shaxslarning vatani haqida to‘g‘ri ma’lumot bera olmagan.

Abu Rayhon Beruniy haqida xolislikni ta’minlash, hamda bu siymo kimligini butun dunyoga targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi darajasida katta e’tibor berilayotganini ham eslab o‘tish muhim hisoblanadi. Shu bois, quyida Beruniy nomi bilan bog‘liq qonun hujjatlari ro‘yxatini keltirib o‘tamiz:

1. “Toshkent davlat texnika dorilfununiga Abu Rayhon Beruniy nomini berish to‘g‘risida” O‘zbekiston SSJ Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.06.1991-yil, 175-son;
2. “Vazirlar Mahkamasining “Fan va texnika sohasida Beruniy (Abu Rayhon Beruniy) nomidagi O‘zbekiston SSJ davlat mukofoti to‘g‘risida” 1991-yil 5-martdagi 57-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.02.1996-yil, 59-son;
3. “Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutining kutubxonasi binosini qurish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan O‘mon Sultonligi hukumati o‘rtasida Anglashuv protokoli;
4. “Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzurida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari markazi faoliyatini tashkil etish hamda kutubxonaning yangi binosi qurilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.08.2014-yil, 219-son;
5. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabiga o‘qishga qabul qilish va o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining buyrug‘i, 23.01.2019-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3128;
6. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi professor-o‘qituvchilari tarkibini tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi

milliy agentligining buyrug‘i, 23.01.2019-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3129;

7. “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.08.2022-yil, PQ-361-son;

8. “Abu Rayhon Beruniy nomidagi YUNESKO – O‘zbekiston xalqaro mukofotini ta’sis etishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.08.2023-yil, PQ-286-son.

Mazkur qarorlar ijrosi yuzasidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday xayrli faoliyat jarayonidagi eng esda qolarli voqealardan biri Abu Rayhon Beruniy asarlari to‘plamining yangitdan nashrdan chiqqani bo‘ldi. Beruniy tavalludining 1050 yilligi nishonlangan 2023-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyida ham Beruniy asarlarining yangi nashrdagi to‘plami ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Bu ko‘rgazmada turli davlatlardan tashrif buyurgan olimlar, madaniyat xodimlari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

MUHOKAMA

Hukumat tomonidan berilayotgan e’tibor o‘z natijasini ko‘rsatadi, degan umiddamiz. Bu borada jurnalist va tadqiqotchilardan ham faollik talab etiladi, albatta. Ammo, xorij ommaviy axborot vositalarida tarixiy shaxslarimiz haqida noto‘g‘ri ma’lumotlar chiqmasligini ta’minlash oson vazifa emas. Bunday noxolis axborot tarqatishning sababi ilmiy izlanmaslik hamda mas’uliyatsizlik, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Sababi, yana shunday maqolalar ham uchradiki, unda Abu Rayhon Beruniy haqida aniq faktlar yozilgan. “Timing and Temporality in Islamic Philosophy and Phenomenology of Life” jurnalida “Virtues in Al-Biruni’s Philosophy of Science” nomi ostida chop etilgan maqolada Beruniyning kimligi, qaysi sanada va haftaning qaysi kuni tavallud topgani, hamda aynan qaysi hududda tug‘ilgani va u hozir qayerda ekanligi batafsil yozib ko‘rsatilgan. Ushbu natijaga erishishda yurtimiz olimlari va tashabbuskor hukumatimizning ham hissasi bor. “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori chiqqanini alohida e’tirof etish lozim. (25.08.2022, PQ-361-son) Targ‘ibot ishlari bo‘layotgani tufayli dunyo bo‘ylab ma’lumotlar tarqalmoqda. Tadqiqotchilar ulardan o‘zlari uchun material sifatida foydalanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy bobomiz nomi jahonda ham munosib e’tirof etilmoqda. Bu zot uchun Vena shahrida, butunjahon uchun ahamiyatli

[10] https://lex.uz/uz/docs/-6172044

bo‘lmish Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohida haykal o‘rnatilgan. Oyning katta kraterlaridan biriga, shuningdek samodagi bir asteroidga “Al-Biruni” deb nom berilgan. (Andersson L., Whitaker E., 1982) Bunday ulug‘ sharafga yetishgan inson biz turkiylarning vakili ekani quvonarli, albatta. Biroq masalaning boshqa bir tomoni borki, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining boshqa xodimlari faolroq bo‘lib, xolisona tarix uchun xizmat qilishmas ekan, misinformatsiya yoki dezinformatsiya sababidan shonli tariximiz yolg‘onlar soyasida ko‘rinmay qolaveradi. Misol uchun, Beruniy fors olimi deya qayd etilgan. Yuqorida ko‘rsatilgan krater va asteroid haqidagi maqolalarda shunday ma’lumotlarni o‘qiymiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardimki, haqqoniy tarixni asrash va targ‘ib qilish uchun, yosh avlodga mazmunli yetkazish uchun jurnalistlarimiz faolroq bo‘lishsa, ko‘proq va sifatliroq lavhalar tayyorlashsa, xo‘p manfaatli ish bo‘lardi. Shuningdek, Beruniy kabi shaxslar faqat yubiley sanalarida esga olinadigan insonlar emasligini anglab yetaylik. Ular har lahzada namuna uchun eslashga, ibrat olishga munosib insonlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kujundzić, E., Masić, I. (1999) Al-Biruni – a universal scientist // Medical Archives. – Croatia.

2. Eshpulatov, B.H., Abdurakhmonov, G.E. (2021) The scientific views of the great scientist Abu Rayhan Beruni in the field of mathematics // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal, Volume: 7, Issue: 4.

3. Askarova, N., Xalbaeva, D. (2022) Abu Rayhon Beruniy – buyuk qomusiy olim // The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science. Volume 3, TMA Conference.

4. Абу Райҳон Беруний (973-1048). Танланган асарлар. (1973). – Тошкент.

5. Andersson, L.E., Whitaker, E.A. (1982) NASA Catalogue of Lunar Nomenclature // NASA RP-1097.

6. Қалекеев, Қ. (2009) Замонавий Қорақалпоқ матбуотида тарихий шахслар фаолиятини ёритиш тамойиллари ва муаммолари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент.

REFERENCES:

1. Kujundzić, E., Masić, I. (1999) Al-Biruni – a universal scientist // Medical Archives. – Croatia.

2. Eshpulatov, B.H., Abdurakhmonov, G.E. (2021) The scientific views of the great scientist Abu Rayhan Beruni in the field of mathematics // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal, Volume: 7, Issue: 4.

3. Askarova, N., Xalbaeva, D. (2022) Abu Rayhon Beruniy – buyuk qomusiy olim // The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science. Volume 3, TMA Conference. (In Uzbek)

4. Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Tanlangan asarlar. (1973). – Toshkent. (In Uzbek)

5. Andersson, L.E., Whitaker, E.A. (1982) NASA Catalogue of Lunar Nomenclature // NASA RP-1097.

6. Qalekeyev, Q. (2009) Zamonaviy Qoraqalpoq matbuotida tarixiy shaxslar faoliyatini yoritish tamoyillari va muammolari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent. (In Uzbek)

INTERNET MANBALARI:

1. https://beruni.uz/en-ca/component/k2/item/521-beruniy-va-ibn-sino.html

2. https://yuz.uz/uz/news/buyuk-mutafakkir-va-qomusiy-olim-abu-rayhon-beruniy-tavalludining-1050-yilligini-xalqaro-miqyosda-keng-nishonlash-togrisida

3. https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/25/beruniy/

4. https://www.natlib.uz/search/tot/result?si=TOTAL&st=KWRD&lmtst=&lmtsn=&lmt0=&q=beruniy#divWrapper

5. https://darakchi.uz/uz/165827

6. https://www.youtube.com/watch?v=6SoMZN_8prE

7. https://www.bukhari.uz/?p=17499&lang=oz

8. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/4-sentyabr-buyuk-qomusiy-olim-abu-rayhon-beruniy-tavalludiga-1040-yil-toladi.html

9. https://lex.uz/uz/docs/-6172044

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA INTERNET MATNLARINING STRUKTUR-SEMANTIK VA DISKURS TAHLILI

STRUCTURAL-SEMANTIC AND DISCOURSE ANALYSIS OF INTERNET TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ ИНТЕРНЕТ-ТЕКСТОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ilmiy rahbar: **Ahmedov Oybek Saparboyevich**
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc;

Akramova Xurshida Artikbayevna
Oriental universiteti magistranti
Tel: +998 97 715-10-84
Xurshida_uz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola ingliz va o‘zbek tillarida internet matnlarining struktur va semantik tahliliga asoslangan bo‘lib, unda internet matnlari va diskurs tahlili bilan bog‘liq nazariy qarashlar o‘rganilgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi internet matnlari va nutqining murakkab manzarasi har tomonlama strukturaviy-semantik va diskurs tahlili orqali ifodalanishi o‘rganib chiqiladiki, u hozirgi kunda internet aloqasi orqali yangi leksik birliklar va iboralarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Internetning zamonaviy inson hayotining turli sohalariga ta’siri kuchayishi, shuningdek, Internetda lingvomadaniy jihatlarning namoyon bo‘lishini hisobga olgan holda, Internet matnlari, Internet lug‘atini o‘rganish vazifasi yanada dolzarb bo‘lib borayotganini ta’kidlash lozim.

Kalit so‘zlar: *internet matni, diskurs, lug‘at, internet nutqi, falsafa, tilshunoslik, muloqot, diskurs-dialog.*

6. Knish, Aleksandr (2004). «Musulmanskiy mistitsizm”. – Moskva, Sankt-Peterburg: Dilya. (In Russian)

7. Melchert, Christopher (2001). “Traditionist-Jurisprudents and the Framing of Islamic Law”. Brill. Islamic Law and Society, Vol. 8, No. 3, Hadith and Fiqh.

8. Nirsha M. (1991). “Traditsiya i novatsiya v sufizme” // Iz istorii sufizma: istochniki i sotsialnaya praktika. Sbornik statey pod red. M.Xayrullayeva. – Tashkent: Fan. (In Russian)

9. Salim, Axmad (2021). Ma xakikat sira’ bayn al-fukaxa va-s-sufiyya. Internet-istochnik: https://hafryat.com/ar/blog. (In Arabic)

10. Syukiyaynen, Leonid (1986). Musulmanskoye pravo. Voprosi teorii i praktiki. – Moskva: Nauka. (In Russian)

11. Shimmel, Annemari (1986). Mir islamskogo mistitsizma. – Moskva: Sadra. (In Russian)

ISLOM DINI MADANIY MEROSIDA TA’LIM FENOMENI: DUNYOVIYLIK VA AXLOQ MASALASIGA DOIR QARASHLAR

THE PHENOMENON OF EDUCATION IN THE CULTURAL HERITAGE OF ISLAM: VIEWS ON THE ISSUES OF SECULARITY AND MORALITY

ФЕНОМЕН ОБРАЗОВАНИЯ В КУЛЬТУРНОМ НАСЛЕДИИ ИСЛАМА: ВЗГЛЯДЫ НА ВОПРОСЫ СВЕТСТВЕННОСТИ И НРАВСТВЕННОСТИ

Xalilova Zilola Erkinovna,
Oriental universiteti, Tarix fakulteti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
zilola_kesh@mail.ru

Annotatsiya. Islom intellektual madaniy merosi doirasida ta’lim fenomeni, ta’lim, din, madaniyat va o‘ziga xoslik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Olimlar dunyoviylik, ta’lim tizimida dinni davlat ishidan ajratish, xususan, musulmonlar ko‘p yashaydigan jamiyatlarda diniy ta’lim bilan zamonaviylikning qanday kesishishi muammosi yuzasidan turli qarashlar va konsepsiyalarni ilgari suradilar. Shuningdek, mazkur masala diniy ta’lim, madaniy meros va ijtimoiy siyosiy omillar yordamida kishilarning daxldorlik va dunyoqarashi qanday shakllanishini hisobga olgan holda ta’lim jarayoni orqali musulmonlarning o‘ziga xosligi, identikligini yuzaga chiqarish haqidagi savolni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda biz ikki xil – g‘arb va sharq olimlarining muammo yuzasidan turlicha yondashuvlarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolada ta’lim falsafasi kontekstida diniy ta’limning maqsadi, uning madaniyat bilan aloqadorligi va dunyoviy jamiyatda diniy ta’limni tashkil etish masalasi yuzasidan fikrlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Diniy ta’lim, dunyoviylik, islom, madaniyat, axloqiy tarbiya, davlat va din o‘rtasidagi munosabat.*

Annotation. The phenomenon of education in the intellectual cultural heritage of Islam involves the study of the complex relationships between education, religion, culture, and identity. Scholars have put forward different views and concepts regarding the issue of secularism, the separation of religion from the state in the education system, and how to intersect religious education with modernity in societies with a large Muslim community. Besides that, this problem includes the issue of Muslim identity, upbringing through the educational process, taking into account how people’s views and worldviews are formed through religious education, cultural heritage, and socio-political factors. In this process, we can observe the different approaches of two different scientists – Western and Eastern scientists to the problem. This paper

examines the purpose of religious education in the context of the philosophy of education, its connection with culture, and the organization of religious education in a secular society.

Key words: *Religious education, secularism, Islam, culture, moral education, state-religious relations*

Аннотация. Феномен образования в интеллектуальном культурном наследии ислама включает изучение сложных взаимоотношений между образованием, религией, культурой и идентичностью. Ученые выдвигают разные взгляды и концепции относительно проблемы секуляризма, отделения религии от государственной работы в системе образования и того, как пересечь религиозное образование с современностью в обществах с большим количеством мусульман. Также в эту проблему входит вопрос мусульманской идентичности, воспитания через образовательный процесс с учетом того, как формируются взгляды и мировоззрение людей с помощью религиозного образования, культурного наследия и социально-политических факторов. В этом процессе мы можем наблюдать разные подходы двух разных ученых – западных и восточных ученых к проблеме. В данной статье рассматривается цель религиозного образования в контексте философии образования, его связь с культурой, а также организация религиозного образования в светском обществе.

Ключевые слова: *Религиозное образование, светскость, ислам, культура, нравственное воспитание, государственно-религиозные отношения*

KIRISH

So‘nggi yillarda islom dini va ta’limining zamonaviy jamiyatda tutgan o‘rnini tahlil qilish tadqiqotchilar orasida qiziqarli mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda (Seligman A., 2004; Lähnemann J., Schreiner P., 2009; Fratelli V., 2013; Yusupov O., 2015). Ushbu masala dunyoviy tamoyillar asosida qurilgan davlat va diniy ta’limotlar o‘rtasidagi muvozanatni qanday saqlash kerakligi to‘g‘risidagi savollarni keltirib chiqaradi. Xalqaro ilmiy munozaralarda tadqiqotchilar tomonidan diniy ta’limda dunyoviylik, din va davlat munosabatlari o‘rtasidagi dinamikaning o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi va uning islom dini kontekstida ta’limning manzarasi va ijtimoiy dinamikasini tushunishga harakat qilinadi (Jackson R., 2007; Schreiner P., 2009; Lähnemann J., Schreiner P., 2009). G‘arb tarixshunosligida dunyoviy davlatlarda diniy ta’limni tashkil etish masalasi yuzasidan fikrlar, xulosalar berilgan bo‘lsa, islom dunyosi olimlari tomonidan diniy ta’limning maqsadi va uning komil insonni tarbiyalashdagi vazifalari nimadan iboratligi mavzusidagi bahs-munozaralar yuritiladi (Al-Attas S., 1979; Zijad D., 2006; Abdolkarim S., 2009). Aytish mumkinki, zamonaviy tarixshunoslikda diniy ta’limga oid tadqiqotlarning ikkita yo‘nalishi mavjud bo‘lib,

ulardan birida boshlang‘ich ta’lim va madrasa kabi islom ta’lim muassasalari tarixi hamda o‘rta asrlarda diniy mazhab va maktablarning paydo bo‘lishiga urg‘u berilgan intellektual harakatlar tadqiq qilinsa, ikkinchisida islom va xristian dinidagi intellektual oqimning (sxolastika va gumanizm) kelib chiqishiga oid izlanishlar e’lon qilingan (Zijad D., 2006: 10-18).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tarixiy bibliografik tadqiqot toifasiga kirib, islom ta’limi, diniy ta’limning tashkil etilishi masalasiga doir tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikr va qarashlardan olingan faktlarni izlash, tahlil qilish, sharhlash va umumlashtirish asosida tuzildi. Bunda islom dunyosi olimlarining islom antropologiyasi va pedagogikasi konsepsiyalari va g‘arb dunyosida diniy ta’limni dunyoviy jamiyatlarda tashkil etish masalasidagi nazariya va qarashlar tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim − bu hayot davomida orttiriladigan, ma’lumot va ko‘nikmalar asosida tajribaga asoslangan bilim bo‘lib, ta’limning maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan yuqori malakali va uzoqni ko‘ra oladigan shaxsni tarbiyalashning katalizatori hisoblanadi.

Turli hududlarning o‘ziga xos madaniyati va tarixiy rivojlanishi mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Bu ta’lim falsafasining g‘arb va sharq yo‘nalishlari shakllanganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, g‘arb ta’lim falsafasi an’anaviy va zamonaviy bo‘lgan ikkita maktabni o‘z ichiga oladi. Uning ildizlari Afina, Rim va yahudiy-xristianlikdan kelib chiqqan bo‘lsa, sharq falsafasi islom, konfutsiylik, daoizm va mahayana buddizmi dinidan g‘oyalarni olgan. G‘arb va sharq falsafasida islom ta’limidagi maqsad va mas’uliyatni belgilashda turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ba’zi olimlar ta’limda ma’naviy tarbiyani muhim deb bilsa, boshqalar moddiyatga e’tibor qaratadi, boshqalari esa ta’limda ijtimoiy maqsadlarni eng muhim deb biladi (Talal A., 2003: 208).

Islom kontekstidagi ta’limga oid ko‘pchilik asarlarda asosan islomdagi institutlarning tarixiy va tashkiliy jihatlariga e’tibor qaratiladi (George M., 1981: 56-117). Tarixda islom ta’lim muassasasi masjid qoshida ochilgan maktablardan boshlangan. Dastlab uning maqsadi diniy bilim berish bo‘lsa ham, musulmon davlatlarining kengayishi, shuningdek, dunyoviy hukumatlarning paydo bo‘lishi, dinning davlatdan ajratilishi, yangi madaniyat va dinlar bilan assimilyatsiya jarayoni, islom ta’limining umumiy maqsadlarini, xususan, islom madaniy merosida ta’limning o‘rnini ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Islom intellektual madaniy merosida ta’limni tasvirlashda islomning asosiy manbalari bo‘lgan Qur’on va sunnat tomonidan qabul qilingan ta’lim jarayonining turli jihatlarini ta’riflash ta’limning to‘g‘ri talqinini yaratishga yordam beradi (Ziyad D.,

2006: 33-43). Musulmon dunyosida rasmiy ma’noda keng qo‘llaniladigan birinchi so‘z bu “ta’lim” bo‘lib, u o‘qitish orqali izlanayotgan yoki ajratiladigan bilimga oid bilish, xabardor bo‘lish, idrok etish yoki o‘rganishni anglatuvchi “olim” so‘zining ildizidan kelib chiqqan. Ikkinchi “tarbiya” so‘zi “raba” so‘zining o‘zagidan bo‘lib, ko‘paytirish, o‘stirish yoki oziqlantirish, biror narsani to‘liqlik yoki yetuklik bosqichiga olib chiqish yoki o‘stirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish ma’nosini bildiradi. Musulmon pedagoglari orasida tarbiya insonning rivojlanishida to‘liq kamolot bosqichiga yetguniga qadar bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tadigan tarbiya jarayoni sifatida qabul qilinadi. Tarbiya keng ma’noda ta’limni nazarda tutadi, ya’ni shaxsni rivojlantirish, ta’limning tarbiyaviy jihatlarini nazarda tutadi (Ziyad D., 2006: 33-43).

Islom intellektual madaniy merosida dunyoviylik va diniy ta’lim o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlagan Talal Asad, dunyoviy va diniy sohalar o‘rtasidagi bo‘linish mavjud emasligini, din hayotning turli jabhalariga chuqur singib ketganligini musulmon jamiyatlari kontekstida ta’kidlaydi (Talal A., 2003: 39-52). Boshqa bir musulmon nazariyotchisi Tariq Ramazon islom qadriyatlariga asoslangan ta’lim bilan musulmon identikligini rivojlantirish muhimligini, ammo bunda zamonaviy bilim va plyuralistik nuqtayi nazardan foydalanish kerakligini ta’kidlaydi. Abdulkarim Sorish esa ta’lim tizimidagi islom intellektual merosini qayta ko‘rib chiqish, diniy an’analarni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtiradigan va musulmon identikligini qamrab oluvchi va mulohaza qilishga yordam beruvchi islohotchi yondashuvni ilgari suradi. Diniy ta’limdagi ushbu istiqbollar ta’limning individual va jamoaviy o‘ziga xosligini shakllantirish, diniy ta’lim va dunyoviy ta’lim o‘rtasidagi chegaralarni muhokama qilish va turli madaniy va siyosiy kontekstlarda musulmon identikligini hal qilishda davom etib kelayotgan munozaralarga hissa qo‘shadi (Tariq R., 2003; Abdolkarim S., 2009).

Ammo ta’lim falsafasi nafaqat diniy ta’limning, madaniyatning muhim qismi sifatida muhimligini ta’kidlaydi, balki diniy ta’limni madaniyat bilan bog‘lash va tushunish zarurligiga ham e’tiborimizni qaratadi. Aslini olib qaraganda, diniy ta’lim madaniy xilma-xillikni o‘zaro bog‘laydigan madaniyat doirasida rivojlanadi (Luz M., 2009: 10-15). Agar buni musulmon aholi ko‘p yashaydigan dunyoviy jamiyatlar misolida tahlil qilsak, dunyoviy davlatda shaxsni tarbiyalashda dinning o‘rni to‘g‘risida tengma-teng fikrlarni ko‘rishimiz mumkin (Xusniddinov Z., 2002: 7-19). Diniy ta’lim masalasi ayniqsa qizg‘in va munozarali mavzu bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi (Fratelli V., 2013; Seligman A., 2004; Lähnemann, J., Schreiner, P., 2009). Garchi diniy ta’lim maqsadli bo‘lsa ham, ta’limning nimaga qaratilgani va uning kimni tarbiyalashdagi o‘rnini aniqlash masalasini tushunishni talab qiladi. Muayyan jamiyatda shaxslarni fuqaro qilib tarbiyalash ta’lim faoliyatining faqat bir

jihati hisoblanadi. Islom ta’limi shaxsning diniy, hissiy, ma’naviy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan. Bu bir vaqtning o‘zida butunlik va muqaddaslikni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash mumkinki, islom ta’lim nazariyasida shaxsning ma’naviy kamoloti juda qat’iydir (Zijad D., 2006: 33-43).

Bugungi dunyoviy jamiyatlarda diniy ta’limning tashkil etilishi va o‘qitilishi jarayonidan kelib chiqib, uni tashkil qilish yuzasidan turli nazariyalar ilgari suriladi (Abdurahmonov, A., va boshqalar, 2001: 11-28). Xususan, mazkur masala ta’lim pedagogikasi nuqtayi nazaridan ham muhokamalarga tortilgan. Jumladan, tadqiqotchilar tomonidan diniy ta’limning e’tiqodga oid ta’lim (qanday qilib o‘z diniga sodiq bo‘lish kerak), din haqida ta’lim (jahon dinlari kontekstida o‘rgatish) va axloqiy ta’lim (ko‘proq fuqarolik kabi) singari o‘qitish tizimi yo‘nalishlariga ajratiladi (Lähnemann J., Schreiner P., 2009: 47-53).

Bunday fikrlar musulmonlar yashaydigan dunyoviy jamiyatda diniy ta’limni tashkil qilish masalasida qabul qilingan mezonlarga asoslanishi mumkin. Masalan, bu borada R. Orsining yondashuvi shundan iborat ediki, masjid, cherkov va etnik ozchilikning maktablari – bu shunday joyki, u yerda umumiy qabul qilingan normalar ko‘rib chiqiladi va yangi ijtimoiy amaliyotlarga asos solinadi (Orsi R., 1999: 13-26). Uni ikki xil “din(lar)ga oid ta’lim” va “din(lar) haqida ta’lim” deb nomlash mumkin. Tadqiqotchi olim Chazan tomonidan diniy ta’limni tashkil etishning uchta turi qayd etilib, u e’tiqodda tarbiya, ya’ni qanday qilib o‘z dinining taqvodor vakili bo‘lish, din haqida ta’lim berish, ya’ni dunyo dinini o‘rgatish va fuqarolikka o‘xshash axloq tarbiyasi kabi masalani o‘z ichiga oladi (Chazan B., 1985: 5-19).

Aytish mumkinki, diniy ta’lim zamonaviy dunyoda axloq normalari sifatida madaniy qadriyatlar bo‘lagi deb qaraladi va uni alohida diniy ta’lim muassasalari sifatida tashkil etish emas, balki umumta’lim jarayonida tashkil etish borasida fikrlar ilgari suriladi. Xususan, Fratelli (2013) post-sekulyar jamiyatlarda maktablar va diniy tashkilotlarning umumiy amaliyotlarda ishtirok etish orqali bir-birining imkoniyatlari paydo bo‘lishini ta’kidlaydi. Lähnemann (2009) diniy ta’lim va dinlararo bilim odamlarga o‘z hayoti va harakatlarida yo‘nalish topishga yordam berishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishini qayd etadi. R. Jekson dindan ta’lim olish o‘quvchilarni diniy va axloqiy masalalarga turlicha munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga oladi, bu yerda asosiy maqsad o‘quvchilarga din va qadriyatlarga oid masalalar bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini rivojlantirishga imkon berish ekanligini qayd etadi (Jackson R., 2007: 29).

E’tiqodga oid diniy ta’lim davlat maktablarida ikki yo‘l bilan berilishi mumkin. Birinchidan, diniy ta’lim o‘z diniy konfessiyalariga e’tiqodda ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi. Bu shaxsning o‘ziga xosligini aniqlashga, uning qaysi dinga mansubligini, diniy o‘zligini qurishga, talabalarning esa diniy o‘ziga xosligini shakllantirishga va ularning o‘zlari tegishli bo‘lgan madaniy va ma’naviy sohalarga integratsiyalashuviga hissa

qo‘shadi (Brandt P., 2013: 299-303) va diniy tuyg‘ularni (axloqni) rivojlantirishga yordam beradi. Qolaversa, u to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajrata olish, shu farqqa ko‘ra harakat qilish va to‘g‘ri ish qilsa mag‘rurlik, noto‘g‘ri ishlarda esa aybdorlikni boshdan kechirish hissiyotini rivojlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, insonning axloqini shakllantiradi. Dinlar bilan munosabatda bo‘lish shaxsiy oriyentatsiya va shaxsiyatni shakllantirishga hissa qo‘shishi mumkin. Bu diniy jamoalardagi ta’limga, shuningdek, xalq ta’limiga ham tegishli. Jamiyatlarda diniy ta’lim o‘quvchilarning plyuralistik va ko‘pincha dunyoviylashgan kontekstlarini hisobga olishi kerak va davlat maktablarida diniy ta’lim neytral faktlar bilan emas, balki jamoalarda mavjud bo‘lgan dinlar bilan uchrashish imkonini berishi kerak.

Ikkinchidan, diniy ta’lim talabalarga turli diniy an’analarni birdek e’tirof etgan holda, dinlar haqida ma’lumotga ega bo‘lgan bilimlarni taqdim etadi. U turli xil dunyoqarashlar, ularning madaniy va axloqiy oqibatlari va inson huquqlariga qo‘shgan hissasi haqida xabardor bo‘lishga yordam beradi va shu bilan birga yaxshi yashashning zaruriy sharti sifatida bag‘rikenglik munosabatiga hissa qo‘shishi mumkin. Bu xalq ta’limining ustuvor yo‘nalishi bo‘ladi. O‘z diniy konfessiyalarining diniy g‘oyalarini bilish o‘quvchilarning shaxsiyatini aniqlashga va o‘zlariga tegishli bo‘lgan madaniy va ma’naviy sohalarga integratsiyalashuviga yordam beradi (Schreiner P., 2009: 117). Dindan ta’lim olish o‘quvchilarni diniy va axloqiy masalalarga turli xil javoblarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi, shunda ular o‘z qarashlarini aks ettiruvchi sifatida rivojlanadi (Jackson R., 2007: 29).

Ta’kidlash o‘rinliki, axloqiy tarbiya islom ta’limining muhim tarkibiy qismi sifatida juda markazlashgan va keng qamrovli hisoblanadi. Qur’on va sunnatning axloqiy tarbiya bo‘yicha an’anaviy ko‘rsatmalari axloqning barcha me’yorlari uchun juda aniq asosni beradi. Bu ta’lim musulmon ta’lim muassasalarida faqat fan sifatida o‘qitilmaydi, balki maktabning barcha faoliyati orqali amalga oshiriladi (Ziyad D., 2006: 33-43).

Diniy va dunyoviy ta’limdagi maqsadlar va natijalar har xil bo‘lganidan ularni aralashtirib va ajratib bo‘lmaydi. Islom ta’lim tizimida o‘ziga xos diniy urf-odat va me’yorlarga alohida urg‘u berilib, musulmon ta’limining markaziga Qur’on va sunnat qo‘yilgan. Musulmon aholisi Qur’on nozil bo‘lgan paytdan boshlab axloqiy fazilatlarni shakllantirishni hayotdagi asosiy vazifa sifatida qadrlagan. Diniy ta’limni zamonaviy musulmon olimlari islom ta’limini shaxsning aqliy, ma’naviy va ijtimoiy jihatlarini o‘z ichiga olgan to‘liq shaxsni (komil insonni) o‘z ichiga olgan jarayon sifatida ko‘radi (Al-Attas., 1979: 36). Bu jarayonda diniy bilim olishning maqsadini tushunib olish kerak, chunki ushbu amaliyotlar mavjud madaniy qadriyatlarga mos keladi va bunda muqobil talqinlar chegaralangandir. M. Luzning fikricha, diniy ta’limning eng muhim maqsadi diniy tomonlama bolani tarbiyalash axloqiy ta’lim ekanligini, dinni tushunish

bilan bir qatorda diniy hayot tarziga qanday amal qilish kerak, degan savolga javob berishni ham belgilaydi (Luz M., 2009: 62-70).

Diniy ta’limga bo‘lgan pedagogik nuqtayi nazar “dinlardan ta’lim olish” nazariyasi diniy fanlarning maqsadini “dinni o‘rganish”dan, shunchaki bilimga asoslangan holda, talabalarning ongi, refleksliligi va tushunishini rivojlantirishga qaratilgan chuqurroq narsaga o‘zgartiradi. (Jackson, R. 2007: 62-91). Shu nuqtayi nazardan, madaniyatlararo ta’limdagi diniy plyuralizm nafaqat shaxsiy bilim, balki individual rivojlanish hamda qadriyatlar va e’tiqodlar to‘plamini tanqidiy ko‘rib chiqish imkonini beruvchi manbadir. Madaniyatlararo ta’lim, shuningdek, “dinlardan o‘rganish” individual o‘ziga xoslikni ko‘plik va moslashuvchan sifatida ifodalashga asoslangan jarayondir.

Ushbu ta’lim majburiy yoki ixtiyoriy ma’ruzalar orqali amalga oshirilishni nazarda tutadi (Khalilova Z., 2023: 194-196). Dinning konfessional ta’limoti odatda diniy jamoalar tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi (ko‘pincha davlat bilan hamkorlikda), aksariyat hollarda o‘qituvchilarni tayyorlash va tanlashni ta’minlaydi. Bundan tashqari, diniy ta’lim va dinlararo ta’lim tushunish va bag‘rikenglikni rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin (Jackson R., 2007; Seligman A., 2004). Dinshunoslik ta’limi metodologiyalari maktab darsliklarida diniy hodisalar va manbalarni tahlil qilish uchun izohli modellarni o‘z ichiga oladi (Schreiner P., 2009: 42-67).

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, axloqiy tarbiya islom tarbiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida juda markazlashgan va keng qamrovli hisoblanadi. Qur’on va sunnatning axloqiy tarbiya bo‘yicha an’anaviy ko‘rsatmalari axloqning barcha me’yorlari uchun juda aniq asosni beradi. D. Ziyadning fikricha, bu ta’lim musulmon ta’lim muassasalarida faqat fan sifatida o‘qitilmaydi, balki maktabning barcha faoliyati orqali amalga oshiriladi (Ziyad D., 2006: 33-43).

Ta’kidlash o‘rinliki, Markaziy Osiyo tarixida bu jarayon turli davrlarda kechgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlardan kelib chiqib, diniy ta’limning o‘qitilishida dunyoviylikning kiritilishi, an’analarning saqlab qolinishi yoki dinning davlatdan ajratilishi kabi manzaralarni kuzatish mumkin. Bu jarayonda davlatning dunyoviyligidan, aholisining musulmonlar tashkil qilishidan kelib chiqqan holda, maktablarda diniy ta’limni joriy etishdan maqsad turli xillik va bag‘rikenglik tamoyillari asosida yoshlar o‘rtasida diniy bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashishdir (Xusniddinov Z., 2002; Yusupov O., 2015; Yusupov O., 2022). Shuni ta’kidlash kerakki, diniy bilim faqat e’tiqoddan ko‘ra ko‘proq narsani o‘z ichiga oladi. U turli dunyoqarashlar, ularning madaniy va axloqiy oqibatlari va inson huquqlariga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida xabardor bo‘lishga yordam beradi va shu tariqa totuvlikda yashash uchun zarur shart sifatida bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu konsepsiyadan kelib chiqqan holda, post-sekulyar jamiyatlarda din fanini o‘qitishda ta’lim jarayoniga kiritilishi kerak bo‘lgan aniq elementlar mavjudki, bu talabalarning reflektiv fikrlash bilan shug‘ullanishlari va pirovardida o‘z nuqtayi nazarlarini shakllantirishlariga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, islom madaniy merosida ta’lim fenomeni shaxsni tarbiyalashning muhim va ajralmas qismlaridan birini tashkil etib, o‘z ichiga nafaqat axloq normalarini, balki o‘quvchilarning reflektiv fikrlashlari uchun turli dinlar doirasida va keng qamrovli bilimlar berilishini nazarda tutadi. Diniy ta’limni qanday tashkil etish borasidagi mulohazalar bugungi dunyoviy jamiyatlarda ta’limning madaniyat, qadriyatlar bilan bog‘liqligini hisobga olgan holda shakllanmoqda. Islom falsafasida diniy ta’limni umumiy ta’lim bilan bir butunlik va uyg‘unlikda tashkil etish yuzasidan fikrlar bildirilgan bo‘lsa, g‘arb falsafasida diniy ta’limning tashkil etilishi umumiy ta’limdan alohida ajratilgan fenomen sifatida va asosan axloq qoidalari bazasida talqin etiladi. Tadqiqotchilar tomonidan yangi tashkil topgan post-sekulyar jamiyatlarda din haqidagi ta’lim asosan madaniy qadriyatlar negizida va tarixiy kontekstda o‘qitilishi talqin etilib, bu jarayon musulmon aholisi ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda diniy ta’limni tashkil etishning muhim belgisi sifatida qaraladi. Umuman, islom diniy merosi e’tiqod, axloq va jamoaviy normalar kabi asosiy qadriyatlarni singdirish orqali, ta’lim orqali o‘ziga xoslikka (identiklikka) sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Islom dini ta’limotlari orqali musulmonlar maqsad, tegishlilik va axloqiy yo‘l-yo‘riq hissini qo‘lga kiritadi. Shuningdek, u islom tarixi, madaniyati va urf-odatlari bilan mustahkam aloqani o‘rnatadi. Bu insonning o‘ziga xosligi (identikligi) bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday qilib, diniy ta’lim islom merosidan kelib chiqqan ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni asrash orqali kishining shaxsiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Islom ta’limi va uning falsafasi islom madaniy merosida tadqiq etiladigan va qiziqarli mavzulardan biri bo‘lib, uning din, madaniyat va zamonaviylik nuqtayi nazaridan yangi jihatlari o‘rganilishi keyingi tadqiqotlar uchun bahsli mavzulardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdolkarim, Soroush (2009) The Expansion of Prophetic Experience: Essays on Historicity, Contingency and Plurality in Religion. − Tehran: Sherkat Ketab.
2. Abdurahmonov, A., Boydadayev, M., Bozorov, E. (2001) Din va siyosat (Ilmiy-uslubiy qo‘llanma). – Namangan.
3. Al-Attas S. (1979) Preliminary Thoughts on the Nature of Knowledge and the Definition and Aims of Education. − Jeddah: University of King Abdul Aziz.

4. Brandt, P. (2013) Psychological aspects of the role of religion in identity construction. Integrative Psychological and Behavioural Science, 47. pp. 299–303. doi: 10.1007/s12124-013-9237-z.

5. Chazan, B. (1985) Contemporary Approaches to Moral Education: Analyzing Alternative Theories. − New York: Teachers College Press.

6. Fratelli, V. (2013) Learning from religions post-secular schools and the challenge of pluralism. Italian Journal of Sociology of Education, 5(2). pp. 46-66.

7. Jackson, R. (2007) European Institutions and the Contribution of Studies of Religious Diversity to Education for Democratic Citizenship. In R. Jackson (eds.), Religion and Education in Europe. Developments, Contexts and Debates. − Münster: Waxmann.

8. George, Makdisi (1981) The Rise of Colleges: Institutions of Learning in Islam and the West. − Edinburgh University Press.

9. Khalilova, Zilola (2023) *Передача исламских знаний в современном Узбекистане: представленность религии и культуры в образовании*. Muslims of Central Eurasia since the 19th century: Daily life, Identity, Intellectual Thought and Education. (Eds. E. Muratova) − Baku: Idrak Public Union. pp. 175-197.

10. Lähnemann, J., & Schreiner, P. (2009) Interreligious and values education in Europe. Map and handbook (3rd. ed.). − Münster: Comenius-Institut.

11. Luz, M. Ibarra (2009) The Philosophy of Education of Jacques Maritain and Religious Education. Ph.D. Diss. Doctor of Philosophy in the Graduate School of Religion and Religious Education Fordham University. − New York.

12. Orsi, R. (1999) Gods of the city. – Bloomington: Indiana University press.

13. Seligman A. B. (2004) Modest Claims. Dialogues and Essays on Tolerance and Tradition. − Notre Dame: University of Notre Dame Press.

14. Schreiner, P. (2009) Religious Education in Europe. Situation and Developments. − Institute of Education, University of London.

15. Talal, Asad (2003) Formations of the Secular: Christianity, Islam, Modernity. − Stanford University Press.

16. Tariq, Ramadan (2003) Western Muslims and the Future of Islam. − New York.

17. Yusupov, O. (2015) Diniy bag‘rikenglik tamoyili yoshlar talqinida. – Toshkent: Movarounnahr.

18. Yusupov, O. (2022) Mamlakatimizda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashning dolzarb yo‘nalishlari. Elektron manba: 17.03.2024. https://religions.uz/uz/news/detail?id=443

19. Хусниддинов, З. (2002) Взаимоотношения между государством и религией. Межрелигиозное согласие − важное условие углубления

демократических процессов в странах Сентралной Азии (на примере Р.Уз). – Ташкент: Фонд Имам Бухари.

20. Zijad, Delic (2006) Hermeneutics of Islamic Education and the Construction of New Muslim Cultures in the West: Faithful but Reformed. Master of Science University of Oregon. − Simon Fraser University.

REFERENCES:

1. Abdolkarim, Soroush (2009) The Expansion of Prophetic Experience: Essays on Historicity, Contingency and Plurality in Religion. − Tehran: Sherkat Ketab.

2. Abdurahmonov, A., Boydadayev, M., Bozorov, E. (2001) Din va siyosat (Ilmiy-uslubiy qo‘llanma). – Namangan. (In Uzbek)

3. Al-Attas S. (1979) Preliminary Thoughts on the Nature of Knowledge and the Definition and Aims of Education. − Jeddah: University of King Abdul Aziz.

4. Brandt, P. (2013) Psychological aspects of the role of religion in identity construction. Integrative Psychological and Behavioural Science, 47. pp. 299–303. doi: 10.1007/s12124-013-9237-z.

5. Chazan, B. (1985) Contemporary Approaches to Moral Education: Analyzing Alternative Theories. − New York: Teachers College Press.

6. Fratelli, V. (2013) Learning from religions post-secular schools and the challenge of pluralism. Italian Journal of Sociology of Education, 5(2). pp. 46-66.

7. Jackson, R. (2007) European Institutions and the Contribution of Studies of Religious Diversity to Education for Democratic Citizenship. In R. Jackson (eds.), Religion and Education in Europe. Developments, Contexts and Debates. − Münster: Waxmann.

8. George, Makdisi (1981) The Rise of Colleges: Institutions of Learning in Islam and the West. − Edinburgh University Press.

9. Khalilova, Zilola (2023) *Peredacha islamskix znaniy v sovremennom Uzbekistane: predstavlennost religii i kulturi v obrazovanii*. Muslims of Central Eurasia since the 19th century: Daily life, Identity, Intellectual Thought and Education. (Eds. E. Muratova) − Baku: Idrak Public Union. pp 175-197. (In Russian)

10. Lähnemann J., & Schreiner P. (2009) Interreligious and values education in Europe. Map and handbook (3rd. ed.). − Münster: Comenius-Institut.

11. Luz, M. Ibarra (2009) The Philosophy of Education of Jacques Maritain and Religious Education. Ph.D. Diss. Doctor of Philosophy in the Graduate School of Religion and Religious Education Fordham University. − New York.

12. Orsi, R. (1999) Gods of the city. – Bloomington: Indiana University press.

13. Seligman, A. B. (2004) Modest Claims. Dialogues and Essays on Tolerance and Tradition. − Notre Dame: University of Notre Dame Press.

14. Schreiner, P. (2009) Religious Education in Europe. Situation and Developments. − Institute of Education, University of London.

15. Talal, Asad (2003) Formations of the Secular: Christianity, Islam, Modernity. − Stanford University Press.

16. Tariq, Ramadan (2003) Western Muslims and the Future of Islam. − New York.

17. Yusupov, O. (2015) Diniy bag‘rikenglik tamoyili yoshlar talqinida. – Toshkent: Movarounnahr. (In Uzbek)

18. Yusupov, O. (2022) Mamlakatimizda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashning dolzarb yo‘nalishlari. Elektron manba: 17.03.2024. https://religions.uz/uz/news/detail?id=443 (In Uzbek)

19. Xusniddinov, Z. (2002) Vzaimootnosheniya mejdu gosudarstvom i religiyey. Mejreligioznoye soglasiye – vajnoye usloviye uglubleniya demokraticheskix protsessov v stranax Sentralnoy Azii (na primere R.Uz). – Tashkent: Fond Imam Buxari. (In Russian)

20. Zijad, Delic (2006) Hermeneutics of Islamic Education and the Construction of New Muslim Cultures in the West: Faithful but Reformed. Master of Science University of Oregon. − Simon Fraser University.

QO‘LYOZMA VA LITOGRAFIK MANBALARNI RAQAMLASHTIRISH MUAMMOLARI

PROBLEMS OF DIGITIZATION OF HANDWRITTEN AND LITHOGRAPHIC SOURCES

ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ РУКОПИСНЫХ И ЛИТОГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li,
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti,
“Tarixiy manbashunoslik” bo‘limi kichik ilmiy xodimi,
Tel: +998 90 037-45-00
akbaridiyev515@gmail.com,
Orcid ID: 0009-0009-8153-1228

Annotatsiya: Qo‘lyozma hamda toshbosma manbalarni raqamlashtirish madaniy merosni asrab-avaylash va uni dunyoga ochiq qilish yo‘lidagi hal qiluvchi qadamdir. Biroq, bu jarayon texnik qiyinchiliklardan tortib, haqiqiylik va mualliflik huquqi masalalarigacha bo‘lgan murakkabliklarga to‘la sanaladi. Biz ushbu maqolamizda rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb sanalgan manbalarni raqamlashtirish sohasidagi muammolar va ularning O‘zbekiston sharoitidagi ba’zi yechimlari masalasi haqida fikr yuritamiz. Bizga ma’lumki, qo‘lyozma va litografik manbalar o‘zining noyobligi va unda saqlanuvchi ma’lumotlarning ahamiyati nuqtayi nazaridan barcha xalqlar uchun bebaho va qadrlanuvchi meros sifatida ko‘riladi. Butun dunyoda yuz bergan turli urushlar va notinchlik davrlarida ko‘p holatlarda dastlabki nishon sifatida xalqning ma’naviy merosiga raxna solingan. Shu sababli, davrlar o‘tishi bilan bu ko‘rinishdagi ashyolarning asosiy qismi bizga qadar yetib kelmagan. Ana shunday antropogen va texnogen ta’sirlardan ularni asrashda bizga raqamlashtirish masalasi yordamga keladi. Qo‘lyozma va toshbosma manbalarni raqamlashtirish madaniy merosni asrab-avaylash va hamma uchun foydalanish imkonini berish yo‘lidagi hal qiluvchi qadamdir. Biroq, bu jarayon texnik jihatlardan tortib, haqiqiylik va mualliflik huquqi masalalarigacha bo‘lgan qiyinchiliklarga to‘la sanaladi. Biz ushbu maqolamizda rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb sanalgan manbalarni raqamlashtirish sohasidagi muammolar va ularning O‘zbekiston sharoitidagi ba’zi yechimlari xususida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma, litografiya, raqamlashtirish, muzey, fondlar, YUNESKO, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, mualliflik huquqi, kutubxona, arxiv, madaniy meros.*

Annotation: Digitization of manuscripts and petroglyphs is a crucial step towards preserving cultural heritage and making it accessible to the world. However, the process is fraught with challenges, from technical difficulties to authenticity and copyright issues. In this article, we will discuss the problems in the field of digitization of resources that are relevant for developing countries and some of their solutions in the conditions of Uzbekistan. As we know, manuscripts and lithographic sources are considered a unique and valuable heritage for all peoples due to their uniqueness and the importance of the information stored in them. During various wars and periods of unrest in the world, in many cases, the spiritual heritage of the people was attacked as the first target. Therefore, with the passage of time, the main part of objects of this type have not reached us. Digitization will help us protect them from such anthropogenic and technogenic influences. The digitization of manuscripts and petroglyphs is a crucial step towards preserving cultural heritage and making it accessible to the world. However, the process is complex with challenges, from technical difficulties to authenticity and copyright issues. In this article, we will discuss the problems in the field of digitization of resources that are relevant for developing countries and some of their solutions in the conditions of Uzbekistan.

Key words: *manuscript, lithography, digitization, museum, funds, UNESCO, Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies, copyright, library, archive, cultural heritage.*

Аннотация: Оцифровка рукописей и петроглифов – важнейший шаг на пути к сохранению культурного наследия и обеспечению его доступности для всего мира. Однако этот процесс сопряжен с проблемами: от технических трудностей до вопросов аутентичности и авторских прав. В этой статье мы обсудим проблемы в сфере оцифровки ресурсов, актуальные для развивающихся стран и некоторые их решения в условиях Узбекистана. Как известно, рукописные и литографические источники считаются уникальным и ценным наследием для всех народов в силу своей уникальности и важности хранящейся в них информации. Во время различных войн и периодов волнений в мире во многих случаях духовное наследие народа подвергалось нападениям в качестве первой цели. Поэтому с течением времени основная часть объектов этого типа до нас не дошла. Цифровизация поможет нам защитить их от таких антропогенных и техногенных воздействий. Оцифровка рукописей и петроглифов – важнейший шаг на пути к сохранению культурного наследия и обеспечению его доступности для всего мира. Однако этот процесс сопряжен с проблемами: от технических трудностей до вопросов оригинальности и авторских прав. В этой статье мы обсудим проблемы в сфере оцифровки

ресурсов, актуальные для развивающихся стран и некоторые их решения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: *рукопись, литография, оцифровка, музей, фонды, ЮНЕСКО, Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни, авторское право, библиотека, архив, культурное наследие.*

KIRISH

Raqamli gumanitar fanlar asrida qo‘lyozma va litografik manbalarni raqamlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu qimmatli tarixiy va madaniy boyliklarni asrab-avaylash imkonini beradi. Shu bilan birga, manbalarni izlash va ulardan foydalanish olimlar hamda jamoatchilik uchun qulayroq bo‘ladi. Biroq raqamlashtirish jarayoni ham muammolardan xoli emas. So‘nggi yillarda raqamlashtirish masalasi kutubxonalar bilan birgalikda fondlarni ham qamrab bormoqda. Shu jihatdan mazkur sohaning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini ilmiy yoritish kun tartibidagi asosiy vazifalardan sanaladi. Ammo hozirda mazkur mavzuni o‘zida to‘liq aks ettirgan manbalar mavjud emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzuga oid ko‘plab manba va adabiyotlarda ma’lumotlar uchraydi va asosiy muammolar maqola ko‘rinishida mualliflar tomonidan yoritilgan. Ayni tadqiqotimizga yaqin ilmiy ishlardan biri, K. Namita va Y. Chavant tomonidan yozilgan “Raqamli kutubxonalar: qiyinchiliklar va muammolar” nomli maqola sanaladi. Ushbu tadqiqot mualliflari “Raqamli kutubxona” atamasini eng sodda shaklda tasvirlashi bilan birga tez rivojlanayotgan raqamli kutubxonalarning asosiy konsepsiyasini yetkazish, uni o‘quvchilar tushunishi uchun ma’no va ta’riflar bilan bir qatorda, tez o‘zgaruvchan AKT asosidagi muhitda raqamli kutubxonalarni muvaffaqiyatli yaratishdagi muammolarga ham e’tibor qaratadi. (Namita K., Chavant Y., 2015) Keyingi maqola B. Havkning “OBA va o‘rta asr qo‘lyozmalari: bazani o‘rnatish” nomli tadqiqot ishi bo‘lib, unda qo‘lyozmalarga xos bo‘lgan optik belgilarni aniqlash (OBA) masalasida fikr yuritilgan. Muammolariga e’tibor qaratgan holda, ushbu maqola so‘nggi yutuqlarni o‘rganadi va matnni ajratib olishning aniqligini oshirish uchun yechimlarni taklif qiladi. (Hawk B., 2019) Keyingi manba masalaning texnik tomonlarini o‘zida aks ettirgan Stolinski va Bienieckilarning “Qog‘oz hujjatlarini qayta ishlash va raqamlashtirishda OCR tizimlarini qo‘llash” nomli tadqiqoti sanalib, ushbu tadqiqot raqamlashtirilgan hujjatlar bilan bog‘liq saqlash muammolarini o‘rganadi (Stoliński S., Bieniecki W., 2011). Navbatdagi tadqiqot L. Arabgori, M. Kamran va Sh. Rizoyi tomonidan amalga oshirilgan “Fors qo‘lyozmalari ma’lumotlar bazalarida qo‘llaniladigan metama’lumotlar standartlari” deb nomlanadi. Ishda turli metama’lumotlar standartlari o‘rganilib, raqamlashtirilgan qo‘lyozma

tarkibini tashkil qilish va olishda ularning samaradorligi Erondagi ba’zi fondlar misolida qiyosiy tahlil qilinadi. (Arabgary L., Kamran M., Rezai Sh., 2013) A. Gaitan va boshqalar qalamiga mansub “Kitobni saqlash va raqamlashtirish: muloqot va hamkorlik muammolari” nomli ish ham shu mavzudagi tadqiqotlardan sanaladi. Ushbu amaliy tadqiqot bir nechta muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan raqamlashtirish sa’y-harakatlarini o‘rganadi. Unda standartlashtirish, birgalikda ishlash va resurslarni almashish bilan bog‘liq muammolar muhokama qilinadi (A.Gaitán, C.Thompson-Baum, F.Marzo, S.Signorello, A.Corbach, C.Stefani, P.Smith, A.Velios, N.Pickwoad, F.France, M.Toth, A.Quandt, M.Terras, A.Campagnolo., 2020). S. Korbet va M. Boddingtonning “Mualliflik huquqi qonuni va madaniy merosni raqamlashtirish” nomli ishi ham ayni masalaga bag‘ishlangan bo‘lib, ular ishning huquqiy va axloqiy jihatlariga e’tibor qaratgan holda, raqamlashtirish sa’y-harakatlari bilan bog‘liq mualliflik huquqi muammolarini ko‘rib chiqadilar hamda mualliflik huquqiga rioya qilish bilan ochiq kirishni muvozanatlash strategiyalarini taklif qiladilar (Corbett S., Boddington M., 2011). Mazkur masalalarning aksarida xorij tajribasi aks etgan. Mahalliy muammolar yechimiga bag‘ishlangan O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va IRCICA hamkorligida o‘tkazilgan U. Karimov nomidagi XVIII Xalqaro yosh sharqshunoslar ilmiy anjumani materiallarining birinchi sho‘basi shu masalaga qaratilgan edi (IRCICA Newsletter, Issue 118., 2022: 10). Anjumanda taqdim qilingan aksar ishlar kichik hajmdagi ilmiy ishlar sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qo‘lyozma va litografik manbalarni raqamlashtirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish maqsadida metadata yaratish, ma’lumotlar tahlili, qiyosiy tahlil, hamda sintez kabi metodlardan foydalanib tadqiqot olib borildi. Ushbu soha yangi sohalardan biridir. Shu bilan birga, juda tor doiradagi tadqiqot turi bo‘lganligi bois, kollaboratsiyalashgan tadqiqotlardan foydalangan holda muammoning mahalliy tashkilotlardagi holati yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamlashtirish jarayonidagi asosiy muammolardan biri texnik jihatdir. Qo‘lyozmalar va toshbosma asarlar ko‘pincha mo‘rt bo‘lib, shikastlanmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan ishlashni talab qiladi. Raqamlashtirish sohasidagi eng nozik masalalardan biri bu tasvir sifati sanaladi. Qadimiy qo‘lyozmalarga zarar yetkazmasdan yuqori aniqlikdagi tasvirlarga erishish qiyin bo‘lishi mumkin. Batafsil tasvirlarga bo‘lgan ehtiyojni jismoniy materialni saqlash bilan muvozanatlash juda muhimdir. Yana bir asosiy texnik muammo tasvir ranglarini o‘zidek takrorlash sanaladi. Qo‘lyozmalar va toshbosma asarlar ko‘pincha ranglarning keng assortmentini o‘z ichiga oladi va bu ranglarni raqamli formatlarda aniq takrorlash qiyin bo‘lishi

mumkin. Tarixiy hujjatlarning haqiqiyligini saqlab qolish uchun ranglarning aniqligini saqlash juda muhim. Shuningdek, optik belgilarni aniqlash (OBA) dasturi qo‘lda yozilgan matnni aniq tanib olishda qiynalishi mumkin (Hawk B., 2019: 7). Tarixiy qo‘lyozmalarda mavjud bo‘lgan qo‘lyozmaning turli uslublari o‘zgaruvchanlikni boshqarishga qodir rivojlangan OBA algoritmlarini talab qiladi. Shuningdek, raqamlashtirish jarayoniga taqdim etilayotgan qo‘lyozma va toshbosmalar albatta biokimyoviy ishlov berilgan bo‘lishi, uning mo‘rtligini inobatga olgan holda maxsus qo‘lqop va boshqa zarur anjomlar bilan ishlanishi maqsadga muvofiq. Raqamlashtirish oldidan shikastlangan joylari ko‘p bo‘lgan manbalar restavratsiya qilinishi tavsiya etiladi. Manbalarni saqlash va konservatsiya qilish masalalariga oid ko‘rsatmalar YUNESKO tomonidan jahon miqyosida (Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida, 1972) hamda O‘zbekiston misolida ham berib o‘tilgan (Sharq qo‘lyozmalari xazinasi, 2012).

Ushbu hujjatlarning murakkab tafsilotlarini olish uchun yuqori aniqlikdagi skanerlar kerak va bu mashinalar qimmat sanaladi. Bundan tashqari, ushbu manbalarni raqamlashtirish jarayoni, ayniqsa, katta kolleksiyalar uchun ko‘p vaqt talab qilishi mumkin (Isa El-Kalash K., 2022: 9-10). Xususan, amaliy tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, bu kabi qurilmalar faqat markaziy manbalar saqloviga mo‘ljallangan tashkilotlardagina mavjud. Bular O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda O‘zArxiv agentligi, shu bilan birga, Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona kabi tashkilotlardagina mavjud. Ammo boshqa viloyatlarda bu kabi yirik skaner qurilmalari saqlanmaydi. Mavjud skanerlar ham yurtimizdagi energetik inqiroz davrlarida (asosan qish faslida) buzilish ehtimoli yuqori, uni oldini olishga qaratilgan UPS (Uzluksiz quvvat manbalari) ham bu kuchlanishda tezda ishdan chiqadi. Agar skaner qurilmasi buziladigan bo‘lsa doimiy ravishda rivojlangan davlatlardagi servis markazlari bilan aloqa qilish va hatto uni o‘sha davlatga eltish orqali muammo bartaraf etiladi. Bu esa moliyaviy masalaga bog‘lanadi. Bizda mavjud ushbu turdagi manbalar saqlanuvchi fondlar davlat tasarrufida ekanligini inobatga olsak, biroz murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin. Sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar oldindan prognozlashtirilgan holatda 5 yillikda kerak bo‘ladigan texnik qurilmalar ro‘yxati shakllantirilib, doimiy yangilanuvchi davlat dasturlari (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, № 975, 2017) orqali ushbu jihozlarni xarid qilish eng maqbul yechim sanaladi.

Ikkinchi masala zaif materiallar bilan ishlashdir. Qo‘lyozmalar va toshbosma asarlar ko‘pincha eski va yirtilishga moyil bo‘ladi (Juan Carlos, 1989: 5-6). Raqamlashtirish uchun zarur bo‘lgan jismoniy ishlov berish materiallarning yaxlitligiga xavf tug‘dirishi mumkin, bu esa ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va maxsus jihozlardan foydalanishni talab qiladi.

Raqamlashtirish jarayonlarini standartlashtirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Raqamlashtirish jarayonlarida standartlashtirishning yo‘qligi tasvir sifati, metama’lumotlar va fayl formatlarida nomuvofiqliklarga olib kelishi mumkin. O‘zaro muvofiqlikni ta’minlash va hamkorlikni osonlashtirish uchun muassasalar bo‘ylab tartiblarni standartlashtirish juda muhimdir (A.Gaitán, C.Thompson-Baum, F.Marzo, S.Signorello, A.Corbach, C.Stefani, P.Smith, A.Velios, N.Pickwoad, F.France, M.Toth, A.Quandt, M.Terras, A.Campagnolo, 2020: 1-7).

Raqamlashtirilgan tarkibni tashkil qilish uchun samarali metama’lumotlarni yaratish va kataloglashtirish zarur. Texnik qiyinchiliklarga standartlashtirilgan metama’lumotlar sxemalarini ishlab chiqish va katta hajmdagi materiallarni qayta ishlash uchun kataloglash jarayonini avtomatlashtirish kiradi.

Raqamlashtirilgan materiallarni mavjud kutubxona yoki arxiv tizimlari bilan integratsiya qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Muvofiqlik muammolari paydo bo‘lishi mumkin, bu uzluksiz integratsiya va foydalanish imkoniyatini ta’minlash uchun texnik yechimlarni talab qiladi (Shen R., Gonçalves M., Fox E., 2013: 47-72). Ushbu masalani yechish maqsadida mamlakatimizda bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va dasturli ishlar olib borilishi uchun asosiy norma sifatida biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorini keltirishimiz mumkin. Uning 4-bobida fondlarni raqamlashtirish vazifasi qo‘yilgan.

Katta hajmdagi raqamli ma’lumotlarni boshqarish va uzoq muddatli saqlash birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi (Zhang J., Xing L., Chen Y., 2022: 181-188). Institutlar raqamli to‘plamlarning doimiy mavjudligini ta’minlash uchun ishonchli ma’lumotlarni saqlash yechimlari va saqlash strategiyalarini amalga oshirishlari kerak. Bu borada fondlarda maxsus malakali mutaxassislar ishlashi talab etiladi. Lekin bugungi kunda O‘zbekistonda eng yuqori maosh beriladigan ushbu soha vakillari uchun davlat tashkilotlarida to‘lanadigan oylik ish haqi miqdori texnik xodimlar uchun to‘lanuvchi tarif setkasi bilan hisoblanishi malakali xodimlarni sohaga jalb etishda muammolar tug‘dirmoqda.

Navbatdagi masala xarajatlar va resurslarni taqsimlash bilan bog‘liq. Raqamlashtirishga qo‘yiladigan texnik talablar, jumladan, ixtisoslashtirilgan uskunalar va malakali kadrlar ko‘p resurs talab qilishi mumkin. Institutlar keng qamrovli raqamlashtirish loyihalarining texnik talablarini qondirish uchun yetarli resurslarni ajratishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu loyihalarni amalga oshirishdagi eng maqbul yechim xorijiy donor tashkilotlar va mahalliy amaliy ilmiy loyihalar tanlovlarida qatnashish sanaladi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-916-son, 2008).

Shuningdek, raqamli huquqlarni boshqarish (RHB) vazifasiga ham e’tibor qaratish lozim. Raqamlangan kontentni himoya qilish va ochiq kirishni ta’minlash uchun samarali RHB yechimlarini joriy etish texnik muammo hisoblanadi. Mavjudlik va mualliflik huquqiga rioya qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqish va texnik amaliyotni talab qiladi. Bugungi kunda ushbu turdagi qoidabuzarliklar tadqiqotchi yoki foydalanuvchining O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1041-moddasi asosida javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1997).

Ushbu texnik muammolarni hal qilish ko‘pincha tadqiqotchilar, arxivchilar, kutubxonachilar va texnologlar o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Yaxshilangan OCR algoritmlari va yuqori aniqlikdagi tasvirlash texnikasi kabi texnologiyadagi davom etayotgan yutuqlar qo‘lyozma va litografik manbalarni raqamlashtirishda ushbu to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

MUHOKAMA

